где S, L и J – соответственно, суммарные значения квантовых чисел спинового, орбитального и полного механических моментов электронов 4f-слоя.

В рамках теории РККИ для вычисления интеграла косвенного обменного взаимодействия получено следующее выражение [1,5]:

$$A = \frac{9\pi^2}{E_F \Omega^2} A_{sf}^2(0) \sum_{n \neq m} F(2\vec{k}_F|\vec{R}_n - \vec{R}_m|). \quad (5)$$

Учитывая (5) и (3), из выражения (1) для значения θ_p чистых РЗМ, находим:

$$\theta_p = \frac{A}{3k_B} G. \quad (6)$$

Фактор де Жена для изучаемых соединений можно вычислить по правилу аддитивности:

$$G = (1 - x)G_{PЗМ} + xG_{НМ}, \quad (7)$$

где x – содержание НМ(Al, In) в атомных долях; $G_{PЗМ}$ и G_{Al} –соответственно, факторы де Жена для РЗМ и НМ. Поскольку терм основного состояния трехвалентного иона НМ $-^1S_0$, поэтому $G_{НМ} = 0$. При учете этого факта и (7), для значения θ_p изучаемых соединений находим:

$$\theta_p = \frac{A}{k_B} (1 - x)(g_J - 1)^2 J(J + 1) \quad (8)$$

Внешняя электронная оболочка трехвалентных ионов РЗМ практически одинакова ($5s^2 5p^6$), причем они находятся в узлах кристаллической гексагональной решётки, которая почти не изменяется при переходе от одного металла к другому. Интеграл косвенного обмена A по (5) зависит от n , $A_{sf}(0)$, Ω , E_F и решеточных сумм (функция $F(y)$). Все эти величины в первом приближении можно считать постоянными [15]. Поэтому, по (6) и (8) θ_p тяжелых РЗМ и изучаемых соединений должна быть пропорциональна фактору де Жена. Эти выражения дают возможность полуэмпирически проверить это предсказание теории РККИ.

В работах [6–12] было установлено, что экспериментальные значения эффективных чисел магнитных моментов, приходящиеся на один ион тяжёлых РЗМ³⁺ ($\mu_{эфф}$), во всех изученных тяжёлых РЗМ и соединениях с алюминием и индием удовлетворительно соответствуют значениям $\mu_{эфф}$ свободных ионов тяжёлых РЗМ³⁺. Это свидетельствует о том, что 4f электроны, ответственные за магнитные свойства изучаемых объектов локализованы в узлах их кристаллической решётки также, как в чистых тяжёлых РЗМ. Слабмагнитная среда (Al, In) и высокая температура ($T \approx 2000$ К) не влияют на энергетическое состояние 4f электронов в изучаемых объектах. Энергетический интервал между основным и первым возбуждённым уровнем велик по сравнению с $k_B T$, и заселенность возбуждённого уровня очень мала. Поэтому при расчетах G для тяжёлых РЗМ и изучаемых соединений можно использовать значения J и g_J для основных уровней свободных ионов тяжёлых РЗМ³⁺ [$Gd^{3+}(J = 7/2, g_J = 2)$; $Tb^{3+}(J = 6, g_J = 3/2)$; $Dy^{3+}(J = 15/2, g_J = 4/3)$; $Ho^{3+}(J = 8, g_J = 5/4)$; $Er^{3+}(J = 15/2, g_J = 6/5)$; $Tm^{3+}(J = 6, g_J = 7/6)$].

Результаты вычислений по (6) и (8) представлены, соответственно, на рис.1 и 2. Из рис. 1 видно, что зависимости $\theta_p(G)$ для изучаемых эквИАтомных соединений тяжёлых РЗМ с алюминИем(2-6-графики) имеют почти линейный характер и удовлетворительно соответствуют линейному характеру зависимости $\theta_p(G)$ для тяжёлых РЗМ(1-график). Из рис. 2 видно, что зависимости $\theta_p(G)$ для изучаемых эквИАтомных соединений тяжёлых РЗМ с индием(2-5-графики) тоже имеют почти линейный характер и удовлетворительно соответствуют линейному характеру зависимости $\theta_p(G)$ для тяжёлых РЗМ(1-график). Следовательно, изменение θ_p в изучаемых соединениях довольно близко к тому, что предсказывает теории РККИ. Это свидетельствует о том, что обменное взаимодействие в изучаемых соединениях является взаимодействием типа РККИ, как у чистых тяжёлых РЗМ.




Рис.1. Зависимости $\theta_p(G)$ для изучаемых соединений. Кр. 1 РЗМ (РЗМ = Cd, Tb, Dy, Ho, Er, Tm); кр.2.- PZM_2Al ; кр. 3 - $PZMAl$; кр. 4 – PZM_3Al_2 ; кр. 5 – $PZMAl_2$; кр. 6 – $PZMAl_3$.




Рис.2. Зависимости $\theta_p(G)$ для изучаемых соединений. Кр. 1 РЗМ (РЗМ = Cd, Tb, Dy, Ho, Er, Tm); кр.2.- PZM_5In_3 ; кр. 3 – PZM_2In ; кр. 4 – PZM_3In_5 ; кр. 5 – $PZMIn_3$.

III. Выводы

1. Впервые сделана попытка полуэмпирической оценки интеграла косвенного обменного взаимодействия в бинарных системах РЗМ – (Al, In) (РЗМ = Gd, Tb, Dy, Ho, Er, Tm) с использованием экспериментальных значений парамагнитной температуры Кюри образцов этих систем.

2. Подтверждено предсказание теории РККИ, т.е. установлена такая же пропорциональная зависимость между экспериментальным значением парамагнитных температур Кюри и фактором де Жена для изучаемых эквИАтомных соединениях, подобно как у чистых тяжёлых РЗМ.

В целом установлено, что для всех соединений изучаемых систем РЗМ – (Al, In) как и для чистых тяжёлых РЗМ, характерно обменное взаимодействие типа РККИ.

Литература

1. С. В. Вонсовский. Магнетизм. М.: Наука, 1971. - 1031 с.
2. М. А. Ruderman, С. Kuttel. Indirect exchange coupling of nuclear magnetic moments of conduction electrons.//Phys. Rev.-1954. – v.96.-№1.-P.99-102.
3. Т. А. Kasuya. Theory of metallic ferro and antiferromagnetism on Zener’s model.// Prog. Theor. Phys. (Kyoto). -1956.-V.16.-№1. –P.45-55.
4. К.Yosida. Magnetic properties of Cu-Mn alloys.// Phys. Rev. -1957.-V.106-№.5.-P.893-898

5. К.Тейлор. Интерметаллические соединения редкоземельных металлов. М.: Мир, 1974.–221 с.
6. Кувандиков О.К., Шакаров Х.О. Магнитные свойства интерметаллических соединений редкоземельных металлов с алюминием при высоких температурах//Узб. физ. журнал.– 1998.– №3.– с.62-67.
7. Кувандиков О.К., Шакаров Х.О. Магнитная восприимчивость интерметаллидов в системе РЗМ-А1 при высоких температурах// Известия вузов.Физика. Россия. – 2004.– №3.– с.78-81.
8. Кувандиков О.К., Шакаров Х.О. Исследования магнитных свойств интерметаллидов в системе РЗМ-А1 в твердом и жидком состояниях.// Металлофизика и новейшие технологии. Украина.– 2004.– т.26.– №10.– с.1323-1331.
9. Шакаров Х.О. Магнитная восприимчивость интерметаллических соединений лантаноидов с индием при высоких температурах.// Кандидатская диссертация, Самарканд, 1983.
10. Шакаров Х.О. Магнитная восприимчивость интерметаллидов в системе Er-In при высоких температурах//Известия вузов. Физика. Россия.- 2004.– №12.– с.7-10.
11. Шакаров Х.О. Магнитная восприимчивость интерметаллидов в системе Dy-In при высоких температурах//Известия вузов. Физика. Россия. - 2005.– №1.– с.88-89
- 12.Кувандиков О.К, Шакаров Х.О., Абдурахмонов А.. Исследование магнитных свойства интерметаллидов в системе РЗМ-In в твёрдом и жидком состояниях.//Металлофизика и новейшие технологии. Украина.- 2013.- Т. 35.- №7.- с.879-888.
- 13.Rocher Y. A. Emploi des niveaux lies virtuels dans les metaux de terres rares.//Phys. Chem. Sol.-1962.-V.247.- PP.1621-1629.
- 14.De Gennes P.G. Sur les proprietes des metaux de terres rares.//Compt. Rend. -1958. – V.247. –PP.1836-1838.
- 15.Никитин С. А. Температура магнитного упорядочения и интеграл косвенного обмена в редкоземельных сплавах тербий – иттрий и тербий – гадолиний// ЖЭТФ.– 1979.– Т. 77.– вып.1.– с.343-351.
16. Yatsenko S. P., Semyannikov A.A., Shakarov H.O., Fedorova E. G.// J.Less- Comm. Met.- 1983.-V. 90.- No.1.- P. 95 – 108.

UDK: 538 681

ОСОБЕННОСТИ ВРАЩАЮЩЕГО МОМЕНТА МНОГОСЛОЙНЫХ ПЛЕНОК

Х.О.Уринов¹, И. Субханкулов²

¹*Самаркандское высшее военное автомобильное командно-инженерное училище*

²*Самаркандский государственный университет*

Аннотация. Исследовано основное состояние тонкой пленки с конкуренцией объемной и поверхностной анизотропий во внешнем магнитном поле. Показано наличие фазового перехода из неоднородного в однородное состояние, построены фазовые диаграммы «толщина пленки – напряженность магнитного поля».

Ключевые слова: вращение вектора намагниченности, тонкие магнитные плёнки, магнитоупорядоченные кристаллы, неупорядоченные магнетики.

Ko‘p qatlamli qoplamalar aylanturuvchi momentning o‘ziga xosliklari

Annosiya. Tashqi magnit maydon ta’sirida yupqa qatlamli qatlamalarni asosiy hajmiy holatiga, sirt anizotropiyasi ta’siri o‘rganildi. Birjinsli holatdan birjinsli bo‘lmagan holatga faza o‘tishi borligi aniqlangan, “qatlam qalinligi – magnit maydon kuchlanganligi” faza diagrammasi qurilgan.

Kalitl so‘zlar: magnitlanish vektorining aylanishi, yupqa qatlamli magnit qoplamalar, tartibli magnit kristallar, tartibsiz magnetiklar.

Characteristic properties of the rotational moment of multilayer films

Abstract. The ground state of a thin film versus volume and surface anisotropies in an external magnetic field is investigated. The presence of a phase transition from an unhomogeneous to a

homogeneous state is shown, “ film thickness-magnetic field strength” phase diagrams are constructed.

Keywords: rotation of magnetizability vector, thin magnetic film, magneto-orderer crystal, disordered magnetics.

В настоящее время интерес к изучению вращающего момента возрос в связи с исследованиями многослойных магнитных структур, появление которых обеспечено прогрессом в технологии тонких пленок.

Если реальная толщина слоя d выбрана больше некоторой критической $d_{k0} = \pi/2 \cdot \sqrt{\alpha/(4\pi - \beta_2)}$, где α — обменная константа; β — константа, то при вращении пленки в магнитном поле при угле Ψ_k , определяемом из соотношения

$$\sin\Psi = \frac{H_k}{H} \left[1 - \left(\frac{d_{k0}}{d} \right)^2 \right], \quad (1)$$

где Ψ — угол между направлением магнитного поля и плоскостью пленки; внешнее магнитное поле напряженностью \mathbf{H} ; H_m — поле размагничивания; $H_k = (4\pi - \beta_2)M$. M — намагниченность насыщения; произойдет ФП с изменением полного магнитного момента. Исследуем подробно этот случай. Рассмотрим угловую зависимость вращающегося момента L пленки в магнитном поле.

Поскольку заранее известно, что будет исследоваться кривая фазового равновесия «неоднородное состояние — однородное состояние», то можно считать, что Θ_{\min} и Θ_{\max} в магнитном поле продолжают соответствовать центрам слоев и поэтому можно использовать следующие соотношения:

$$\lim_{\Theta \rightarrow \pi/2} \sin\Theta = 1/2 + 1/2 \sin^2\Theta$$

В то время как в однородном состоянии вращающий момент определяется углом отклонения вектора магнитного поля от нормали к плоскости пленки, в неоднородном состоянии ситуация усложняется и зависимость должна находиться по известной функции $\Theta(z, \Psi, H)$. Удобно по отдельности рассмотреть случаи сильных и слабых магнитных полей [1].

Примем, что внешнее поле намного превышает поле анизотропии $H_k (\Psi_k \ll 1)$. Задача сводится к минимизации функционала

$$\text{div}(H_m + 4\pi M) = 0, \quad (3)$$

и решению уравнения Эйлера при условии $L\sqrt{\gamma_2 - h/2 \cdot \sin\Psi} = \infty, (\Theta(z = \pm d) = \pi/2)$. L — толщина приповерхностного слоя, $h = \frac{2H}{\alpha M}$.

При сделанных допущениях первый интеграл уравнения Эйлера имеет следующий вид [2]:

$$z = \int_{\Theta_{\min}}^{\Theta} \frac{d\Theta}{\sqrt{c + h \cos\Theta + \Psi h \sin\Theta}}, \quad (4)$$

который может быть представлен как

$$z = \int_{\Theta_{\min}}^{\Theta} \frac{d\Theta}{\sqrt{c + h \cos\Theta}} - \Psi h \int_{\Theta_{\min}}^{\Theta} \frac{\sin\Theta d\Theta}{(c + h \cos\Theta)^{3/2}}. \quad (5)$$

Первый член в правой части (5) может быть приведен к нормальной форме интеграла Лежандра, и после несложных преобразований можно получить:

$$z + \Psi h \left[\frac{1}{\sqrt{c+h \cos\Theta}} - \frac{1}{\sqrt{c+h \cos\Theta_{\min}}} \right] = \frac{2}{\sqrt{c+h}} \left[F \left(\Theta, \sqrt{\frac{2h}{c+h}} \right) - F \left(\Theta_{\min}, \sqrt{\frac{2h}{c+h}} \right) \right]. \quad (6)$$

В выражении в квадратных скобках левой части (6) заменим $\cos \Theta$ на его среднее значение, которое будет найдено ниже (первая ступень итерационного процесса для нахождения усредненной намагниченности), а само выражение для кратности будем записывать в виде σ_h .

Анализ граничных условий показывает, что $2h/(c+h) > 1$, что как и в предыдущем случае, требует замены модуля. С учетом сказанного распределение намагниченности имеет вид [3]:

$$\sin \theta = q \operatorname{sn} [K(q) + \sqrt{2h}(z + \sigma_h \Psi h), q], \tag{7}$$

Модуль $q = \sqrt{(c+h)/2h}$ находится из краевого условия

$$1 = q \operatorname{sn} [K(q) + \sqrt{2h}(d + \sigma_h \Psi h), q]. \tag{8}$$

Среднее от $\sin \theta$ является решением уравнения

$$\langle \sin \theta \rangle = \frac{1}{d\sqrt{2h}} \ln \frac{\sqrt{1-q^2}}{\operatorname{dn} f(\Psi) - q \operatorname{cn} f(\Psi)}, \tag{9}$$

где $f(\Psi) = K(q) + h\sqrt{2h}\sigma_h$. Ориентация оси легкого намагничивания (ОЛН) — угол Ψ_0 — находится из условия:

$$\sin \Psi_0 = \frac{1}{d\sqrt{2h}} \ln \frac{\sqrt{1-q^2}}{\operatorname{dn} f(\Psi_0) - q \operatorname{cn} f(\Psi_0)}. \tag{10}$$

случае больших толщин ($q \rightarrow 1$) выражение (10) приобретает следующий вид:

$$\sin \Psi_0 \approx \frac{2.125}{2d\sqrt{2h}} \ln \frac{2 - 1.2e^{-d\sqrt{2h}}}{1.2e^{-d\sqrt{2h}}}, \tag{11}$$

(здесь использовано разложение полного эллиптического интеграла и эллиптических функций по параметру $q \leq 1$).

Таким образом, направление ОЛН не соответствует нормали к плоскости пленки и угол отклонения. ОЛН монотонно уменьшается при увеличении напряженности магнитного поля.

Отличный от нуля вращающий момент L_0 при $\Psi=0$ определяется как:

$$L_0 = \frac{MH}{d\sqrt{2h}} \ln \frac{\sqrt{1-q^2}}{\operatorname{dn} K(q) - q \operatorname{cn} K(q)}. \tag{12}$$




Рис. 1. Угловая зависимость вращающего момента тонкой пленки с поверхностной анизотропией.

Угловая зависимость вращающего момента показана на рис. 1. Рассмотрим случай слабых магнитных полей, $H \ll H_k$. Первый интеграл уравнения Эйлера имеет вид:

$$z = \int_{\theta_{min}}^{\theta} \frac{d\theta}{\sqrt{c + \gamma \sin^2 \theta - h \cos(\Psi - \theta)}}, \tag{13}$$

который может быть представлен как:

$$z = \int_{\theta_{min}}^{\theta} \frac{d\theta}{\sqrt{c + \gamma \sin^2 \theta}} + \frac{1}{2} h \int_{\theta_{min}}^{\theta} \frac{\cos(\Psi - \theta)}{(c + \gamma \sin^2 \theta)^{3/2}}. \tag{14}$$

Поскольку в данном случае константа c является отрицательной, обе части (14) необходимо умножить на мнимую единицу, здесь также необходимо произвести замену модуля. В итоге имеем:

$$\sin \theta = p \operatorname{sn} \left[K(p) + i(z + h\Phi)\sqrt{|\gamma|}, p \right], \quad p = \sqrt{\frac{\gamma}{c}}. \quad (15)$$




Рис. 2. Зависимость ориентации ОЛН тонкой пленки с поверхностной анизотропией от напряженности внешнего магнитного поля по (16).




Рис. 3. Кривые намагничивания пленок с поверхностной анизотропией, магнитное поле направлено по нормали к плоскости пленки. 1 – $d \leq d_{k0}$, 2 – $d = 1.7 d_{k0}$, 3 – $d = 3 d_{k0}$, 4 – $d = \infty$.

Подобным образом можно найти среднее от $\sin \theta$ и ориентацию ОЛН [4]. Уместно отметить, что в отсутствие магнитного поля ОЛН задается выражением.

$$\sin \psi_0 = \frac{1}{d\sqrt{\gamma}} \ln \frac{\sqrt{1-p^2}}{\operatorname{dn} K(p) - p \operatorname{cn} K(p)} \quad (16)$$

В случае больших толщин ($p \rightarrow 0$) выражение (16) принимает вид

$$\sin \psi_0 \approx \frac{0.215}{d\sqrt{\gamma}ch^2d\sqrt{\gamma}} \quad (17)$$

Таким образом, в зависимости от внешнего магнитного поля направление ОЛН пленки изменяется (рис. 2). Это наиболее характерный эффект для пленок с конкурирующей анизотропией. На опыте это должно проявляться в повороте или (при достаточном моменте инерции) вращении образца в изменяющемся по амплитуде внешнем магнитном поле. На рис. 3 показаны кривые намагничивания пленок в магнитном поле, нормальном к их плоскости.

В заключение следует отметить, что, поскольку критическая толщина d_{k0} для типичных ферромагнетиков, согласно [5], составляет 10^2 – 10^3 Å, а константа поверхностной анизотропии k_s , по теоретическим оценкам Нееля и согласно экспериментальным данным для многослойных пленок [3,5], составляет 0.1 – 1 эрг/см², что соответствует «объемной» анизотропии поверхности $k_v/k_s/a \approx 10^7$ – 10^8 эрг/см² (a — параметр кристаллической решетки), то в данном случае справедливы сделанные приближения о «жестком» закреплении магнитного момента и возможность индуцированной магнитной анизотропии в пленках поверхностными эффектами не представляется экзотической.

Литература

1. Барьяхтар В. Г., Клепиков В. Ф., Соболев В. Л. // ФТТ» 1971. Т. 13. № 5. С. 1454-1462 .
2. Бабкин Е.В., Уринов Х.О. Анизотропия магнитокалорического эффекта в ферромагнитных кристаллах. // ФТТ, 1990.- Т. 32, вып. 4.- С. 689-694.
3. Бабкин Е.В., Баранов Г. И., Уринов Х.О. Магнитное охлаждение композиционного ферромагнетика. //- Письма в ЖТФ, 1991.- Т. 17, вып.5. – С.10-12.
4. Бабкин Е.В., Уринов Х.О. Рабочее тело магнитной холодильной машины. Авт. Свид. № 1746161 8.03.1992.
5. Уринов Х.О. Магнитокалорический эффект в кубическом ферромагнетике. СамДУ Илмий таджикотлар Ахборотномаси. 2016. 3-сон, 89-94 б.

UDK: 537.311.23

**YARIM O‘TKAZGICHLARDA ULTRATOVUSHNING YUTILISHIDAGI
NOCHIZIQLI EFFEKTLAR HAQIDA**

O. Pardayev, M. Shoimov

Samarqand davlat universiteti

E-mail: artikpardaev@mail.ru

Annotatsiya. To‘lqin uzunligi elektronlarning diffusion uzunligidan ancha kichik, lekin ularning erkin chopish uzunligidan ancha katta bo‘lgan tovush to‘lqinining yarimo‘tkazgichlarda yutilishida yuzaga keladigan nochizikli effektlarga tovush yaratgan elektr maydoni tomonidan elektronlarning qizishining ta‘siri qarab chiqilgan. Elektronlar energiyasining ortishi bilan impulsning relaksatsiya vaqti sochilishning yetarlicha tez oshadigan ayrim mexanizmlarida tovush yutilishi koeffitsiyentining elektronlarning tovush to‘lqini tomonidan qizdirilishiga juda ta‘sirchan bo‘lishligi, ya‘ni yutilishning nochizikli koeffitsiyentining chizikli yutilish koeffitsiyentidan qizish parametrining hatto kichik qiymatlarida ham sezilarli farq qilishi ko‘rsatilgan. O‘rganilgan sharoitlarda tovush yutilishining nochizikli koeffitsiyentining tovush intinsivligi va chastotasidan qanday bog‘liq bo‘lishligi qarab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ultratovush, uzunlik, chopish, erkin, yarimo‘tkazgich, yutilish, koeffitsiyen, sochilish, mexanizm, chizikli, nochizikli, chastota, to‘lqin uzunlik, relaksatsiya, qizish, effektiv, elektr maydon

Об эффектах при поглощении ультразвука в полупроводниках

Аннотация. Рассмотрены нелинейные эффекты в поглощении ультразвука, длина волны которого много меньше диффузионной длины, но много больше длины свободного пробега носителей, связанные с разогревом носителей электрическим полем звуковой волны. Показано, что при некоторых механизмах рассеяния, при которых время релаксации импульса достаточно быстро возрастает с ростом энергии, коэффициент поглощения звука может быть чрезвычайно чувствительным к разогреву полем звуковой волны-нелинейный коэффициент поглощения может существенно отличаться от линейного уже при малых значениях параметра разогрева. Изучены зависимости нелинейного коэффициента поглощения звука от интенсивности звука и частоты в них условиях.

Ключевые слова: ультразвук, поглощение, усиление, волновой вектор, частота, электрон, линейный, нелинейный, коэффициент, рассеяние, механизм, распределение

On nonlinear effects in ultrasound absorption in semiconductors

Abstract. We consider nonlinear effects in ultrasound absorption, whose wavelength is much smaller than the diffusion length, but much larger than the mean free path of carriers associated with the heating of carriers by the electric field of the sound wave. It is shown that for some scattering mechanisms, for which the pulse relaxation time increases rapidly with increasing Energy, the sound absorption coefficient can be extremely sensitive to heating by the sound wave field-the nonlinear absorption coefficient can differ substantially from linearly Th already at small values of the heating parameter. The dependences of the nonlinear coefficient of sound absorption on the intensity of sound and frequency in their conditions are studied.

Keywords: ultrasound, absorption, amplification, wave vector, frequency, electron, linear, nonlinear, coefficient, scattering, mechanism, distribution.

Keyingi yillarda bir qancha eksperimental va nazariy ishlar [1-4] paydo bo‘ldi-ki, ularda

$$ql \ll 1 \quad (1),$$

$$\omega\tau_\varepsilon \gg 1 \quad (2)$$

shartlar bajarilganda yarimo‘tkazgichlarda ultratovushning yutilishi va kuchayishi atroflicha o‘rganildi. Bu yerda q – tovushning to‘lqin vektori, ω – uning chastotasi, l – tok tashuvchilarining erkin chopish uzunligi, τ_ε – energiyaning relaksatsiya vaqti. (1) va (2) sharoitlar yuqori ildamlikka ega bo‘lgan n - $InSb$ turidagi yarimo‘tkazgichlarda to‘lasincha amalgam oshadi.

(2) shartga ko'ra tovush tebranish davri ichida tizimda energiya bo'yicha elektronlarning muvozanatli taqsimoti o'rnashib ulgura olmaydi. Shu sababdan berilgan yarimo'tkazgichlarda tovushning yutilishini va kuchayishini Uaytning [5] gidrodinamik nazariyasi yordamida tavsiflab bo'lmaydi hamda tovush yutilish va kuchayish koeffitsiyentlari kattalik jihatdan ham chastotaga bog'liqligi jihatidan ham Uayt nazariyasi beradigan natijalaridan tubdan farq qiladi. Ayniqsa bunday farq

$$\omega \ll q^2 D \quad (3)$$

shart bajarilganida katta bo'lishi mumkin. Bu yerda D – elektronlarning diffuziya koeffitsiyenti. (3) shart bajarilganida impulsning relaksatsiya vaqti τ_p energiya ε ning oshishi bilan osha boradi.

Kagan [4] ning ko'rsatishicha, tovushning yutilish koeffitsiyenti gidrodinamik nazariya natijasidan sezilarli darajada katta bo'lishi va chastotadan bog'liqligi butunlay boshqacha bo'lishi ham mumkin.

Bunday o'ziga xos bog'lanish quyidagi holatlar tufayli yuzaga kelgan bo'ladi. Bizda (1) shart bajarilar ekan, elektronlar to'liq uzunligi tartibidagi masofalarda aralashmalar yoki fononlar bilan ko'p martalab to'qnashib ulgurgan bo'ladi va natijada o'zlarining harakat yo'nalishlarini o'zgaradi. Ayni shu paytda yuqori ildamlikli yarimo'tkazgichlarda yetarlicha past temperaturalarda elektronlarning sochilishi kvazielastik hisoblanadi, ya'ni quyidagi shart bajarilgan bo'ladi:

$$\tau_\varepsilon \gg \tau_p \quad (4)$$

Demak, doimiy energiyali qatlam ichida elektronlar juda tez aralashganligini va qatlamlar orasida elektronlarning sekin qayta taqsimlanganligini kuzatishimiz mumkin. Shuning uchun nomuvozanat elektronlar quyqasining so'rilishining xarakterli vaqti ω^{-1} , τ_ε , $[q^2 D(\varepsilon)]^{-1}$ vaqtlardan birining minimal qiymati bilan aniqlangan bo'ladi. Bu vaqtlarning birinchisi tovush to'liqini maydonining davriga mos kelsa, ikkinchisi-energetik qatlamlar o'rtasidagi o'tishga, uchinchisi-koordinatalar fazosida berilgan energiyali elektronlar diffuziyasiga mos keladi.

Biz (2) va (3) shartlarni bajariladi deb hisoblayotganimiz uchun bizning holatda elektronlarning nomuvozanat quyqasining relaksatsiya qilishining asosiy mexanizmi bo'lib $q^2 D(\varepsilon)$ had bilan tavsiflanuvchi diffuziya hisoblanadi. Lekin, agar diffuziyaning parsial koeffitsiyentini ifodalovchi $D(\varepsilon)$ energiyaning daraja bo'yicha oshib boruvchi qonun bilan o'zgarsa, kichik energiyalarda ($\varepsilon \ll T$) (Boltsman doimiysi $k = 1$ deb hisobladik) relaksatsiyaning diffuziyali mexanizmi noeffektiv bo'lib qolishi mumkin. Yutilishning chastotaga bog'lanishining aniq ko'rinishi ω^{-1} yoki τ_ε vaqtlardan qaysi birining kichikligi bilan aniqlanadi. Shulardan $\omega \tau_\varepsilon \ll 1$ [4] ishda o'rganilgan, $\omega \tau_\varepsilon \gg 1$ hol esa [5] ishda o'rganilgan. Ushbu maqolaning maqsadi yuqorida aytilgan fikrlarni konkret modelda namoyish qilishdan iboratdir.

Tovush intensivligini yetarli darajada kichik deb hisoblaymiz va

$$\omega \tau_\varepsilon \gg 1 \quad (5)$$

tengsizligi o'rinli bo'lsin. Bu yerda e – electron zaryadi, φ_q – elektronga ta'sir etuvchi effektiv elektr maydoni potensialining amplitudasi, $\bar{\varepsilon}$ – elektronning o'rtacha energiyasi. Bu shart bajarilgan holda elektronlarning tovush to'liqiniga ta'siri kichik bo'ladi va [1, 5] ishlarda ko'rsatilganiga ko'ra, tovush to'liqinini garmonik qonunlar bilan tarqaladi deb hisoblash mumkin bo'ladi. Bu holda bizni qiziqtirayotgan barcha kattaliklarni vaqt bo'yicha doimiy qismlardan va $\exp[i(qx - \omega t)]$ ga proporsional qismlardan iborat deb olishimiz mumkin.

Elastiklik nazariyasi tenglamasi va Puasson tenglamasidan foydalanib, pyezoelektrik yarimo'tkazgichda tarqalayotgan tovush to'liqini uchun dispersiya qonunini yoza olamiz

$$\frac{\omega^2 - \omega_0^2(q)}{\omega_0^2(q)} = \chi \left[1 + \frac{4\pi e^2}{\varepsilon_0 q^2} K_q(\omega) \right]^{-1} \quad (6)$$

Bu yerda χ – o'lchamsiz elektromexanik bog'lanish doimiyligi, ε_0 – dielektrik singdiruvchanlik, $\omega_0(q) = \omega q$ – pyezoeffekt bo'lmaganida q to'liqin vektorli tovushning chastotasi. Tovushning yutilish koeffitsiyenti $\alpha = 2\text{Im}q(\omega)$ (6)-dispersiya qonunidan topiladi. Bu qonunga elektronlarni

g'alayonlantiruvchi $e\varphi_q$ energiyaga n_q elektronlar konsentratsiyasining javob funksiyasi $K_q(\omega)$ kirgan bo'ladi

$$n_q(\omega) = -e\varphi_q K_q(\omega) \quad (7)$$

Javob funksiyasini aniqlash uchun elektronlar uchun Boltsmanning kinetic tenglamasini yechish kerak bo'ladi. Yuqorida qayd qilib o'tilgan sharoitlarni hisobga olgan holda elektronlarning energiyasi doimiy bo'lgan sirt bo'yicha o'rtachalangan taqsimot funksiyasini vaqt va fazo bo'yicha doimiy bo'lgan $F(\varepsilon)$ va garmonik o'zgaruvchi $f(\varepsilon)$ qismlarning yig'indisi tariqasida olashimiz qulay bo'ladi. Maqsadimiz $f(\varepsilon)$ ni hisoblashdan iborat, chunki elektronlar konsentratsiyasining Furye komponentasi ana shu funksiya orqali topiladi

$$n_q = \int_0^{\infty} d\varepsilon \rho(\varepsilon) f(\varepsilon) \quad (8)$$

Bu yerda $\rho(\varepsilon)$ – holatlar zichligi. (2), (3) va (5) formulalar asosida taqsimot funksiyasining «tez» qismi uchun tenglamani

$$[-i\omega + q^2 D(\varepsilon)] f(\varepsilon) = q^2 D(\varepsilon) e\varphi_q \frac{dF}{d\varepsilon} \quad (9)$$

ko'rinishida yozish mumkin bo'ladi. Bu yerda

$$D(\varepsilon) = \frac{q_i q_k}{q^2} D_{ik}(\varepsilon), \quad D_{ik}(\varepsilon) = \langle \mathcal{G}_i \hat{I}^{-1} \mathcal{G}_k \rangle \quad (10)$$

Bu yerda $\langle \dots \rangle$ belgi doimiy ε energiyali sirt bo'yicha olingan o'rtachalashni ifodalaydi; \hat{I}^{-1} – kinetik tenglamada ishtirok etuvchi to'qnashuv operatorining teskarisi (magnit maydoni mavjud bo'lganda bu operator $\left\{ \hat{I} \rightarrow \hat{I} - \frac{e}{c} [\vec{v}x\vec{H}] \right\}^{-1}$ operatorga almashtiriladi). $D(\varepsilon)$ kattalik, aytib o'tganimizdek, berilgan energiyali tovushning to'lqin vektori yo'nalishidagi diffuziya koeffitsiyenti hisoblanadi.

Faraz qilaylikki, $D(\varepsilon)$ ning energiyaga bog'likligi darajali bo'lsin. U holda $D(\varepsilon)$ kattalikni q yo'nalishidagi diffuziya koeffitsiyenti bilan osongina quyidagicha bog'lash mumkin:

$$D(x) = D \frac{\sqrt{\pi}}{2\Gamma(u+1)} x^{u-\frac{1}{2}}, \quad (11)$$

bu yerda $x = \varepsilon/T$, $\Gamma(u+1)$ – Eylerning gamma-funksiyasi, u – energiyaning relaksatsiya mexanizmini ko'rsatuvchi son va u impulsning relaksatsiya vaqti τ_p ning energiyaga bog'lanishini ($\tau_p \sim \varepsilon^s$) ko'rsatadi; agar $H = 0$ yoki kuchli magnit maydon bo'lib, unda $\mathbf{q} \uparrow \uparrow \mathbf{H}$ bo'lsa, $u = s + 3/2$ bo'ladi; agar $\mathbf{q} \perp \mathbf{H}$ bo'lgan magnit maydoni bo'lsa, $u = 3/2 - s$ bo'ladi.

Bizning bunday belgilashlarimizda (9) tenglamaning yechimi quyidagicha yoziladi:

$$f(x) = \frac{x^{u-1/2}}{-it + x^{u-1/2}} \frac{e\phi_q}{T} \frac{dF}{dx} \quad (12), \quad t = \frac{\omega}{q^2 D} \frac{2\Gamma(u+1)}{\sqrt{\pi}} \sim \frac{w}{\bar{v}} (ql)^{-1} \quad (13)$$

-biz qurayotgan nazariyaning kichik parametri. Shu qayd qilib o'tamizki, bu parametrlarning kichikligi (1) shartni inkor etmaydi, chunki $\frac{w}{\bar{v}} \sim 10^{-2} - 10^{-3}$ qiymatga ega bo'ladi. Tovushning yutilishini va dispersiyasini aniqlovchi javob funksiyasi $K_q(\omega)$ berilgan belgilashlarda quyidagiga teng bo'ladi:

$$K_q(\omega) = \rho(T) \int_0^{\infty} \frac{x^u (x^{u-1/2} + it)}{t^2 + x^{2u-1}} \left(-\frac{dF}{dx} \right) dx \quad (14)$$

(14) dan ko'rinadiki, chiziqli holda integral ostidagi ifodada kichik parametr t e'tiborga olinmasa va $u \geq 2$ deb hisoblansa hamda $F \sim e^{-x}$ bo'lganda $ImK_q(\omega)$ uchun x bo'yicha olingan integral uzoqlashuvchi integral bo'ladi. Demak, $ImK_q(\omega)$ t parametriga (demak, tovush chastotasidan ham, chunki $t \sim \omega^{-1}$) $u \geq 2$ bo'lganda noanalitik bog'lanishda bo'ladi. Xuddi ana shu holni

kelgusida qaraymiz, chunki aynan shu holda ko'proq qiziqarli chastotaga bog'lanishlarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bunday hol elektronlarning magnet maydon mavjud bo'lmaganida ionlashgan aralashmalardan sochilganida ($u = 2$), shuningdek kuchli magnet maydonida elektronlarning akustik fononlardan sochilganida ($u = 3$) yuzaga kelishi mumkin.

Taqsimot funksiyasi F ning «sekin» qismi uchun tenglama kinetik tenglamani tovush to'liqining davri bo'yicha o'rtachalab olish mumkin. (5) ni e'tiborga olib, bu tenglamani quyidagi ko'rinishda yoza olamiz:

$$-\frac{(e\phi_q)^2}{2\sqrt{\varepsilon}} \frac{d}{d\varepsilon} \left(\sqrt{\varepsilon} \frac{q^2 D(\varepsilon) \omega^2}{\omega^2 + [q^2 D(\varepsilon)]^2} \frac{dF}{d\varepsilon} \right) + \hat{I}F = 0 \quad (15)$$

Faraz qilaylikki, elektronlar energiyasi akustik fononlarda relaksatsiya qilayotgan bo'lsin. U holda doimiy energiyali sirt bo'yicha o'rtachalangan to'qnashuv operatori \hat{I} quyidagi ko'rinishda yoziladi [7]

$$\hat{I}F = -\frac{\sqrt{\pi}}{2\tau_\varepsilon} \frac{1}{x} \frac{d}{dx} x^2 \left(1 + \frac{d}{dx} \right) F \quad (16)$$

Bu yerda

$\tau_\varepsilon = \pi^{3/2} \hbar^4 \rho / 4\sqrt{2} \Lambda m^{3/2} \sqrt{T}$ – elektronlar energiyasining relaksatsiya vaqti, m – effektiv massa, Λ – deformatsiya potensialining doimiysi. Sochilishning bunday mexanizmida (15) tenglama yechimi

$$F = C \exp \left(-\int_0^\infty \frac{t^2 + \xi^{2u-1}}{t^2 + \xi^{2u-1} + h \xi^{u-2}} d\xi \right) \quad (17)$$

ko'rinishda bo'ladi. Bu yerda C doimiylik standart usulda topiladi, qizish parametri h esa*)

$$h = \left(\frac{e\phi_q}{T} \right)^2 \frac{\Gamma(u+1)}{\pi} \omega \tau_\varepsilon t \quad (18)$$

Bu yerda biz kuchsiz qizish holini ($h \ll 1$ qaraymiz. U holda (17) dan ko'rinadiki, qizish elektronlarning o'rtacha energiyasini kam o'zgartiradi, shuning uchun C doimiylikni hisoblaganda $h = 0$ deb olsak bo'ladi. Demak, biz bu koeffitsiyentni chiziqli nazariyadagi koeffitsiyent tariqasida olishimiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, t va h parametrlar kichik bo'lganidan $ReK_q(\omega)$ ni hisoblagan vaqtimizda bu parametrlarni hisobga olmasligimiz ham mumkin bo'ladi. Demak, javob funksiyasining haqiqiy qismi qizish mavjud bo'lmagan holdagidek qiymatga ega bo'ladi. Shuning uchun yutilishning nochiziqli koeffitsiyenti α ning chiziqli koeffitsiyent α_0 ga nisbati javob funksiyasi mavhum qismlarining qizish mavjud bo'lgandagi va bo'lmagandagi o'zaro nisbatiga teng bo'ladi

$$\frac{\alpha}{\alpha_0} = \frac{\hat{I}(h)}{I(0)}, \quad (19)$$

$$\hat{I}(h) = \int_0^\infty \frac{x^u dx}{t^2 + x^{2u-1} + hx^{u-2}} \exp \left(-\int_0^x \frac{t^2 + \xi^{2u-1}}{t^2 + \xi^{2u-1} + h \xi^{u-2}} d\xi \right). \quad (20)$$

Bu integralda $u \geq 2$ bo'lganida kichik x lar muhim sanaladi, agar quyidagi shart bajarilsa:

$h \ll t^{\frac{2(u+1)}{2u-1}}$ (21), bu holda eksponenta oldida turgan integral ostidagi kasr mahrajidagi t^2 ni hisobga olmaslik mumkin.

Natijada

$$\frac{\alpha(h)}{\alpha_0} = \left[\frac{h}{t^{\frac{2(2+1)}{2u-1}}} \right]^{\frac{2-u}{u+1}} \quad (22)$$

(20) shartni hisobga olsak, (22) nisbat birdan ancha kichik bo'ladi.

Biz $u = 2$ bo'lgan holni alohida tahlil qilamiz. Bizdagi integralni 0 dan x_1 gacha va x_1 dan x gacha integrallash sohalariga mos keladigan ikki qismga ajrataylik. Bunda x_1 quyidagi $h^{1/3} \ll x_1 \ll 1$ shartni qanoatlantirsin. Birinchi integralda eksponentani bir soniga almashtirish mumkin

va natijada logarifmik aniqlikda $\ln(x_1/h^{1/3})$ ni olamiz. Ikkinchi integralda $x > x_1 \propto t^{2/3}$, $h^{1/3}$ muhim hisoblanadi. Shuning uchun uni hisoblashda t^2, h larga proporsional bo'lgan hadlarni e'tiborga olmasligimiz mumkin bo'ladi. Logarifmik aniqlikda ikkinchi integralimiz $\ln(\gamma/x_1)$ ga teng bo'ladi, bu yerda γ – Eyler doimiysining logarifmi. Shunday qilib, $I(h) = \ln(\gamma/h^{1/3})$. Xuddi shunday tahlilni o'tkazish asosida $I(0) = \ln(\gamma/t^{2/3})$ bo'lishini topamiz. Shuning uchun $u = 2$ bo'lganda

$$\frac{\alpha(h)}{\alpha_0} = \frac{\ln(\gamma/h^{1/3})}{\ln(\gamma/t^{2/3})} \quad (23)$$

(21) shartni hisobga olsak, $\alpha \propto \alpha_0$ bo'lishini ko'ramiz.

Shunday qilib biz, hatto kuchsiz qizish ($h \ll 1$) sharoitida ham yutilish koeffitsiyenti elektronlarning tovush to'liqini maydonida qizishiga favqulotda sezgir bo'lishini ko'ramiz.

Adabiyotlar

1. Ю. М. Гальперин, И.Л. Дричко, Б. Д. Лайхтман. ФТТ, т.12, 1437, 1972
2. С. Н. Иванов, Г. Д. Мансфельд, Е. Н. Хазанов. ФТП, т.6, 2403, 1972
3. А. С. Бугаев, Ю. В. Гуляев, Г. Н. Шкердин. ФТТ, т.12, 2654, 1970
4. В. Д. Каган. ФТТ, т.16, 2022, 1974
5. А. Пардаев. Кандидатлик диссертацияси. – Тошкент. 1974

UDK 621.3

KREMNIYDA TERMODONORLARNING MODELLARI

E. U. Arziqulov, S. N. Srajev, O. S. Ne'matov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Kremniyda termodonor-I (TD-I) ning paydo bo'lishining mavjud mexanizmlari qiyosiy bayon qilingan. Kremniyning elektr o'tkazuvchanligiga kislorodning ta'sir mexanizmi haqida ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar muhokama qilingan. Kremniyda paydo bo'luvchi termodonorlarning tabiati, strukturasi to'g'risidagi dunyo olimlari tomonidan taklif etilgan modellar keltirilgan.

Kalit so'zlari: termodonor, vakansiya, kislorod-vakansiya, qattiq aralashma, silitka, termik ishlov, generatsiya, diffuziya, legirlash, kremniy, kislorod, kompleks.

Модели термодоноров в кремнии

Аннотация. Приведены существующие механизмы образование термодоноров-I (ТД-I) в кремнии. Обсуждены сведения о механизме влияние кислорода на электропроводности кремния приведенные в научных литературах. Приведены основные положения существующих моделей о природе и структурах термодоноров в кремнии.

Ключевые слова: термодонор, вакансия, кислород-вакансия, твердый раствор, слиток, термическая обработка, генерация, диффузия, легирование, кремний, кислород, комплекс.

Models of thermodonors in silicon

Abstract. Mechanisms formation of thermodonors-I (TD-I) in silicon are presented. The mechanism oxygen influence on electrical conduction silicon presenting in literatures is discussed. The basic position of existing models about the nature and structures of thermodonors in silicon is presented.

Keywords: thermodonor, vacancy, oxygen-vacancy, solid solution, bulk silicon, thermal processing, generation, diffusion, doping, silicon, oxygen, complex.

Yarimo'tkazgichli elektronikaning asosiy baza elementi sifatida kremniy kristalli qo'llaniladi. Yarimo'tkazgichli elektron asboblarni tayyorlash jarayonida ularga turli xil termik ishlovlar berish bilan texnologik jarayonlar amalga oshiriladi. Xususan, kremniyga turli xil termik ishlovlar berilganda uning hajmida termik nuqsonlar paydo bo'lib, ular kremniy asosida tayyorlanadigan asboblarning elektrofizik va rekombinatsion xossalariiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kremniyga termik ishlovlar

berilganda paydo bo'luvchi termodonlarni butun dunyodagi soha mutaxassisleri tomonidan o'rganilib ularni 3 xil termodonlarga ajratishadilar: TD-1, TD-2, TD-3. Ushbu maqolada TD-1 ning paydo bo'lish mexanizmlari va modellari keltirilgan.

Kremniyning elektr o'tkazuvchanligiga kislorodning ta'sir mexanizmi haqida.

Kremniyda erigan kislorod uining elektr o'tkazuvchanligiga ta'sir ko'rsatmaydi, ammo tarkibida kislorod bo'lgan monokristallarga termik ishlov berilganda ma'lum bir temperaturalarda kislorodning kremniy bilan bog'lanish hosil qilishiga olib kelishi mumkin. Termik ishlov berishning ta'sir xarakteriga qarab elektr jihatdan faol markazlarning generatsiyasini ikki xil temperatura oralig'iga ajratish mumkin: 350-500 °S va 600-800 °S.

Biz 350-500 °S temperatura oralig'ida paydo bo'luvchi termik markazlarni qarab chiqamiz. Kremniyda 350-500 °S temperatura oralig'ida termodonlarning paydo bo'lishini birinchi bo'lib Fyullyer aniqlagan [1]. Keyinchalik termodonlarning paydo bo'lishi to'g'risidagi ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida Kayzer o'z modelini yaratdi. Shu model asosida 350-500 °S temperatura oralig'ida paydo bo'luvchi termodonlarning harakterli tomonlarini aniqlash imkoniyati paydo bo'ldi:

1. Kremniyda erigan kislorod undagi termodonlarning paydo bo'lishida asosiy rolni o'ynaydi.
2. Choxralskiy usuli bilan o'stirilgan kremniyda kislorodning konsentrasiyasi taxminan $1,5 \cdot 10^8 \text{ sm}^{-3}$ ga teng bo'lib, quymani sovutish jarayonida o'ta to'yingan kislorodli qattiq aralashma hosil bo'ladi.
3. Termodonlar paydo bo'lishining boshlang'ich tezligi kislorod konsentrasiyasining 4-chi darajasiga to'g'ri proporsional bo'ladi.
4. Termodonlarning maksimal konsentrasiyasi kislorod konsentrasiyasining 3-chi darajasiga to'g'ri proporsional bo'ladi.
5. Termik ishlov berish jarayonida SiO_4 komplekslaridan tashqari 4 tadan kam ishtirok etuvchi uyg'ongan donorli markazlar oilasi paydo bo'ladi.
6. 500°C dan yuqori temperaturalarda termodonlar konsentrasiyasining kamayishi kuzatiladi.

Tajribalar natijasi asosida Kayzer o'z hammualliflari bilan termodonlar generatsiyasi haqida o'z modelini yaratdi. Bu model hozir fanda Kayzer modeli deb nom olgan [2]. Kayzer modeliga ko'ra 350-500 °S temperatura oralig'ida paydo bo'luvchi termodonlar turg'un SiO_4 -tetraedr shaklidagi komplekslar bo'lib hisoblanadi. Tarkibida kislorod mavjud bo'lgan kremniyga 350-500 °S temperatura oralig'ida termik ishlov berish kremniyning taqiqlangan zonasida mayda donorli energetik sathlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu energetik sathlar turli mualliflar tomonidan ($E_c - 0.13 \text{ eV}$ va $E_c - 0.16 \text{ eV}$) aniqlangan. Ko'pchilik mualliflarning fikricha $E_c - 0.16 \text{ eV}$ energetik sath SiO_4 komplekslarning hosil bo'lishi bilan $E_c - 0.08 \text{ eV}$ donorli mayda energetik sathlarni esa kislorod-kremniyli polimerlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq, deb hisoblaydilar. Bulardan tashqari [3] da bu sathlar issiqlik nuqsonlarining bir karra va ikki karra zaryadlangan holatlari bilan bog'liq, degan fikrlarni bayon qilishgan.

Kayzer modeli TD hosil bo'lish mexanizmi to'g'risida mulohaza qiladi, ammo SiO_4 kompleksning donorli xossalari haqida hech qanday tushintirish bermaydi. SiO_4 kompleksning donorli xossasini tushintirish uchun birinchi marta fransuz olimi J. P. Syushe [4] harakat qilgan va 450 °S da kompleks hosil bo'lishining bir nechta variantlarini ko'rib chiqqan. Shulardan eng ehtimoli kattasi 1 zaryadli O_4 dir. Bu donor-ion-molekula bo'lib, vakansiya va qo'shni tugun orasida joylashgandir. O_4 kompleksining 1 ta kislorod atomi tugunda joylashgan bo'lib $+2e$ zaryadlangan. Kislorod atomining bu holatda stabil bo'lishi uni o'rab turgan 3 ta manfiy zaryadlanagan tugunlar orasida joylashgan kislorod atomlari hisobiga bo'ladi. Syushe fikriga ko'ra, kislorodli komplekslarning yuqori tartiblilari neytral markazlardek tutishi kerak. Bu fikr Kayzer modeliga mos tushadi.

Kayzer o'z modelini ishlab chiqishda kislordning boshqa kirishmalar bilan o'zaro ta'sirini hisobga olmagan. Shu bilan birga bir qator ishlarda kremniyda kirishmalar bo'lganda [2] dagi modeldan chetlanishlar kuzatiladi. [2, 5] ishlarda 350-500 °S temperatura oralig'ida termodonlar generatsiyasiga uglerodning ta'siri bo'ladi va u sekinlashtiradi, deyilgan.

Termodonlar paydo bo'lishiga akseptorli kirishmalarning (*Al*, *B*, *Ga*) ta'siri Fuller va uning hammualliflari tomonidan o'rganilgan va birinchi marta akseptor markazlarining termodonlar generatsiyasini sezilarli darajada tezlashtirishi kuzatilgan. Mualliflar turli xil temperaturalarga stabil

bo'lgan kamida 2 xil donorli markazlar mavjudligini aytishgan: $t > 500^{\circ}\text{S}$ da noturg'un bo'lgan SiO_4 va ancha turg'un bo'lgan SiO_4 akseptorli kirishmalar bilan hosil qilgan komplekslar. Ammo ular ham bu fikrlarni tasdiqlovchi biror bir tajriba natijalarini yoki nazariy fikrlarni keltirmagan, termodonorlar generatsiyasiga akseptor yoki donorli kirishmalarining ta'siri ham o'rganilmagan. Bu masalani [6] ish mualliflari ancha yaxshi muhokama qilishgan va quyidagi fikrlarni bayon etgan:

- termodonorlarning hosil bo'lish kinetikasi $n\text{-Si}$ da Kayzer modeliga bo'ysinadi. Bunda asosiy kiritilayotgan kirishma fosfor konsentratsiyasining TD generatsiyasiga ta'siri sezilmagan.
- akseptorli kirishma konsentratsiyasi juda yuqori bo'lmagan (V) $p\text{-Si}$ da TD generatsiyasi $n\text{-Si}$ niki kabi bo'ladi. Borning konsentratsiyasi oshishi bilan TD hosil bo'lishining boshlang'ich tezligi va konsentratsiyasi birdaniga oshib ketadi. Bor bilan legirlangan $p\text{-Si}$ ga $350\text{-}500^{\circ}\text{S}$ temperatura oralig'ida termik ishlov berilganda SiO_4 TD bilan birga bir zaryadli $\text{O}_{\text{Si}}^{2+}\text{B}_{\text{Si}}^{-}$ TD ham paydo bo'lishi mumkin. SiO_4 dagidek, TD ning yangi shakli bu tugunda o'tirgan kislorod atomi va qo'shni akseptor kirishma atomi bilan stabil holatda bo'lishi mumkin.

Chuqur energetik sathlar hosil qiluvchi markazlarning TD lar paydo bo'lishiga ishtirok etish imkoniyati to'g'risida Graffning ishlarida [7] aytilgan. Bunday fikrlar $350\text{-}500^{\circ}\text{S}$ temperatura oralig'ida Si ga termik ishlov berilganda asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarning yashash vaqtiga ta'sirini tadqiq qilish natijalari asosida paydo bo'ldi. 450°S da uzoq vaqt termik ishlov berish zaryad tashuvchilarning yashash vaqtining oshishiga, $550\text{-}600^{\circ}\text{S}$ da termik ishlov berilganda esa kamayishiga olib keladi. 450°S da termik ishlov berilganda zaryad tashuvchilarning yashash vaqtining oshishi bilan bir qancha yutilish polosalarining ($9\text{-}30\text{ mkm}$, $T = 80\text{ K}$ da) paydo bo'lishi kuzatilgan. Bu polosalarning intensivligi $350\text{-}500^{\circ}\text{S}$ da termik ishlov berish davomiyligiga va kislorodning konsentratsiyasiga bog'liq.

Kremniy tarkibida ba'zi bir kirishmalar mavjud bo'lganda hamda kremniyga $350\text{-}500^{\circ}\text{S}$ da termik ishlov berilganda qo'shimcha elektr jihatdan faol markazlarning paydo bo'lishi [8] ish mualliflarining fikrini Kayzer modeliga nisbatan o'zgarishiga asos bo'ldi va ular past temperaturali TD, ularning paydo bo'lish mexanizmlari va tabiati to'g'risidagi yangi gipotezani oldinga surdilar. Ularning fikricha, $350\text{-}500^{\circ}\text{S}$ da hosil bo'luvchi TD lar [2] ishdagidek SiO_4 komplekslari emas, deb ko'rsatdilar. Ular taklif qilayotgan model bo'yicha: kislorod kristall panjara tugunida joylashib, 2 ta ortiqcha elektronini erkin holatga chiqaradi. Kislorod donor xossaga ega bo'lishi uchun kamida 2 ta vakansiya bo'lishi kerak. Bittasi kislorod atomini o'rin olish holatiga o'tkazish uchun, 2-chisi esa o'rin olish holatida saqlab turish uchun (valent elektronlaridan birini). Donorli markaz hosil qilish uchun qo'shni vakansiya o'rniga yaqinroqda joylashgan akseptor markazlar (B , Al , Ga va shu bilan birga chuqur energetik sath hosil qiluvchi Cu , Au , Ag , Fe va hokozolar) ishtirok etishi mumkin. Umumiy holda hosil bo'luvchi 1 zaryadli donorlar $\text{O}_{\text{Si}}^{2+}\text{A}^{-}$ ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ammo ular bu gipotezalarni tasdiqlovchi birona tajriba natijalarini keltirmagan.


Kremniyda termodonorlarning paydo bo'lishi to'g'risidagi modellar.

TD-I ning paydo bo'lishi kinetikasini o'rganish borasida elektr, optik va paramagnit xossalarni o'rganishga bag'ishlangan tajriba natijalariga asoslanib TD-I strukturasi aniqlashga imkon beruvchi bir qator modellar taklif qilingan.

Kayzer, Frish va Riis modeli. Tarixan bu model TD-I hosil bo'lish kinetikasining xossalarni muvoffaqiyatli ravishda tushintirib beruvchi model hisoblanadi. Kremniyda kislorodning to'yingan qattiq aralashmasida kislorod bilan kompleks hosil qilish reaksiyasiga asoslanib, mualliflar shunday xulosaga kelishdilar, TD-I - bu kislorodli kompleks SiO_4 dir. Kayzer va boshqalar SiO_4 kompleksining faol donorli tabiatini tushintirib bera olmadilar. Shunga qaramasdan tajribada aniqlangan tugunlar aro joylashgan kislorodning diffuziya koeffitsienti shunchalik kichikki, Kayzer tasavvuri asosida TD-I ning hosil bo'lish kinetikasini miqdor jihatdan izohlab bo'lmaydi. Kayzer modeli TD-I ning ko'p shakilligini tushintirishda ham qiyinchilikka olib keladi [2].

Syushe modeli. Syushe SiO_4 kompleksining donorli faolligini asoslovchi va o'ziga 4 ta kislorod atomini biriktiruvchi TD-I ning strukturasi taklif qildi. Bir qator ilmiy tadqiqot ishlarida kremniy kristallida TD-I ning maksimal konsentratsiyasi akseptor kirishmalar (B , Al , Ga) legirlanganda, donorli kirishmalar legirlangandagidan ko'proq paydo bo'lishi aniqlangan. Bu tajriba natijalariga asoslanib, muallif tarkibida kislorodi bo'lgan kremniy kristalliga 450°S da termik ishlov berilganda ikki xildagi termodonorlar paydo bo'ladi, degan fikrni bayon qiladi. Birinchi turdagi

termodonorlar tarkibiga faqat kislorod kiradi (Kayzer taklif qilganidek 4 ta kislorod atomi), ikkinchi turdagi termodonorlarga esa, 4 ta kislorod atomidan tashqari akseptorli kirishmalar ham kiradi. Termik ishlov natijasida dastlab 3 ta kislorod atomidan iborat $Si_2^+O_2^-O$ (1-rasm, a), ko‘rinishdagi elektr jihatdan neytral bo‘lgan kompleks hosil bo‘ladi. Kremniyning




1-rasm. (a)- SiO_3 neytral kompleksning, (b)- SiO_4 asosiy, (v)-tarkibida akseptorli kirishmasi bo‘lgan termodonorlarning sxematik tasviri.

kristall panjarasi tugunida joylashgan kislorod atomining tashqi qobig‘i tugunlar aro joylashgan kislorod atomining 8 ta elektronlari hisobiga to‘yingan holatda bo‘ladi. Shu sababli atom kremniyning qo‘shni atomlari bilan ionli-kovalent bog‘lanish hosil qilmaydi. Bu kompleksning $Si_2^+O_2^-O^+e^-$ ko‘rinishni egallash ehtimolligi juda kichik, chunki ikkita manfiy zaryadlangan qo‘shni kislorod atomining kovalent bog‘lanish hosil qilish juda qiyin. Mualliflar fikriga ko‘ra, TD-I ni kremniy kristalli tugunida joylashgan O_4 molekula-ion ko‘rinishda tasavvur qilish mumkin. 4 ta kislorod atomidan iborat bo‘lgan bunday kompleks $Si_3^+O_3^-O^+e^-$ (1-rasm, b) ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Ikkinchi turdagi termodonorlar birinchi turdagi termodonorlardan tug‘ilish markazi akseptorli kirishmalar bo‘lganligi bilan farq qiladi. Qolganlarida esa ularning strukturasi birinchi turdagi termodonorlarning strukturasi kabi bo‘ladi. (1-rasm, v) [4].


Gelmrayx va Sirtl modeli. Avvalom bor, Gelmrayx va Sirtl Kayzer modelining quyidagi kamchiliklarini ko‘rsatib berdi: kremniyda $450^\circ S$ temperaturada tugunlar aro kislorodning yuqori temperaturalardagi diffuziya koeffitsienti bo‘yicha ekstrapolyasiyasining ko‘rsatishicha bu temperaturalarda kislorod atomining o‘rtacha diffuziya uzunligi (100 soat qizdirilgandan keyin $L_D \cong 1,1$ nm) bir-biriga eng yaqin bo‘lgan ikkita kislorod atomlari orasidagi masofadan sezilarli darajada kichik ekanligini ko‘rsatdi [O_i]= $5 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$, $r = 12,5 \text{ nm}$). O‘z navbatida SiO_4 kompleksining hosil bo‘lish ehtimolligi juda kichik; SiO_4 modeliga mavjud massalar qonunini qo‘llab bo‘lmaydi, chunki kompleksning hosil bo‘lishi kislorodning o‘ta to‘yingan qattiq aralashmasida yuz berayapti (konsentrasiya [O_i]= $5 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ T= $1200^\circ S$ da kremniydagi chegaraviy eruvchanligi bo‘lib hisoblanadi); tugunlar aro kislorod [O_i] va TD-I ning konsentrasiyalari o‘rtasida qat‘iy darajali bog‘liqlik bajarilmaydi; SiO_4 kompleksi shunchaki donorli faollikka tushintirish bermaydi.

Tajribalarning ko‘rsatishicha TD-I ning paydo bo‘lishi tugunlararo kislorod konsentrasiyasining kamayishigi korrelyatsiya beradi. Bu esa TD-I ning paydo bo‘lishida kislorodning asosiy rol o‘ynashining ishonchli isboti bo‘ladi. Ammo, kislorod (yoki shunga o‘xshash boshqa oltinchi guruh elementining) donorli tabiatini namoyon qilishi uchun uni kristall panjara tuguniga joylashtirish lozim. Shundagina, bu holatda turganda o‘zining kovalent bog‘lanishga qatnashmayotgan ikkita elektronini berishi mumkin. Bunday mulohazalardan so‘ng Gelmrayx va Sirtl TD-I ning paydo bo‘lishini bitta tugunlar aro kislorod atomining kamida ikkita vakansiya bilan reaksiyasi ko‘rinishida tasvirlash mumkin, degan fikrga kelishdilar. Bu vakansiyalardan biri (V_g) tugunlar aro joylashgan kislorod atomini tugunga joylashtirish uchun siljitishga zarur bo‘ladi. Ikkinchi (V_n) vakansiya esa, uning valent elektronlaridan biri bilan bog‘lanib turish hisobiga tugundagi holatini stabillashtirish uchun zarur bo‘ladi:






Bunday kompleksda kislorod o'zining bog'lanmagan elektronini berishi mumkin, ya'ni donorlik funksiyasini bajaradi.




Elektr jihatdan faol kompleks bilan yana bitta vakansiyani (V_f) qamrab olishi bilan u donor faolligini yo'qotadi.




Vakansiya o'rnida ixtiyoriy akseptor kirishma bo'lishi mumkin. U holda TD-I ning donor faolligining kelib chiqish sababini ifodalovchi umumiy modelni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

elektr jihatdan faol kompleksning paydo bo'lishi



elektr jihatdan neytral kompleksning hosil bo'lishi



bu yerda EA - akseptor, V_{Si} , Cu_{Si} , Al_{Si} va boshqalar singari [8].

Gyozel va Tan modeli. Mualliflar bundan oldingi modellarning kamchiliklarini aynan qayd qiladilar: tugunlar aro kislorodning diffuziya koeffisienti juda kichik bo'lganligi sababli SiO_4 kompleksning donorlik tabiatini namoyon qilish ehtimolligi juda kichik. Bundan tashqari SiO_4 komplekslarining donor faolligini tushintirish qiyin.

Gelmrayx va Sirtllar o'z modellarida bu kamchilikni inobatga olishgan va TD-I sifatida vakansiya-tugundagi kislorod atomi ($O_{Si}^+ V_n^-$) komplekslar hosil qiladi, deb qaragan. Bu model haqiqatdan ham donorlik faolligini tushintiraolgan, ammo TD-I ning hosil bo'lish kinetikasi xossalarini tushintirib beraolmagan. Bundan tashqari chuqur energetik sathlar spektroskopiyasi metodi yordamida elektron nurlantirish yordamida hosil qilingan qo'shimcha vakansiyalar TD-I larning maksimal konsentratsiyasini oshirmaydi. Shuning uchun TD-I tarkibiga vakansiya kirmaydi, deb hisoblash mumkin.

Bu keltirilgan Kayzer modelidagi kamchiliklardan qutilish uchun TD-I hosil bo'lish kinetik xossalari to'g'risidagi fikrlarni saqlagan holda Gyozel va Tan Si da $450^\circ C$ da termik ishlov berilganda gaz ko'rinishidagi kislorod molekulasini (O_2) hosil bo'ladi, degan taxmini aytishgan:



Bunday molekula kremniy kristall panjarasi bilan kuchsiz bog'langan va o'z navbatida u tugunlar aro kislorod atomining diffuziya koeffisientiga nisbatan ($D_{O_i} = 6 \cdot 10^{-19} \text{ sm}^2 \cdot \text{s}^{-1}$) ancha yuqori diffuziya koeffisientiga ega bo'ladi (mualliflarning baholashicha $450^\circ C$ da $D_{O_2} = 2 \cdot 10^{-9} \text{ sm}^2 \cdot \text{s}^{-1}$ ga teng).

So'ngra ikkita bunday molekulaning bir-biriga yaqinlashishi donorli tabiatga ega bo'lgan O_4 kompleksi hosil bo'lishiga olib keladi, deb qaradilar:



Bunda O_4 kompleksining hosil bo'lishi kristall panjara bilan bog'lanmasdan hosil bo'ladi. O_4 kompleksiga yana bitta O_2 kompleksining birikishi ionlashish energiyasining sezilsiz ravishda o'zgarishiga olib keladi. Bu kompleksning tugunlar aro kislorodni qamrab olishi $Si - O$ ko'rinishdagi bog'lanishni hosil qiladi va natijada donor faolligini yo'qotadi. Mualliflarning fikriga ko'ra bunday termodonorlarning strukturali modeli kislorod atomi zanjiri $^+O - O - O - O^+$ ko'rinishda bo'ladi. Ammo O_4 komplekslarining donorli faolligini bunday tushintirish kuchli olib sotarlik (spekulyativ) harakterga egaligini va to'liq qanoat hosil qilishdan ancha yiroqda ekanligini alohida qayd qiladilar [9].

Payot, Kompeyn, Lerouvip Kliriyad modeli. Payot va boshqalar IQ-spektroskopiya usuli yordamida TD-I energetik sathlarning bir necha xilini aniqladilar va ularning kelib chiqishi to'g'risida tushintirish berdilar.

$T = 450^\circ C$ temperaturada termik ishlov berilganda kremniyda harakatchan tugunlar aro ($Si = O$)_i molekulasini hosil bo'ladi, qaysikim uning diffuziya koeffisienti atom holatdagi kislorodning

diffuziya koeffitsientidan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Li atomiga o'xshab ($Si = O$)_i molekulasi tugunlar aro kislorodni qamrab olib, ($Si = O$)_i O ikki zaryadli turg'un donor kompleks hosil qilib, stabil holatga o'tishi mumkin. Ma'lum bir sharoitlarda donorli kompleks SiO_2 neytral kvazimolekula hosil qiladi va o'z navbatida boshqa harakatchan molekulani qamrab oladi, natijada yangi donor sath hosil qiladi. Mualliflarning taklifiga ko'ra, TD-I bu ($Si = O$)_i O_n kislorodli kompleks bo'lib, uning tarkibida faol ($Si = O$)_i molekula bo'ladi. Bunday donorli komplekslarning ionlashish energiyasi n ning qiymati bilan aniqlanadi [10].

Nyumen, Oeyts va Livingston modeli. Nyumen, Oeyts va Livingstonlar taklif qilayotgan model umumiy holda Payota modeliga o'xshash. Elektron mikroskop yordamidagi tadqiqot natijalariga ko'ra 600°C dan yuqori temperaturalarda kislorod pritsipitlatlari sezilarli bo'ladi va kislorodli klasterlarda kuchli ichki kuchlanishni yuzaga keltiradi. Bu kuchlanishni relaksatsiya qilish uchun kvazivakansiyani adsorbsiyalash kerak, yoki Si ning xususiy atomlarini tugunlar orasiga generatsiyalash kerak. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, aynan Si atomlari tugunlar orasida generatsiyalanadi va temperaturaga bog'liq holda dislokatsion dipole yoki sirtmoq hosil qiladi.

Modelni taklif qilayotgan mualliflar tajribada ko'rsatishdilarki, Si ning tugunlar aro atomlari past temperaturalarda (450°C) da generatsiyalanadi. Har bitta pritsipitlatga birlashayotgan kislorod atomi O_i ning emissiya koeffitsienti $0,5 \cdot Si_i$ ga teng. Tugunlar orasidagi kremniy termik ishlov vaqtida kislorod atomi bilan birikib, juda tez harakatlanuvchi (O_i - Si_i) molekula hosil qiladi. Bunday molekula tugunlar aro kislorod atomini biriktirib olib, (O₂ - Si_i) ko'rinishidagi 2 karra zaryadlangan donorli kompleks hosil qiladi. Bunday termodonorlarning ionlashish energiyasi kompleksdagi kislorod atomlari miqdori bilan aniqlanadi.

Donorli komplekslarning hosil bo'lishi to'g'risidagi taklif etilayotgan model TD-I hosil bo'lishi kinetikasining asosiy xossalarini tushuntiradi (TD-I hosil bo'lishining boshlang'ich tezligining tugunlar aro joylashgan kislorodning boshlang'ich konsentratsiyasining 4-darajasiga bog'liqligini). O₂ ning hosil bo'lish tezligi, tajriba natijalari asosida [O_i]² va Si_i ning hosil bo'lishi tezligiga ham [O_i]² ga to'g'ri proporsional ekanligini ko'rsatdilar. (O₂ - Si_i) donorli kompleksning hosil bo'lish tezligi $t \rightarrow 0$ da quyidagicha aniqlangan [11].

$$\frac{d(O_2 - Si_i)}{dt} \propto [O_i]^4. \quad (1.9)$$

Kremniyda TD-I ning paydo bo'lishi to'g'risidagi yuqoridagi modellar bir-birini to'ldiradi, ammo yagona model hozircha ishlab chiqilmagan. Bu masalani echish ko'plab tajriba natijalariga tayangan holda amalga oshirilishi tayin. Biz kelgusi ishlarimizni TD-I ning hosil bo'lish kinetikasiga tez diffuziyalanuvchi kirishmalarning ta'siri to'g'risidagi tajriba natijalari bilan davom ettiramiz.

Adabiyotlar

1. Fuller. C.S., Dilzenberger J.A., Hanny N.B., Buehler E. Resistivity Changes in Silicon Induced by Heat Treatment // Phys. Rev.1954.V.96. №3. P 833.
2. Kaiser I.I., Frisch H., Reiss H. Mechanism of the Formation of Donor States in Heat-Treated Silicon // Phys. Rev.-1958.-V.112, N 5.-P. 1546-1554.
3. Литовченко А.Г., Макаренко Л.Ф., Мурын Л.И., О термодонорах в кремнии // Тез. докл. IV Всесоюз. конф. по физико-химическим основам легирования полупроводниковых материалов. М., 1979. с.195
4. Suchet J. P. Sur le role de l'oxygène dans les cristaux de silicium // J. Chine. Phys.-1961.-V.58, N 3.-P. 455-463.
5. Hrostowski H.J., Kaiser R.H. Infrared Spectrum of Heat Treatment Centers in Silicon // Phys. Rev. Lett. 1958. V. 1. №6. P. 199-200.
6. Батвин В.В., Сальник Е.А. Влияние акцепторов на генерацию термодоноров в кремнии, содержащем кислород // Электрон. техника. Сер. IV. Материалы. 1980. №5. с. 42-45.
7. Graff K., Pieper H. The Carrier Lifetime of Heat-Treated Silicon Crystals // J. Electron. Mater. 1975.V. 4. №2. P. 281-298.

8. Helmreich D., E. Sirtl. Oxygen in Silicon: A Modern View // In: Semiconductor Silicon 1977, edited by H.R.Huff and E.Sirtl (Electrochemical Society, Pennington, New Jersey, 1977).-P. 626-636.
9. Gosele U., Tan T. Y. Oxygen Diffusion and Thermal Donor Formation in Silicon // Appl. Phys. A.-1982.-V.28, N 1.-p. 79-92.
10. Pajot V., Compain H., Lerouille J., Clerjaud B. Spectroscopic Studies of 450°C Thermal Donors in Silicon // Physica B+C.-1983.-V. 117-118.-p. 110-112.
11. Newman R. C, Oates A. S., Livingston F. M. Self-interstitials and Thermal Donor Formation in Silicon: New measurements and a Model for the Defects // J. Phys. C: Solid State Phys.-1983.-V.16, N 19.-P. L667-L674.

UDK 530.12.01

**GERMANIY KRISTALI TUZILISHINI RENTGEN NURLARINING DIFRAKSIYASI
ORQALI O'RGANISHDA DEBAY-SHERRER USULI**

**Sh.X.Xushmurodov, U.U.Tuxtaev, T.Soliyev, M.Shakirov, B.Niyozov, S.Qarshiev,
D.Toshmamatov**

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Qattiq jismlar kristall tuzilishini o'rganishda rentgen nurlarining difraksiyasidan keng foydalaniladi. Rentgen nurlarining qattiq jismlardagi difraksiya sharti Breg-Vulf va Debay-Sherrer usuliga asoslangan. Kuchli shaklidagi qattiq jismlarning asosan Debay-Sherrer difraksiya usuli yordamida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Breg-Vulf difraksiyasi, Laue, Debay-Sherrer difraksiyasi, *LiF*, kyuveta, interferensiya, Gyuygens-Frenel, germaniy, mikrokristallari, fotoplastinka, monoxromatik roentgen nurlari

Определение кристаллические структур германия методом дифракции рентгеновского излучения с использованием правила Дебая-Шеррера.

Аннотация. Для изучения структур твердых тел используется дифракция рентгеновского излучения. Существуют дифракционные условия Брэгга-Вульфа и Дебая-Шеррера. Для изучения порошкообразных твердых тел используется условие Дебая-Шеррера.

Ключевые слова: дифракция Брэгга-Вульфа, дифракция Лауэ и Дебая-Шеррера, кювета, интерференция, Гюйгенс-Френель, германий, фотопластинка, монохроматическое рентгеновское излучение.

Definition of crystal structures of germanium by the method of diffraction of x-ray radiation with the use of the Debay-Scherrer regulation.


Abstract. To study the structure of a solid telescope, X-ray diffraction is widely used. There is a diffraction condition for Bragg-Wulf and Debye-Scherrer. To study powdered solid, the Debye-Scherrer condition is used.

Keywords: Bragg-Wolf diffraction, Laue and Debye-Scherrer diffraction, cuvette, interference, Huygens-Fresnel, germanium, microcrystallary, photographic plate, monochromatic X-ray radiation.

Yorug'lik yuzaga keltiradigan difraksiya hodisalarni rentgen nurlari ham hosil qilishi mumkin. Ammo rentgen nurlari difraksiyasini hosil qilishning ancha sodd va amalda ancha muhim bo'lgan usuli difraksiya panjara o'rnida kristall ishlatishga asoslangan. Rentgen nurlarini kristallar yordamida difraksiyalash osonligining sababi, kristallda atomlar orasidagi masofalar tartibi rentgen nurlari to'liq uzunliklarining (10^{-10} m) tartibi bilan bir xil ekanligidir. Ma'lumki, dastlab rentgen nurlarining difraksiyasi ularning kristallar orqali o'tishida foydalanilgan edi (Laue, 1912 yil). Bu hodisa rentgen nurlarining tabiati yorug'lik nurlari tabiati bilan bir xil ekanligini uzil-kesil isbot qildi.

Breg-Vulf difraksiya usuli. Kristall fazoviy panjara tuginlarida ma'lum qonuniyat va tartib bilan joylashgan atom va molekular to'plamidan iborat bo'ladi. To'liqlar tabiati Gyuygens-Frenel tamoyili orqali tahlil qilinadi. Bu tamoyilga asosan to'liq frontining har bir nuqtasi ikkilamchi to'liqlar manbai hisoblanadi. Ikkilamchi manbalardan chiqqan to'liqlar fazoviy munosabatlar hisobga olinganda interferensiya hodisasini hosil qiladilar. To'liqlarning tekis sirdan qaytishi shunga

olib keladiki, sirtning har bir nuqtasi ikkilamchi to'liqlar manbai bo'lib qoladi. Bu manbalardan chiqqan to'liqlar o'zaro interferensiyalashib, ma'lum qaytish burchagi ostida qaytgan to'liqlarni hosil qiladi, qaytish burchagi tushish burchagiga teng bo'ladi. Bu to'liqlar yo'llari orasidagi farq quyidagicha aniqlanadi:



1-rasm. Bregg-Vulf difraksiyasi

$$\Delta = |AB| + |BC| - |AD|, \quad (1)$$

$$|AB| + |BC| - |AD| = 2d \tan \theta \sin \theta,$$

$$|AD| = 2d \tan \theta \sin \theta,$$

ekanligi hisobga olinsa quyidagi ifoda hosil bo'ladi:

$$\Delta = \frac{2d}{\cos \theta} + \frac{2d \sin^2 \theta}{\cos \theta} = 2d \cos \theta, \quad (2)$$

Qo'shni tekisliklardan qaytgan to'liqlar fazalari farqi quyidagi kattalikka teng bo'ladi:

$$\delta = k\Delta = \left(\frac{2\pi}{\lambda} \right) \Delta,$$

Bu qaytgan to'liqlarning interferensiyasi:

$$\delta = 2\pi m, \quad m = 1, 2, 3, \dots,$$

shart bajarilganda sodir bo'ladi. Demak, to'liqlarning parallel tekisliklardan qaytish shartini (2) formulaga asosan quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$2d \cos \Theta = m\lambda \quad (3)$$

(3) formulada d – parallel tekisliklar orasidagi masofa, λ – to'liq uzunlik. Bu formulani tushish burchagi Θ bilan emas, balki siljish burchagi $\alpha = \pi/2 - \Theta$ orqali ifodalash ham mumkin, ya'ni

$$2d \sin \Theta = m\lambda \quad (4)$$

(3) va (4) formulalar Bregg-Vulf shartini ifodalaydi.

Kristall fazoda biror qonuniyat bilan joylashgan atomlar, atom gruppalari yoki ion gruppalari to'plamidan iboratdir. Bunday uch o'lchovli muntazam strukturalarda difraksiya sharoitlarini topish uchun biz bir o'lchovli (chiziqli), ikki va uch o'lchovli panjarani ketma-ket tekshiramiz.

Bir to'g'ri chiziqda (2-rasm) joylashgan 0,1,2,3,4,5 sochuvchi markazlar (atomlar) qatori bor va bu chiziqli panjaraga yassi to'liq α_0 - burchak ostida tushsin. 0,1,2,3,...sochuvchi markazlarning har biri yangi sferik to'liq manbai bo'ladi va bu kogerent sferik to'liq manbai bo'ladi hamda bu kogerent sferik to'liqlar barcha yo'nalishlarda tarqaladi. α_0 burchak bilan xarakterlanuvchi biror ixtiyoriy yo'nalishni qarab chiqaylik. Qo'shni atomlarning har juftidan o'tuvchi ikkita nur yo'lining ayirmasi, 2-rasmdan ko'rinishicha, $a(\cos \alpha - \cos \alpha_0)$ ga teng. a yo'nalishda difraksiyon maksimum hosil bo'lishi uchun


$$a(\cos \alpha - \cos \alpha_0) = h\lambda \quad (5)$$

shart bajarilishi zarur, bu erda h -butun son (5) dan quyidagini topamiz:

$$\cos \alpha = \cos \alpha_0 + h\lambda / a \quad (6)$$

Bundan ko'rinadiki, chiziqli panjara spektral asbob kabi ishlaydi, chunki har bir to'liq uzunlik λ uchun α burchakning o'ziga xos qiymati chiqadi. SHunday qilib, $h = 1$ bo'lganda birinchi tartibli spektr, $h = 2$ bo'lganda ikkinchi tartibli spektr hosil bo'ladi va hokazo. Simmetrik yo'nalishlarda $h = -$


1, -2, -3 va hokazo bo'lganda ham -1, -2, -3, ... tartibli spektrlar hosil bo'ladi. Demak, bu spektrlarning to'plami bir o'lchovli analitik fazo hosil qiladi.



2-rasm. Chiziqli panjaradagi difraksiya

Qattiq jismlarning tuzilishini rentgen nurlar yordamida analiz qilishda juda ko'p qo'llaniladigan kristall kukunlar metodidir. Debay va Sherrerlar taklif etgan bu metodda Laue va Bregg-Vulf metodlarini ishlatganda zarur bo'ladigan katta kristallar o'rniga imkon boricha maydalangan kristall kukun ishlatiladi; bu kukun maxsus kyuvetaga joylashtiriladi. Agar bunday namuna kyuvetasiga monoxromatik rentgen nurlari tushurilsa, u holda kukunning mikrokristallari butunlay tartibsiz joylashganligi tufayli kyuvetadagi namuna nurga nisbatan mazkur to'ldin uzunlikda Bregg-Vulf shartini qanoatlantiruvchi burchak ostida joylashgan kristallchalar hamma vaqt topiladi. Kristall kukunlar metodining eng afzal tomoni shundaki, bu metod bilan ishlaganda yaxshi sifatli katta kristallar talab qilinmaydi. Tabiatda bunday kristallar ko'rinishida moddalar juda kam uchraydi, kristallar o'stirish esa hamma vaqt ham mumkin bo'lavermaydi.

Asbobni *LiF* monokristali yordamida energiya bo'yicha darajalaymiz. O'lchanadigan namuna (germaniy) moddasini kukun shakliga keltiriladi. Maxsus kyuvetaga namuna kukuni bir jinsli qilib joylashtiriladi va asbobjning maxsus joyiga o'rnatilib rentgen nuri bilan nurlantiriladi. Olingan spektr yordamida difraksiya burchagini bilgan holda, namunaning kristall panjara doimiylari (*d* va *a*) aniqlanadi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.



3-rasm. *LiF* monokristalining spektr ko'rinishi

1-jadval

Mis atomining xarakteristik K_{α} - spektral chizig'idan foydalanib olingan natijalar

<i>h, k, l</i>	$\frac{h^2+k^2+l^2}{2}$	$\frac{h^2+k^2+l^2}{(h^2+k^2+l^2)_0}$	$\frac{h^2+k^2+l^2}{(h^2+k^2+l^2)_{111}}$	ϑ, \circ	$\sin\vartheta$	$\sin^2\vartheta$	$\frac{\sin^2\vartheta}{\frac{(n)}{\sin^2\vartheta}}$	<i>d, pm</i>	<i>a, pm</i>
111	3	1.5	1	13.72	0.23718	0.05625	1.00	325.02	562.95
220	8	4	2.67	22.74	0.38655	0.14942	2.66	199.43	564.08
311	11	5.5	3.67	26.86	0.45228	0.20456	3.64	170.45	565.31
400	16	8	5.33	33.08	0.54581	0.29791	5.30	141.24	564.96
331	19	9.5	6.33	36.47	0.59440	0.35331	6.28	129.69	565.32
422	24	12	8	41.89	0.66770	0.44583	7.93	115.46	565.62
511/333	27	13.5	9	45.10	0.70834	0.50174	8.92	108.83	565.51
440	32	16	10.67	50.39	0.77040	0.59352	$\frac{10.5}{5}$	100.06	566.05
531	35	17.5	11.67	53.56	0.80448	0.64719	11.5	95.83	566.91

							1		
620	40	20	13.33	59.56	0.86216	0.74332	13.2 1	89.41	565.51

Adabiyotlar

1. E.V.Shpolskiy Atom fizikasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1970.
2. I.V.Savelev Umumiy fizika kursi. – T.3., T.: “O‘qituvchi”, 1976.
3. R.Bekjonov, B.Axmadxo‘jaev Atom fizikasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1979.
4. Optika i atomnaya fizika, pod. red. prof. R.I.Solouxin izd. – M.: «Nauka», 1983 gg.
5. G.Axmedova, O.B.Mamatqulov, I.Xolboev Atom fizikasi. – T.: “Istiqlol”, 2013.

UDK 530.12.01

TURLI MATERIALLARNING ZICHLIGINI GAMMA NURLARNING YUTILISHI YORDAMIDA ANIQLASH

Sh .X. Xushmurodov, U. U. Tuxtayev, E. A. Umirzaqov, T. Soliyev,

B Aslonov, Sh Jo`raqulov, E. Umarov, Sh. Mamatqulov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Yutilish koeffitsiyenti gamma kvantlarning muhit bilan ta'sirini to'la xarakterlaydi, chunki u ko'rilayotgan jarayonning to'la kesimi bilan bog'langan bo'ladi. Gamma-nurlarning yutilishi asosan fotoeffekt, Kompton effekt va elektron-pozitron juftini hosil qilishlik bilan bo'ladi. Fotoeffekt bilan kompton effekti gamma-nurlarning atom elektronlari bilan to'qnashishida yuz bersa, elektron-pozitron jufti gamma kvantning atom yadrosi bilan ta'sirida ro'y beradi.

Kalit so'zlar: Gamma nurlar, Zaryadli zarralar, massaviy yutilish koeffitsiyenti, elektromagnit ta'sirlashuv, intensivlik, Geyger-Myuller sanagichi.

Определение плотности различных материалов методом поглощение гамма излучения

Аннотация. Коэффициент поглощения гамма излучения в различных материалов полностью характеризует принципы взаимодействия. Поглощение гамма излучения расходуется на фотоэффект, Комптон эффект и образование электронно-позитронных пар. Фотоэффект и Комптон эффект характеризует взаимодействие гамма излучения с атомным электронам а образование электронно-позитронный пар взаимодействия с ядром атома.

Ключевые слова: гамма излучение, заряженные частицы, коэффициент поглощения, электромагнитное взаимодействие, интенсивность, счетчик Гейгера-Мюллера.

Determined density of various materials by the method of gamma radiation absorption

Abstract. The absorption coefficient of gamma radiation in various materials completely characterizes the principles of interaction. The absorption of gamma radiation diverges into a photoelectric effect, Compton effect, and the formation of electron-positron pairs. The photoeffect and Compton effect characterize the interaction of gamma radiation with atomic electrons and the formation of an electron-positron pair of interactions with the nucleus of an atom.

Keywords: gamma radiation, charged particle, mass absorption coefficient, electromagnetic interaction, intensity, Geiger-Muller counter.

Gamma-nurlar energiyalari bir necha o'n keV dan yuqori bo'lgan qisqa elektromagnit to'lqinidir. Hozirgi zamon tezlatgichlari yordamida gamma-kvantlar energiyalarini bir necha GeV ga yetkazish mumkin. Gamma-kvantlar to'lqin uzunliklari, energiyalari ortishi bilan kamayib boradi.

$$\lambda = \frac{2\pi\hbar c}{E} \quad (1)$$

Gamma-nurlar to'lqin uzunliklari 10^{-11} sm dan oshmaydi, bu esa atomlararo masofa 10^{-8} sm dan ming marotabalar kichikdir. Muhit bilan ta'sirlashuvni gamma-kvantlar elektromagnit ta'sirlashuviga ko'ra amalga oshiradi. Ta'sirlashuv jarayonida gamma kvant yo'nalishini o'zgartirishi, sochilishi, yutilishi, zarra antizarra juftini hosil qilishi mumkin. Gamma-kvantlar zaryadsiz bo'lgani uchun uzoq masofadan ta'sir etuvchi kulon kuchi ta'siriga berilmaydi, massaga ega bo'lmagani uchun

doimo yorug'lik tezligi bilan harakatlanadi, sekinlashmaydi, to'liq uzunliklari atomlararo masofadan 10^{-3} marotabalar kichik bo'lgani sababli juda kam to'qnashadi. Zaryadli zarralardan farqli o'laroq gamma kvantlar muhitda o'z energiyalarini kamaytirsa ham tezligini o'zgartirmaydi. Gamma kvantlar uchun muhitda chopish masofasi tushunchasini ishlatib bo'lmaydi, gamma kvantlar oqimi intensivligi atom elektronlari va yadrolari bilan ta'sirlashuvida kamayib boradi. Monoxromatik gamma kvantlar oqimining 1 sekundda 1 sm^2 yuzadan o'tayotgan intensivligi I , dx - qalinlikdan o'tganda kamayishi dI bo'lsin. O'z navbatida dI kamayishi oqim va qatlam qalinligiga bog'liq

$$dI = -\mu I dx \quad (2)$$

Agar muhit bir jinsli bo'lsa μ doimiy bo'ladi. (2) ifodani integrallab yoza olamiz:

$$I = I_0 e^{-\mu x} \quad (3)$$

Bu yerda I_0 - boshlang'ich intensivlik, I x - qalinlikdagi muhitdan o'tgandan keyingi intensivlik, μ - yutilish yoki kuchsizlanish koeffitsiyenti. (3) ifodadagi daraja μx - o'lchamsiz bo'lib, gamma kvantlar oqimi muhit qatlamlaridan o'tganda intensivliklari eksponensial kamayib boradi. Muhit qalinligini turlicha ifodalash mumkin, shunga ko'ra μ ham turlicha ataladi. μ (sm^{-1}) - uzunlik birligiga to'g'ri kelsa - chiziqli, ρ - zichlik birligiga to'g'ri kelsa μ/ρ (sm^2/g) - massaviy yutilish koeffitsiyenti deyiladi. Har bir atomga $\frac{\mu}{\rho} \frac{A}{N}$ ($\text{sm}^2 \text{ atom}^{-1}$) va $\frac{\mu}{\rho} \frac{A}{N z}$ ($\text{sm}^2 \text{ elektron}^{-1}$) mos keluvchi

atom va elektron yutilish (kuchsizlanish) koeffitsiyentlar ham ishlatiladi.

Yutilish koeffitsiyenti gamma-kvantlarning muhit bilan ta'sirini to'la xarakterlaydi, chunki u ko'rilayotgan jarayonning to'la kesimi bilan bog'langan bo'ladi. Gamma-nurlarning yutilishi asosan fotoeffekt, kompton effekt va elektron-pozitron juftini hosil qilishlik bilan bo'ladi. Fotoeffekt bilan kompton effekti gamma-nurlarning atom elektronlari bilan to'qnashishida yuz bersa, elektron-pozitron jufti gamma-kvantning atom yadrosi bilan ta'sirida ro'y beradi.

Gamma-nurlarning yutilish koeffitsiyenti material qanday moddadan tuzilganligiga (yasalganligiga) bog'liq. Moddaga tushuvchi J_0 va moddadan o'tgan J larning bir-biriga bog'lanishi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$\rho = \frac{1}{\mu_0 x} \ln \frac{J_{f+m} - J_f}{J_{f+n} - J_f} \quad (4)$$

Bu formuladagi μ_0 - turli moddalarning massaviy yutilish koeffitsiyenti hisoblanadi. Gamma nurlarning turli moddalarda yutilish jarayoni tajribada turli xil sanagichlar yordamida moddaga tushayotgan gamma nurlar va moddadan o'tgan gamma nurlar intensivligini bilgan holda moddalarning massaviy yutilish koeffitsiyentini hisoblash mumkin. Yuqorida keltirilgan (5) formulaga asosan nurlantirilayotgan modda zichligini aniqlash mumkin.

Olingan tajribadan natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval

T/r	$t, (s)$	J_f (imp./sek)	J_{f+n} (imp./sek)	J_{f+m} (imp./sek)	J (imp./sek)	J_0 (imp./sek)	$x, (sm)$	$\rho_{o'r}$ (g / sm^3)
1	60	74	1966	2147	2040	2073	0.25	2.527
2		75	2065	2245	2140	2170		
3		73	2147	2341	2220	2268		
4		72	2088	2278	2160	2206		
5		72	2128	2214	2200	2242		
6		75	2144	2314	2219	2259		
7		74	1997	2145	2031	2071		
8		71	2060	2215	2134	2144		
9		70	2071	2241	2141	2171		
10		72	2028	2214	2100	2142		

Izlanayotgan namuna uchun 661 keVli gamma kvantlarning massaviy yutilish koeffitsiyenti $\mu_0 = 0.0264 \text{ sm}^2 / \text{g}$ ga teng. Biz yuqorida olib borgan tajriba natijasida izlanayotgan namunaning

zichligi $2,257 \text{ g/sm}^3$ ga teng ekanligi ma'lum bo'ldi. Bizga ma'lum bo'lgan alyuminiy moddasining zichligi $2,7 \text{ g/sm}^3$ ga tengligidan foydalanib ushbu namuna alyuminiy qotishmasidan iborat degan xulosaga kelamiz.

Adabiyotlar

1. E.V.Shpolskiy Atom fizikasi. – T.: O'qituvch, 1970.
2. R.Bekjonov Yadro fizikasi. –T.: O'qituvchi, 1975.
3. I.V.Savelyev Umumiy fizika kursi. T.3. – T.: O'qituvchi, 1976.
4. R.Bekjonov, B.Axmadxo'jayev. Atom fizikasi. – T.: O'qituvchi, 1979.
5. G.Axmedova, O.B.Mamatqulov, I.Xolboyev Atom fizikasi. – T.: *Istiqlol*, 2013.

UDK: 621.383

YUPQA PARDALI QUYOSH ELEMENTLARI

S.Q.Axrorov, E.U.Arziqulov, T.U.Toshboev, I.Egamberdiev

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Yupqa pardali quyosh elementlarining umumiy masalalari ko'rib chiqilgan, ularning turli tiplari keltirilgan. Quyosh energiyasini elektr energiyaga aylantiradigan hozirgi kunda mavjud yupqa pardali texnologiyalar bir biri bilan taqqoslangan. Mavjud muammolar tahlil qilingan va ularni yechish istiqboli yo'llari ko'rib chiqilgan. Amorf va mikrokrustallik kremniy asosidagi quyosh elementlarini raqabotbardoshligini ta'minlaydigan ishlab chiqarish texnologiyasining o'ziga-xos asosiy xususiyatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: muqobil energiya manbalari, quyosh energetikasi, elektr energiya, fotovoltaika, quyosh elementi, monokristall va polikristalli kremniy, yupqa parda, amorf kremniy, texnologiya, quyosh moduli.

Тонкопленочные солнечные элементы

Аннотация: Рассматриваются основные вопросы технологии тонкопленочных солнечных элементов, приводятся их различные типы. Проведен сравнительный анализ существующих на сегодняшний день тонкопленочных технологий для преобразования солнечной энергии в электроэнергию. Проанализированы имеющиеся проблемы и рассмотрены перспективные пути их решения. Приведены основные особенности технологии производства на основе аморфного и микрокристаллического кремния солнечных элементов, обеспечивающие их конкурентные преимущества.

Ключевые слова: возобновляемые источники энергии, энергетика солнца, электрическая энергия, солнечный элемент, монокристаллический и поликристаллический кремний, тонкая пленка, аморфный кремний, технология, солнечный модуль.

The thin film solar cells

Abstract. The basic questions of technology of the thinly pellicle sunny elements, their different types are considered. The comparative analysis of existing to date thinly pellicle technologies for transformation of sunny energy to electric power is conducted. Present problems are analyzed and the perspective ways of their decision are considered. Basic features over of technology of production are brought on the basis of amorphous and microcrystalline silicon of sunny elements, providing them competitive edges.

Keywords: proceeded in energy, power engineering specialist of a sun sources, electric energy, sunny element, mono crystalline and poly crystalline silicon, thin tape, amorphous silicon, technology, sunny module.

Yupqa pardali quyosh elementlarining umumiy masalalari ko'rib chiqilgan, ularning turli tiplari keltirilgan. Quyosh energiyasini elektr energiyaga aylantiradigan hozirgi kunda mavjud yupqa pardali texnologiyalar bir biri bilan taqqoslangan. Mavjud muammolar tahlil qilingan va ularni yechish istiqboli yo'llari ko'rib chiqilgan. Amorf va mikrokrustallik kremniy asosidagi quyosh elementlarini raqabotbardoshligini ta'minlaydigan ishlab chiqarish texnologiyasining o'ziga xos asosiy xususiyatlari keltirilgan.

Kalit soʻzlar: muqobil energiya manbalari, quyosh energetikasi, elektr energiya, fotovoltaika, quyosh elementi, monokristall va polikristall kremniy, yupqa parda, amorf kremniy, texnologiya, quyosh moduli.

XXI asr boshlarida insoniyat oldida anʼanaviy energiya manbalarining yaqin kelajakda tugashi va Yerning ekologik holatining yomonlashuvi bilan bogʻliq boʻlgan muammolar paydo boʻla boshladi. Shu sababli iqtisodiy rivojlangan davlatlarda qayta tiklanadigan energiya manbalari, shu jumladan Quyosh energiyasini boshqa turdagi energiyalarga aylantiruvchi qurilmalarni ishlab chiqishga katta eʼtibor qaratila boshlandi. Quyosh, Yerni insoniyat talablariga qaraganda juda koʻp marta katta boʻlgan energiya bilan taʼminlaydi. Yer atmosferasida quyosh nuri kuchli sochiladi, shuning uchun bu energiyadan toʻliq foydalanish ancha murakkab. Quyosh nuridan keng koʻlamda va juda samarali foydalanishni taʼminlash uchun va quyosh elementlarining texnik hamda iqtisodiy koʻrsatgichlarini sezilarli darajada yaxshilash talab qilinadi. Tannarxi arzon boʻlgan Quyosh energiyasini elektr energiyaga aylantirgichlarni ishlab chiqish yoʻnalishidagi istiqbolli yondoshuvlaridan biri yupqa pardali quyosh elementlarining texnologiyasini yaratish hisoblanadi. Bu sohada dunyodagi koʻplab rivojlangan mamlakatlarda keng koʻlamli ilmiy tadqiqot va loyiha konstruktorlik ishlari olib borilmoqda va sezilarli natijalarga erishilgan.

Keyingi yillarda Oʻzbekistonda quyosh energetikasini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning isboti sifatida Respublika birinchi prezidentining 2013 yil 1 martidagi «Muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish chora tadbirlari» toʻgʻrisidagi PQ 4612 farmonini, bundan tashqari respublikamiz hududida (Samarqand va Toshkent viloyatlarida) yirik quyosh elektrostansiyalarini yaqin kelajakda (2018-2020 yillarda) qurish buyicha loyihalarni koʻrsatish mumkin. Bunday quyosh elektrostansiyalarning barpo etilishi, oʻzbek quyosh energetikasining sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarilishiga olib keladi.

Quyosh energetikasining rivojlanishi

Kishilik jamiyatining rivojlanish tarixi, bir kunda odam boshiga toʻgʻri keluvchi istemol qilingan energiya 2,4 kkal dan (ibtidoiy jamiyat) 150 kkalgacha (zamonaviy gʻarb jamiyati) oshganligidan dalolat beradi. Olimlarning tahliliga koʻra insoniyatning hozirgi kundagi energiyaga boʻlgan talabi (~ 13 TVt) XXI asrning oʻrtalariga kelib taxminan ikki karra (~ 30 TVt), XXI asrning oxiriga kelib esa uch karradan koʻpga (~ 46 TVt) ortadi. Bunga sabab, birinchidan dunyo iqtisodiyatining umumiy oʻsishi va aholisining soni planetamizdagi aholining 2/3 qismini tashkil qilgan rivojlanayotgan davlatlarning, shular qatorida Oʻzbekistonning ham iqtisodiyoti keskin koʻtarilishi boʻlsa, ikkinchidan planetamiz aholisining sezilarli ortishidir. 2050 yilga kelib Yer aholisining soni 10–11 milliardga etadi, iqtisodiy oʻsish esa 4 karra boʻladi.

Hozirgi paytda butun dunyoda energiya asosan maʼdan energiya manbalaridan: neft, tabiiy gaz, koʻmir, yadro yonilgʻisidan foydalanib ishlab chiqarilmoqda. Biroq energiyaga boʻlgan talabni faqat qazib olinadigan manbalardan foydalanish hisobiga qondirish mumkin emasligi, energiyaning anʼanaviy manbalari zaxiralari asta-sekin tugab borayotganligi hech kimga sir emas. Aksariyat ekspertlarning fikricha energiyaga boʻlgan talabning global ortishi sababli anʼanaviy manba resurslari asosan asrimizning oʻrtalariga borib tugaydi. Texnik tarraqiyot natijasida yangi konlarning ochilishi resurslarning tugash jarayonini faqat bir oz ortga surishi mumkin holos. Shunisi ayonki, anʼanaviy energiya resurslarning zahiralari toʻliq tugamagan taqdirda ham, ularga boʻlgan talabning keskin ortishi sababli narxlarining keskin ortishi kuzatiladi.

Muammoni atom energetikasi hisobiga ham yechib boʻlmaydi, chunki bu energetikaning manbai boʻlgan radioaktiv moddalarning, jumladan, uranning zahiralari ham cheklangan. Radioaktiv chiqindilarni utilizatsiya qilish ham jiddiy muammolardan boʻlib hisoblanadi.

Ikkinchi tomondan Yerning issiqlikdan oʻzgarishi bilan bogʻliq boʻlgan ekologik muammo ham mavjud boʻlib, u iqlimning qaytmas oʻzgarishlariga olib kelishi mumkin. Turli yonilgʻilardan foydalanish va avariylar natijasida atmosfera, okeanlar va qurliqlarning neft hamda radiaktiv elementlar bilan ifloslanishi yuz beradi.

Maʼlumki, istalgan yonilgʻi yondirilganda Yerning ifloslanishi yuz beradi: atmosferadagi CO₂ konsentratsiyasi ortadi, bu esa «issiqxona effektining» yuzaga kelishiga sabab boʻladi. Yonilgʻilar, shu jumladan yadro yoqilgʻisi hisobiga energiya ishlab chiqarish miqdorini oshirish Yer uchun xavfsiz temperatura chegarasidan XXI asrdayoq oʻtib ketishimizni koʻrsatmoqda. Va nihoyat energiya xavfsizligi muammosi ham mavjud boʻlib, u foydalanilayotgan energiya manbalarini diversifikatsiya qilishni talab

qiladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga kiritilayotgan sarmoyalar etarli darajada emas. 2016 yilda bu raqam 285 milliard dollarni tashkil etgan. Uglevodorodlarning iqlim o'zgarishiga salbiy ta'sirini sezilarli kamaytirish maqsadida esa muqobil energiyani rivojlantirish uchun kiritilayotgan sarmoya kamida 1 trln dollarni tashkil etishi kerak.

SHunday qilib, XXI asr boshlarida dunyo energetikasi energiya ist'emol manbalarining tuzilmasini jiddiy o'zgartirish zaruriyatiga duch keldi. Aksariyat analitik tadqiqotchi olimlar noan'anaviy ya'ni qayta tiklanuvchi manbalarining ulushi yaqin 20-30 yillar ichida sezilarli (30 % gacha) ortishini bashorat qilishmoqda. Rivojlangan davlatlar ko'p yillar mobaynida muqobil energiya manbalarini rivojlantirishga yiliga milliardlab dollar sarflayotganiga qaramay, hozirgi kunda qayta tiklanuvchi energiya manbalari an'anaviy energiya manbalari bilan raqabotbardosh emas.

Buning asosiy sababi - iqtisodiy, ya'ni ishlab chiqarilayotgan energiya tannarxining qimmatligi hisoblanadi. Bundan tashqari deyarli barcha qayta tiklanuvchi energiya manbalari uchun o'ziga xos cheklashlar mavjud: masalan ob'ektning joylashuvi, muayyan iqlimiy sharoitlar talab qilishi bilan xarakterlanib, bu cheklovlar ularning keng qo'llanilishni murakkablashtiradi yoki imkoniyatini chegaralaydi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan doimo eng jozibadori va istiqbollisi fotovoltaika, ya'ni quyosh energiyasini bevosita elektr energiyasiga aylantirish hisoblanadi. Quyosh bir necha yuz yillar mobaynida insonlarning energiyaga bo'lgan o'sib boruvchi talablarni qondiradi. Bir soatda yerga kelayotgan quyosh energiyasining miqdori insoniyat bir yilda ist'emol qilayotgan energiya miqdoridan ortiq.

Keyingi o'n yilliklarda quyosh energetikasining o'sish sur'ati yiliga o'rtacha 25 % dan kam bo'lmayapti. Basharatlarga ko'ra XXI asrda quyosh energetikasining rivojlanishi barcha muqobil manbalar ichida etakchi bo'ladi. Baholashlarga ko'ra 2050 yilda quyosh energiyasi dunyoda ishlab chiqarilayotgan energiyaning 20–25 % ni tashkil qilishi va XXI asrning oxiriga kelib esa quyosh energetikasi asosiy energiya manbaiga aylanib, uning ulushi 60 % ga etishi mumkin.

Nima uchun hozirgi kunda fotovoltaika asosida elektr energiya ishlab chiqarish boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalariga nisbatan juda kam? - degan savol tug'ilishi tabiiy. Quyosh elementlarining keng joriy etilishiga asosiy to'siq, ular tomondan ishlab chiqilayotgan energiya tannarxining an'anaviy manbalarinikiga qaraganda yuqori ekanligidir.

Fotovoltaika qazib olinayotgan energiya manbalari bilan raqabotbardosh bo'lishi uchun u tomondan ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining narxi hozirgi kundagi narxidan taxminan 5–10 marta past bo'lishi kerak. Buning uchun fotoelektrik aylantirgichlarning samarali, arzon texnologiyalari va konstruksiyalarini ishlab chiqish zarur. Fotovoltaika ishlab chiqarayotgan elektr energiyasining tannarxini pasaytirish yo'nalishlaridan biri yupqa pardali quyosh elementlari texnologiyasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi tannarxi eng avval quyosh elementi yasalgan materialning tannarxi va quyosh elementini ishlab chiqarishdagi texnologik jarayon xarajatlari bilan belgilanadi.

Hozirgi kunda quyosh elementlarini tayyorlash uchun kristallik kremniy asosiy material sanaladi, chunki u arzon, zahirasi ko'p bo'lgan material bo'lib hisoblanadi va uni ishlab chiqarish juda yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Kristallik kremniy asosidagi quyosh elementlarining (QE) asosiy kamchiligi bo'lib ular narxining yuqoriligi hisoblanadi, chunki ushbu QElari umumiy narxining 50% ni kremniy tagligining narxi tashkil qiladi. Mazkur tipdagi quyosh elementlarini tayyorlashda yuqori sifatli xom-ashyo qo'llanilib, hozirgi kunda uni ishlab chiqarish uchun nihoyatda katta energiya sarf qilinadi. Bundan tashqari katta o'lchamdagi kremniy quymasini qirqish va unga mexanik ishlov berish natijasida uning katta qismi isrof bo'ladi.

Monokristall va polikristall kremniy to'g'ri bo'lmagan zonali yarim o'tkazgich bo'lganligi uchun, ularning yutish koeffitsientlari kichik, quyosh nurini samarali yutishi uchun esa ulardan tayyorlanayotgan fotoelektrik aylantirgichlarning qalinligi yuzlab mikronlarni tashkil qilishi kerak. Bu ham kremniyning sarfini sezilarli oshishiga olib kelib, quyosh elementlari narxini ortiradi.

Shunday qilib, qimmatbaho kristallik kremniy o'rniga, yupqa pardali quyosh elementlarini yaratish istiqbolli hisoblanadi. Yupqa pardali texnologiya quyosh modullarining narxini pasaytirishda katta potensialga ega.

Bundan tashqari, yupqa pardali texnologiya bir qator o'ziga xos ustunliklarga ega bo'lib, kristall yarim o'tkazgichlardan foydalanilganda umuman imkoniyati mavjud bo'lmagan yoki murakab bo'lgan

(egiluvchan, yarim shaffof modullar va sh.k.) qo'llanishlarni amalga oshirish mumkin.

YUppqa pardali texnologiyalar afzalliklaridan biri qatlamlarni past haroratlarda olish mumkinligi hisoblanadi. Bu esa egiluvchan tagliklarda yarim o'tkazgich strukturalarni yaratishga imkon beradi. Egiluvchan asosdagi quyosh elementi kichik og'irlikka ega, uni istalgan yuzaga montaj qilish mumkin. Turli rangdagi yarim shaffof modullarni esa turli maqsadlarda, masalan binolarni bezashda qo'llash mumkin. Pirovardida yupqa pardali texnologiyaning asosiy afzalligi - juda katta yuzalarda asbob strukturalarini yaratish imkoniyati mavjudligi hisoblanadi.

Quyosh energiyasini elektr energiyaga aylantirish uchun hozirgi kunda mavjud bo'lgan yupqa pardali texnologiyalarini qiyosiy tahlili

Qo'llanilayotgan material sarfini ancha kamaytirish va uning narxini pasaytirishga yuqori yutish koeffitsientiga ega bo'lgan, polikristall plenklar tarzida qo'llaniladigan $CdTe$, $Cu(In,Ga)Se$ kabi materiallar asosdagi yupqa pardali texnologiyadan foydalanish imkon beradi. Bunday materiallar qatoriga amorf gidrogenlangan kremniyni ham kiritish mumkin. Demak, hozirgi kunda quyosh elementlari tayyorlashning mavjud yupqa pardali texnologiyalarini uchta guruhga ajratish mumkin. mavjud.

1. $CdTe$ yupqa pardali nanotexnologiya.
2. Mis va indiy diselinidi $CuInSe_2$ (CIS) va $Cu(In_{1-x}Ga_x)Se_2$ (CIGS) yupqa pardali texnologiya.
3. Amorf kremniy asosidagi yupqa pardali texnologiya.

SHu texnologiyalarda qo'llaniladigan materiallarning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqaylik.

CdTe yupqa pardali nanotexnologiya:

Afzalliklari:

- Yuqori darajada turg'un FIK ega (quyosh modulining FIK 10 % tartibida).
- Ishlab chiqarish xarajatlari katta emas, shu sababli bunday quyosh modullarining narxi juda past.

Kamchiliklari:

- Jarayonlarni yana qayta takrorlash va nazorat qilish juda murakkab (yaroqli mahsulot chiqish miqdori past). Bir vaqtning o'zida ikkita Cd va Te komponentlar, hamda ularning tegishli nisbatini nazorat qilish talab qilinadi.
- Tellur Te kamyob er metalli, zahirasi In nisbatan taxminan o'n baravar kam.
- Kadmiy Cd og'ir metall. Zaharli element bo'lgani uchun atrof muhit muhofazasi masalalarini ham hisobga olish kerak. Quyosh elementining xizmat muddati tugagandan keyin uni maxsus og'ir metall sifatida utilizatsiya qilish zarur.

Bundan tashqari ishlatish jarayonida ishdan chiqish holatlarni ham hisobga olish kerak. Masalan, shisha singanda Cd tuproqqa absorbsiyalanishi va uni ifloslantirishi mumkin. Shu sababli modullarni montaj qilish uchun qimmatga tushadigan qo'shimcha xarajatlar ham talab qilinadi.

Modulning yakka taglikdagi yo'l-yo'l konstruksiyasi esa alohida yo'laklar orasidagi tirqishlarni ta'minlashni murakkablashtiradi.

Mis va indiy diselinidi $CuInSe_2$ (CIS) va $Cu(In_{1-x}Ga_x)Se_2$ (CIGS) yupqa pardali texnologiya:

Afzalliklari:

- Yuqori darajada turg'un FIK ega (modulning FIK 11–13 % tartibida).
- $CuInSe_2$ qatlamlarini o'stirish juda oddiy, u Ga , Se va Cu yupqa qatlamlarini taglik sirtiga termik bug'lantirish yordamida ketma-ket o'tqazish va keyin tezlik bilan termik kuydirishdan iborat.

Kamchiliklari:

- Jarayonlarni nazorat qilish va qaytarish nihoyatda mushkul (yaroqli elementlarning chiqishi past).
- Moduldagi takrorlash murakkab bo'lgan yo'laklar va tirqishlarni diqqat bilan loyihalashtirish talab qilinadi.
- O'tqazish jarayoni yuqori temperaturalarda amalga oshiriladi. CIS va CIGSlarni shakllantirish uchun bir qator usullardan (bug'latish, changitish, gazli transport, purkash va keyinchalik piroliz, elektrokimyoviy o'tqazish, trafaret bosish) foydalaniladi va ularni selenlash usuliga asosan quyidagilarga ajratish mumkin:
- Birikmaning boshqa elementlari bilan Se birgalikda bir vaqtda o'stiriladigan

metodlar;

- Birikmaning boshqa qatlamlarini o'tqazish natijasida *Se* bilan ta'sirlashuv amalga oshadigan metodlar.


Har ikkala holda ham taglikka o'tqazish uni 400–500 °S temperaturagacha qizdirish, yoki shakllangan qatlamni shu temperaturalarda kuydirish orqali amalga oshiriladi. Reaksiya jarayonida qalinligi 1,5–2 mm bo'lgan *CIS* qatlam yuzaga keladi.

- Indiy va gallyi kamyob yer metallari. 1 GVt elektroenergiyani generatsiya qila oladigan yupqa pardali *CIS* quyosh elementlarini ishlab chiqarish uchun taxminan 50 tonna indiy talab qilinadi.
- Narxlarning o'zgarishi, bir kilogramm indiyning narxi 2003 yilda 100 dollar bo'lsa, 2005 yilda u 1000 dollargacha o'sgan. Demak, xom ashyo materialining narxi turg'un emasligi muammosi ham mavjud.
- Selenidlar zaharli bo'lgani uchun atrof muhitni muhofaza qilish muammolari va ikkilamchi ishlov berish xarajatlari e'tiborga olinishi lozim.

Amorf kremniy asosidagi yupqa pardali texnologiya:

Miltillama razryad plazmasda olingan amorf kremniy $a\text{-Si:H}$ ni 1976 yilda legirlash imkoniyati kashf qilinishi, uning spektrning ko'rinuvchan qismiga mos keluvchi to'lqin uzunligi sohasini kuchli yutishi bilan bog'langan nodir foto'otkazuvchanlik xossalari undan quyosh energetikasida foydalanishga yo'l ochib berdi. Bunday materialning va boshqa amorf gidrogenlashgan yarim o'tkazgichlarning yupqa pardalarini olish texnologiyalarining kashf qilinishi yangi, quyosh energetikasi uchun o'ta zarur bo'lgan arzon quyosh elementlarini yaratish texnologiyalarining rivojlanishiga zo'r turtki berdi.

Ommaviy ishlab chiqarilayotgan quyosh modullarida qo'llanilayotgan amorf va mikrokristallik kremniy asosidagi geterostrukturali quyosh elementining tipik tuzilishi quyidagi rasmda keltirilgan.



Rasm. $a\text{-Si:H}/\mu\text{c-Si:H}$ tandem strukturaning (a) va uni spektral xarakteristikasining (b) sxematik tasviri (ShO'O- shaffof o'tkazuvchan oksid qatlam)

Ikkinchi kaskad ikki funksiyani bajaradi. U tor zonali materialdan (taqiqlangan zona kengligi 1,1 eV tartibida) tayyorlangan, bu esa quyosh spektrining uzun to'lqinli sohasidan samaraliroq foydalanishga imkon beradi. Boshqa tarafdin mikrokristallik kremniy ancha yuqoriroq elektr o'tkazuvchanlikka ega, bu esa quyosh elementlari panelida elektr kontaktlarini yaratishda va tokni yig'ishda ijobiy rol o'ynaydi.

Odatda, quyosh modullari katta yuzadagi fotodiodlardan tashkil topadi, bu esa quyosh nurini samarali yig'ish va uni fotovoltaik effekt hisobiga elektr tokiga aylantirishga imkon beradi. Bunday diodlarni ketma-ket ulash quyosh modulining chiqishida elektr tarmog'idagi kuchlanishga yaqin kuchlanishni olishga imkon berib, quyosh modulini elektr energiya ist'emol qiladigan qurilmalarga ulashni va mavjud energiya tizimiga kirishni osonlashtiradi. Quyosh modullarining asosi fotodiodlar bo'lganligi uchun, quyosh modullarini ishlab chiqarishni elektron sanoatining bir

sohasi deb tasniflash mumkin. Yupqa pardali quyosh modullari asosini qalinligi mikron tartibida bo'lgan yarim o'tkazgich materiallarning pardasi tashkil qiladi. Bunday quyosh modullarining kremniy plastinalari asosidagi quyosh modullariga nisbatan yaqqol ustunligi modullarni ishlab chiqarishdagi yarim o'tkazgich materiallarning sarfining kamligidir. Hozirgi kunda eng keng tarqalgan yupqa pardali quyosh modullari bo'lib mikromorf quyosh modullari hisoblanadi. Bunday quyosh modullari ikkita bir-biri bilan monolit biriktirilgan amorf va nanokristall kremniy o'tishlardan iborat. Yaqin infraqizil sohada sezilarli yutish qobiliyatiga ega bo'lgan nanokristall o'tishning kiritilishi yorug'likni yutish polosasini kengaytiradi va buning natijasida quyosh modulining samaradorligi ortadi. Mikromorf quyosh elementining yana bir afzalligi shundaki, intensiv yorug'likka nisbatan noturg'un bo'lgan amorf o'tishning qalinligini kamaytirish imkoniyati bo'lganligi sababli quyosh modullarining fotoinduksion degradatsiyasini pasaytirish mumkin.

Mikromorf quyosh modullarini ishlab chiqarish texnologiyasining boshqa shu kabi texnologiyalarga nisbatan raqabotbardoshligini ta'minlaydigan o'ziga xos asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Bunday quyosh modullari tomonidan generatsiyalanadigan elektr energiyasining qiymati nisbatan ancha past;
- Quyosh modullarini turli, shu jumladan egiluvchan metall yoki plastik tagliklarda yasash mumkin;
- Texnologiya kamyob elementlardan foydalanishni talab qilmaydi;
- Quyosh modulida zaharli elementlar mavjud emas, bu esa o'z muddatini o'tab bo'lgan modullarni utilizatsiya muammosi munosabati bilan juda muhim hisoblanadi.

Shuni qayd qilish lozimki, kremniyning yupqa pardalari asosidagi quyosh modullarini ishlab chiqarish uchun sanoat qurilmalarini tayyorlash bo'yicha hozirgi kunda "Oerlikon Solar" kompaniyasi etakchi hisoblanadi. U mikromorf quyosh modullarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan qurilmalarning to'liq to'plamini etkazib berishga va uni ishlab chiqarishga to'liq tayyor holatda topshirishga ixtisoslashgan. Shu bilan birga kompaniyaning ishtiroki faqat ishlab chiqarish korxonasini to'liq ishga tushirish bilan chegaralanmaydi. U texnik xodimlarni o'qitish, ishlab chiqarishning birinchi yilida ob'ektda doimo ishtiroki bilan ishlab chiqarishni o'z xodimlari bilan kuzatishni amalga oshiradi, korxonada ishlab chiqarilayotgan quyosh modullarini xalqaro sifat sertifikatlarini rasmiylashtirishga yordam beradi va shu bilan mahsulotning bozorga chiqishini osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, quyosh modullarini va avtonom energo qurilmalarni qo'llanilishining istiqboliga hozirgi kunda hech kim shubha bilan qaramaydi. Bu yo'nalishning rivojlanish tendensiyalari quyosh energetikasining hayotga keng joriy qilinishi mazkur muammoning ishlab chiqilish darajasi bilan emas, balki birinchi navbatda bunday usul bilan olinayotgan energiyaning narxi va iqtisodiy maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Kuzatilayotgan tendensiyalar an'anaviy usul bilan olinayotgan energiyaning narxi bilan tenglashish yaqin o'n yillar ichida sodir bo'lishini va u yirik masshtabli quyosh energetikasining tug'ilishini belgilashini ko'rsatadi. Quyosh Erga hayot bergan reaktor va u insoniyatning har tomonlama qulay turmushi uchun zarur bo'lgan energiyaning bera oladi. SHuning uchun quyosh energiyasidan yanada faolroq foydalanish ertangi kunning emas, hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Adabiyotlar

1. Afanasev V. P., Terukov E. I., Sherchenkov A. A., A94 Tonkoplenochnye solnechnye elementy na osnove kremniya. 2-e izd. SPb.: Izd-vo SPBGETU «LETI», 2011. 168 s.
2. Alfeyorov J. I., Andreev V. M., Rummyanov V. D. Tendensii i perspektivy razvitiya solnechnoy fotoenergetiki // FTP. 2004. T. 38, vip. 8. S. 937–948.

UDK: 621.9.08

QUYOSH BATAREYALARINI KOMPONOVKA QILISHDA KOMPYUTERDA SONLI NAZORAT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**E. U. Arziqulov, J.T. Ruzimurodov, Y. D. Eshonqulov***Samarqand davlat universiteti*E-mail: eshkuvat@samdu.uz

Annotatsiya. Maqolada quyosh batareyalarini ishlab chiqarishda qo‘llash mumkin bo‘lgan va shu sohada kichik korxonalar uchun mo‘ljallangan quyosh batareyalarini kompanovka qilish uchun mo‘ljallangan minitexnologiyalar haqida fikr yuritiladi. Bunday minitexnologiyalar asosida loyihalangan dastgohning tannarxi arzon, ko‘p funksionalligi, modernizatsiya qilinishi mumkinligi bilan farqlanadi. Taklif qilinayotgan avtomatlashgan dastgoh modeli kichik partiyada ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni mo‘ljallagan tadbirkorlar uchun arzon va ekspluatatsiya jihatidan qulaydir.

Kalit so‘zlar: quyosh batareyalari, kompyuterda sonli nazorat (KSN) (computer numerical control (CNC)), KSN texnologiyalar, fotoelementlarni kompanovka qilish, ketma-ket interfeys.

Использование технологии числовое программное управление при компоновке и в мелкосерийном производстве солнечных батарей

Аннотация. В статье обсуждается минитехнологии основанное на числовом программном управлении (ЧПУ) технологии для проектирования и компоновки солнечных батарей при мелкосерийном производстве. Проектированные такие оборудования основанные на технологии ЧПУ отличаются своим многофункциональностью, возможностями модернизации и недорогим себестоимостью. Предлагаемая модель оборудования может быть полезна для малых предприятий при мелкосерийном производстве солнечных батарей.

Ключевые слова: солнечные батареи, технология ЧПУ, компоновка фотоэлементов, последовательный интерфейс.

Application of the computerized numerical control technology for desing and in small-scale production of solar batteries


Abstract. In this article computerized numerical control (CNC) based technology for construction and design of solar batteries on small scale production is discussed. Designed on CNC based technology equipment differs from others for the multifunctionality, opportunities of modernization and inexpensive cost. Offered model of the equipment can be useful for small enterprises on small-scale production of solar batteries.

Keywords: solar batteries, computer numerical control (CNC), CNC technologies, design of solar cells, serial interface.

Respublikamizda quyosh energetikasi rivojlanishi hamda xalq xo‘jaligida keng foydalanish uchun yetarli imkoniyatlarga va istiqbollarga ega. Ammo bugungi kunda quyosh batareyalarning (QB) tannarxi ancha yuqori. Bunga asosiy sabab mamlakatimizda QBlarini ishlab chiqaruvchilarning ko‘p emasligi, fotoelementlarning to‘la import qilinishi bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi paytda respublikamizga

asosan chet eldan tayyor quyosh panellari import qilinmoqda va bu o‘z navbatida QBlarining narxining baland bo‘lishiga olib kelmoqda. QBlarining narxini sezilarli pasaytirish uchun faqat quyosh fotoelementlarinigina import qilib, quyosh panellarini respublikamizda yig‘ish maqsadga muvofiqdir.

Bu borada uchrayotgan asosiy to‘siq quyosh panellarini yig‘ishga mo‘ljallangan minitexnologiyalarning respublikamizda ishlab chiqarilmasligi hamda xorijiy texnologik qurilmalarning o‘ta qimmatligidir. Shu sababi quyosh panellarini yig‘ish bilan shug‘illanuvchi



1-rasm. Quyosh batareyalarini panellarga kompanovka qilishga mo‘ljallangan CNC dastgohining tuzilmasi.

kichik korxonalar respublikamizda deyarli faoliyat yuritishmaydi.

Mavjud bu muammodan qutilishning muqobil yo'llaridan biri quyosh batareyalari tashkil topgan panellarini yig'ishga imkon beruvchi, avtomatlashgan va kompyuter bilan boshqariladigan dastgohni loyihalashdan iborat.

Quyosh batareyalari panellarini tayyor fotoelementlardan yig'ish jarayoni quyidagi uch bosqichni o'z ichiga oladi: fotoelementlarni kompanovka qilish, tok kontaktlarini kavsharlash, shaffof qoplama yoki quyma bilan germetizasiya qilish [3].

Yuqorida keltirilgan jarayonlarni sanoat miqyosida amalga oshirish uchun yuqori texnologik vositalar va dastgohlar mavjud, ammo ularning narxi juda yuqoriligi bilan bir qatorda ular universal emas. Odatda yuqorida aytib o'tilgan uch bosqichning har birini amalga oshirish uchun alohida texnologik dastgohlardan foydalaniladi. Bu dastgohlar katta partiyadagi quyosh panellarini ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan va shundagina ular iqtisodiy samara beradi.

Kichik yoki o'rta partiyadagi quyosh panellarini ishlab chiqarish uchun barcha jarayonlarni bir dastgohda bajarishga imkon beruvchi kompyuterlashgan dastgohni loyihalashda komputerda sonli nazorat (KSN) (computer numerical control (CNC)) texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq [1]. Bu texnologiyadan foydalanishga quyidagi omillar sabab bo'ldi: birinchidan yuqori darajada avtomatlashtirish imkoniyati mavjudligi, ya'ni texnologik jarayonga operatorning aralashishi minimumga olib kelinadi va bu chiqish koeffitsiyentining o'ta yuqori bo'lishini ta'minlaydi; ikkinchidan, zaruriy texnologik jarayonlar yuqori aniqlikda, tez va qat'iy ketma-ketlikda bajarilishi ta'minlanadi, bir marta to'g'ri rostlangan dastgoh va uni boshqaruvchi kompyuter dasturi uzoq muddat sifat darajasi yuqori bo'lgan bir xil maxsulot berishi mumkin; uchinchidan, KSN texnologiyalariga asoslangan har qanday dastgohni zarur hollarda modenizasiya qilish, funktsionalligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Quyosh batareyalarini panellarga kompanovka qilishga mo'ljallangan KSN dastgohining tuzilmasi 1-rasmda keltirilgan. Dastgoh so'ri shaklidagi ish stolida YOX koordinatalar tekisligida harakatlanuvchi platforma va OX, OY, OZ o'qlar bo'yicha harakatlanuvchi, bir nechta funksiyalarni bajarishga imkon beruvchi kallakdan iboratdir. Bundan tashqari, ish stoli chetida fotoelementlar kassetasi joylashtiriladigan yuklash qismi ham mavjud. Dastgoh ish stoli o'lchamlari ishlab chiqarilishi mo'ljallanayotgan quyosh panelidan bir oz kattaroq bo'lishi yetarlidir (1200x1500 mm o'lcham tavsiya qilinadi). OX va OY o'qlar bo'yicha harakatlanish qadami aniqligi 0.1 mm, OZ o'q bo'yicha harakatlanish yo'li 200 mm va harakatlanish qadami aniqligi 0.1 mm bo'lishi yetarlidir. Ishchi kallak quyidagi funksiyalarni bajara olishi zarur:

- fotoelementlarni panel tagligiga kerakli ketma-ketlikda avtomatik joylashtirish;
- fotoelementlar tok kontaktlarini kerakli tartibda kavsharlash;
- fotoelementlarni germetizasiya qilish uchun maxsus shaffof germetik suyuqligini quyish;
- Germetizasiya suyuqligini qotirish (kristallanishi uchun) infraqizil nurlar bilan qizdirish.

Bu funksiyalarni bajarish uchun kallak pnevmatik so'rg'ich (fotoelementlarni tashish uchun), kavsharlash qurilmasi, germetizasiya suyuqligini quyish uchun qizdirgichli shpris hamda infraqizil (IQ) qizdirish paneli kabi elementlarga ega bo'lishi lozim.

KSN dastgohiga o'rnatilgan odimlovchi yuritgichlar maxsus drayverlar orqali, drayverlar esa kopyuterning chiziqli chop qilish terminali (CCT) (Line Print Terminal (LPT)) portiga ulashga mo'ljallangan kontroller orqali boshqariladi. Odimlovchi dvigatellarning odimlash tezligi va tezlanishi, odimlash masofasi, boshlang'ich koordinatalari faqat CCT portidan kelayotgan impulslarga bog'liq bo'ladi va dasturiy ta'minot bilan boshqariladi.

Qurilmaning iqtisodiy samaradorligi. Hozirgi paytda quyosh batareyalarini yig'ishga mo'ljallangan bunday turdagi dastgoh mavjudligi va ishlab chiqarilayotgani haqida ma'lumotlar mualliflarda mavjud emas. Shuning uchun boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan KSN dastgohlari bilan solishtirilganda tannarxi bir necha barobar arzon ekanligini ta'kidlash zarur [2]. Masalan 1200x1500 mm o'lchamdagi Xitoy va Yevropada ishlab chiqarilgan KSN dastgohlar tannarxi yetkazib berish xarajatlarini hisobga olmaganda 6000-16000 AQSh dollarni tashkil qiladi. Loyihalananayotgan mazkur dastgoh tannarxi 3-4 ming AQSh dollaridan oshmaydi hamda o'z narxini qoplash muddati vaqt bilan emas ishlab chiqargan mahsuloti bilan aniqlanganida, 200-300 ta quyosh panelini tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, quyosh batareyalarini kichik partiyalarni kichik korxonalarda ishlab chiqarish uchun KSN texnologiyalarga asoslangan dastgohlarni ishlab chiqish va yana ham takomillashtirish mumkin.

Adabiyotlar

1. Mike Lynch. The Key Concepts Of Computer Numerical Control. (перевод статьи www.ecnc.ru) 2012.
2. A. Geetha. Modelling a Computer Numerical Control Machine-2 Axis. Middle-East Journal of Scientific Research 20 (1): 62-64, 2014 ISSN 1990-9233. © IDOSI Publications, 2014
3. А. Фаренбрух, Р. Бьюб. Солнечные элементы. Теория и эксперимент. Москва, Энергоатомиздат, 1987.

УДК: 539.1.0743.621.039.58.

ZARAFSHON TOG‘ YON BAG‘IRLARIDA MOX, O‘T O‘SIMLIKLAR VA TUPROG‘IDA RADIONUKLIDLAR

**Sh.X.Xushmurodov, E.Bozorov, G.Ahmedova, Sh.Shodiyev,
S.Salimov, G.Hosilova, X.Ismoilov**

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu ishda Zarafshon tog‘ yon bag‘irlaridagi ekologik maydonlardan 2015-2016 yillarda olingan Mox, o‘t o‘simliklar, tuproq va granit namunalari Th²³², Ra²²⁶, K⁴⁰, Be⁷, Cs¹³⁷ radionuklidlar solishtirma aktivliklarini gamma-spektrometrik usulda aniqlash natijalari keltirilgan. Radionuklidlar miqdori na‘munaning xususiyatlariga, yil fasliga, maydon xarakteristikalariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Radionuklidlar, solishtirma aktivlik, Mox, gamma-spektrometr, Qoratepa, tuproq, eroziya.

Радионуклиды в лишайниках, растениях и почве отрогов Зерафшанского хребта

Аннотация. В работе приведены результаты исследований содержания естественных, Th²³², Ra²²⁶, K⁴⁰, техногенного Cs¹³⁷ и космогенного Be⁷ радионуклидов в природных объектах (почва, гранит, травяные растения, лишайник), отобранных с экологических площадок отрогов Зерафшанского хребта методом гамма-спектрометрии. Показана зависимость содержаний радионуклидов семейств Th²³², Ra²²⁶, K⁴⁰, Be⁷, Cs¹³⁷ от особенностей объекта, сезона года и характеристики площадок отбора.

Ключевые слова: Радионуклиды, удельная активность, Мох, гамма-спектрометр, Каратепа, почва, эрозия.

Radionuclides in lichens, plants and soils of the Zarafshan ridge

Abstract. In work results of researches of maintenance of natural Th²³², Ra²²⁶, K⁴⁰, Cs¹³⁷, Be⁷ technogenic Cs¹³⁷ and kosmogenny Be⁷ radionuclid are given in the natural objects (the soil, facets, grass plants, a lichen) which are selected from ecological platforms of spurs of the Zarafshan ridge by methods of gamma spectroscopy. Dependence of contents of Th²³², Ra²²⁶, K⁴⁰, Cs¹³⁷, Be⁷ radionuclides families from features of an object, a season of year, and characteristics of platforms of selection is shown.

Keywords: radionuclids, gamma-spectrometer, specific activity, the soil, Moss, erosion, Karatepa.

Atrof-muhit radioktivligining asosiy manbai uran-toriy oilalarining radionuklidlari, K⁴⁰, kosmogen va yadroviy bo‘linishda hosil bo‘ladigan texnogen radionuklidlar hisoblanadi [1].

Tabiiy radionuklidlar Yer paydo bo‘lganidan beri Yer qobig‘ida mavjud bo‘lgan dastlabki elementlarga kiradi. Koinotdan atmosferaga kelayotgan yuqori energiyali (10¹⁰ev-10⁹ev) kosmik zarralar (neytronlar, protonlar) atmosfera havosi tarkibidagi azot, kislorod va boshqa gazlar atomlari yadrolari bilan reaksiyaga kirishib havoda nisbatan yengil C¹⁴, Be⁷, H³, P³², P³³ va boshqa radionuklidlarni hosil qiladi. Bunday radionuklidlar kosmogen radionuklidlar deyiladi. Texnogen radionuklidlar ayrim mamlakatlarda o‘tkazilgan yadroviy sinovlar, yadroviy qurilmalarda bo‘ladigan avariya natijasida paydo bo‘ladi. Hozirgi vaqtda texnogen radionuklidlarning atrof-muhit na‘munalaridagi aktivligi asosan uzoq yashovchi radionuklidlar Cs¹³⁷ va Sr⁹⁰ tufaylidir. Bu radionuklidlar atmosferaning yuqori qatlamlarida hosil bo‘lib yer yuziga aerazollar shaklida

quruq(changlar) va ho'l tomchilar, shudringlar bilan birga tushadi. Umuman atrof-muhit namunalarning radioaktivligi namunani o'zining biologik xususiyatlariga, hududning geografik xarakteristikalariga, antropogen ta'sirlar darajasiga bog'liqdir. [2]


Ushbu ishda Zarafshon tog'lari yon bag'irlaridagi ekologik maydonlardan 2015-2016 yillarda olingan Mox, o't o'simliklar, tuproq va granit namunalari Th^{232} , Ra^{226} , K^{40} , Be^7 , Cs^{137} radionuklidlar solishtirma aktivliklarini gamma-spektrometrik usulda aniqlash natijalari keltirilgan.

Namunalarni tayyorlash va o'lchash usuli: O'lchanadigan namunalar Zarafshon tog'larining janubiy-g'arbiy qismi bo'lgan Qoratepa va Chakil kalian (Dengiz sathidan 1690 m balandlikda) tog'lari yon bag'irlaridan olindi.

Olingan namunalar xona haroratida quritildi, chet jinslardan tozalandi va bir litrlik Marinelli idishlarga to'ldirildi. Mox namunalari taqriban yuqori va pastki qatlamlarga ajratildi. Moxning yuqori qatlamining massasi 155-185 g, pastki qatlamining massasi 390-700 g, o't o'simliklar massasi 800-1200 g, tuproq massasi 1200-1400 g, oraliqda o'zgaradi.

Namunalarning gamma-spektirlarini o'lchashlar o'lchami 63x63 mm bo'lgan NaJ(Tl) ssintillatsion detektorli gamma-spektrometrdan amalga oshirildi.

Gamma-spektrometr effektivlik bo'yicha OMASN to'plamidagi Th^{232} , Ra^{226} , K^{40} , Be^7 , Cs^{137} etalon radionuklidlar yordamida darajalangan, darajalash aniqligi 7%. Har bir namunaning gamma-spektrini o'lchash vaqti 6 soat. Namunalar aktivligi o'lchangan spektrlarni ketma-ket alohida tashkil etuvchilarga ajratish orqali aniqlandi. Spektrni bunday ajratilishi 1-rasmدا keltirilgan.



1-rasm. Moxning gamma-spektrini ketma-ket tashkil etuvchilarga ajratish: L-Mox namunasining spektri; F-fon spektri; namuna spektrida tegishlacha E_{Th} , E_{Ra} , E_{K} , E_{Cs} , Th^{232} , Ra^{226} , K^{40} va Cs^{137} ; L_1 -spektr ketma-ket ajratilgandan so'ng mox namunasining spektri; Be^7 - mox namunasidagi Be^7 ning qoldiq spektri.

Namunalar aktivlikni aniqlashning xatosi $\delta(A) \sim 2-10\%$ ni tashkil qildi. Tuproqning pastki qatlamlarida Cs^{137} ning aktivligini aniqlashda xatolik $\sim 30\%$ gacha yetdi.

O'lchash natijalari. Yer qobig'i paydo bo'lishi tarixidan kutilganidek, magmatik tog' jinslariga tegishli bo'lgan granit namunalarida tabiiy radioaktiv radionuklidlar miqdori boshqa namunalar turlaridagi miqdoridan yuqori. (1-jadval)

Mox o'simligi namunalarining pastki qatlamida tabiiy radionuklidlar miqdori yuqori qatlamdagiga nisbatan katta. Bunday hol moxning o'sish tezligi bilan (0,1mm/yil dan kichik) va paski qatlamda granit zarralari qoldiqlari qolgani bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O't o'simliklarda Th^{232} ga nisbatan Ra^{226} va K^{40} ning katta miqdorda aniqlanishini ularning birikmalarining Th^{232} birikmalariga qaraganda suvda yaxshi eruvchanligi bilan tushuntirish mumkin. [1] Tuproqning o'simliklar tomirigacha bo'lgan $x \leq 6$ sm yuqori qatlamida radiy va kaliy miqdorining kichikligini ham shunday tushuntirish mumkin (2-rasm)

O't o'simligi namunalarida K^{40} miqdori Moxdagiga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Bunday farq o't o'simliklari va


Moxning vegetatsiya sharoitlarining har-xilligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tabiat namunalarida kosmogen va texnogen radionuklidlarning miqdori ularning atmosferadagi miqdori bilan, yemirilish jarayonlari, yomg'ir, qor, shudring yoki quruq changlar orqali ko'chishi jarayonlari bilan aniqlanadi. Cs^{137} ning tuproqdagi migratsiya chuqurligi va miqdori maydonning lanshaft xarakteristikalariga, shamol va suvlar ta'siridagi eroziyasiga, sedimentatsiyasi va antropogen ta'sirlarga bog'liq ravishda 5-25 sm chuqurlikda $3,6 \text{ kB/m}^2$ atrofida o'zgaradi.


Eroziya jarayonlari kuchli bo'lgan maydonlar tuproqlari namunalarida Cs^{137} ning chuqurlik bo'yicha tarqalishining maksimumi ustki qatlamga to'g'ri keladi, eroziya kuchli bo'lmagan maydonlarda esa pastki qatlamlarga siljiydi. (3- Rasm)

1-Jadval. Tekshirilgan namunalarda aniqlangan tabiiy radionuklidlarning o'rtacha solishtirma aktivliklari. Bk/kg

Radionuklid	Granit	Mox, qatlamlar		Tuproq	O'simlik
		Pastki qatlam	Yuqori qatlam		
^{232}Th	67	52	31	43	27
^{226}Ra	47	38	32	33	37
^{40}K	1100	630	300	620	780



2-Rasm. Tuproq namunasi qatlamlarida Th^{232} (1), Ra^{226} (2), va K^{40} (3) radionuklidlarining vertikal taqsimlanishi.



3-Rasm. Kuchsiz eroziyalangan (1), Eroziyaga uchragan(2) va Sedimentatsiya (3) tuproqda Cs^{137} ning vertikal taqsimlanishi.

2-Jadval. Quruq faslning boshida va oxirida tuproq qatlamida Be^7 ning o'rtacha miqdori, Bk/kg.

Yil	Quyosh aktivligi indeksi, 100/w	Ho'1 yog'inlar, mm/yil	Q, Bk/m ²			
			Aprel-may		Sentyabr-oktyabr	
			Mox	Tuproq qatlami	Mox	Tuproq qatlami
2015	1,6	364	0,2	0,18	0,1	0,05
2016	1,31	216	0,22	0,24	0,12	0,06

Adabiyotlar

1. Н. А. Титаева. Ядерная геохимия, Издательство Московского Университета, 586 с, 2000 г.
2. A.N.Azimov, Sh.Kh.Hushmuradov, I.T.Muminov, T.M.Muminov, B.S. Osmanov, A.N.Safarov, A.A.Safarov. Gamma-spectrometric determination of natural radionuclides and ¹³⁷Cs concentrations in environmental samples. The improved scintillation technique, J. Radiation Measurements V. 43, No 1, San Francisco, USA, 2008.

UDK: 539.16.04

РАДИОНУКЛИДЫ В ПОЧВАХ ЮГО-ЗАПАДНЫХ ОТРОГОВ ЗАРАФШАНСКОГО ХРЕБТА

А. Азимов¹, О.Б.Маматкулов¹, И. Т. Муминов², С. Салимов¹,
К. Умаров¹, Ш.Х.Хушмуродов¹, А. Т. Худайбердиев²

¹ - Самаркандский государственный университет

² - Национальный университет Республики Узбекистан

Аннотация. Методами γ - спектрометрии исследована радиоактивность почв горной гряды юго-западных отрогов Зарафшанского хребта.

Ключевые слова: космогенный, Зарафшанский хребет, перевал Тахта-Карача, уран-торевый, сосуд Маринелли.

Janubiy g'arbiy Zarafshon tizma tog' tarmog'ining tuproq tarkibidagi radionuklidlar miqdori

Annatsiya. Gamma-spektrometrik usul yordamida janubiy-g'arbiy Zarafshon tog' tizmasining adirlilik va tog' yon bag'lari tuproq tarkibidagi radionuklidlar miqdori tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: kosmogen, Zarafshon tizmasi, Taxta-Karacha dovoni, uran-toriy, γ -spektrometr, Marinelli idishi.

Radionuclides in the soils of the south-western spurs of the Zarafshan range

Annotation. The γ -spectrometry metod has been used to investigate the soil radioactivity of the mountain range of the southwestern spurs of the Zarafshan Range.

Keywords: cosmogenic, Zarafshan Range, The Takhta-Karacha Pass, Uranium-thorium, γ -spectrometers, Marinelli vessel.

Введение

Радиоактивность почв обусловлена естественными долгоживущими радионуклидами, образовавшимися одновременно с формированием Земли, и их дочерними нуклидами (превалирующий вклад вносят радионуклиды урано-ториевых семейств и ⁴⁰K). Радиоактивность верхних слоёв почв обусловлена и выпадающими из атмосферы космогенными (свыше 60) и техногенными (свыше 200) радионуклидами.

Космогенные радионуклиды образуются в верхних слоях атмосферы в реакции расщепления ядер воздуха (Н, О, Аг ...) высокоэнергетической составляющей космического излучения и вместе с мокрыми и сухими осадками выпадают на поверхность Земли.

Наиболее удобным для γ -спектрометрических исследований является ⁷Be T_{0,5}= 54дня, E γ = 478кэВ.

Глобальное загрязнение поверхности Земли техногенными радионуклидами началось с первыми надземными испытаниями ядерного оружия в 1945г. Наибольшей интенсивности эти испытания достигли в 1963г. В конце 70-х годов ядерными державами был подписан договор о запрещении испытаний ядерного оружия, глобальные выпадения техногенных радионуклидов стали уменьшаться, и в настоящее время глобальное выпадение техногенных радионуклидов незначительны и техногенное загрязнение поверхности Земли обусловлено самыми долгоживущими ($T=30$ лет) продуктами ядерного деления ^{137}Cs и ^{90}Sr . Содержание в окружающей среде ^{137}Cs определяется методами γ -спектрометрии ($E_{\gamma} = 661\text{кэВ}$), а ^{90}Sr (чистый β -распадчик) - β -спектрометрии. Выпавшие радионуклиды сорбируются частицами почвы и вместе с ними участвуют в почвенных процессах. В последние десятилетия выпавшие радионуклиды все шире используются как индикаторы почвенных процессов.

В настоящей работе γ -спектрометрическим методом исследованы активности естественных радионуклидов урано-ториевых семейств, ^{40}K , космогенного ^7Be и техногенного ^{137}Cs в почвах и воде одного участка горной гряды в юго-западных отрогах Зарафшанского хребта. В отличие от подобных предыдущих наших исследований [1, 2] в данной работе рассматриваются особенности распределения выпадающих радионуклидов в почвах горной местности в зависимости от состояния их поверхности.

1. Исследованные площадки

Исследованный участок местности выбран на восточном склоне вытянутой в меридианном направлении горной гряды Юго-западных отрогов Зарафшанского хребта, подножие которого примыкает к автодороге Самарканд-Китаб, вблизи от перевала Тахта-Карача (Рис. 1).

Участок ограничен координатами $39^{\circ}17'45.9''$ - $39^{\circ}17'45.1''$ - с.ш., $0.66^{\circ}54'24.1''$ - $0.66^{\circ}54'33.7''$ - в.д., перепад высот 1696 - 1644 метр над уровнем моря. Северная и южная части склона задернованы, центральная часть лишена растительности в результате схода оползня толщиной свыше 6 м., произошедшего в середине 90-х годов и обнажившего часть подземного ручья на высоте-1680 м, русло которого параллельно гребню гряды.

Пробные площадки выбраны в широтном направлении на гребне, склонах и подошве в южной, северной и центральной частях участка. Вода отобрана из открытой части ручья.



Рис. 1 Исследованный участок местности центральная часть

2 Методика отбора и изготовления проб

Процедура отбора образцов почвы и изготовления из них проб сводилась к следующему:
- с площадок:
- с площади $1 \times 1 \text{ м}^2$ срезался растительный покров с - 1мм слоем почвы (^7Be содержатся только в тонком поверхностном слое);

- с площади 0.2x0.4 м² последовательно срезались слои почвы на глубинах Δх = 0 – 2; 2 – 5; 5 – 10; 10 – 15; 15 – 25; 25 – 35 см;
- отобранные пробы доводились до воздушно сухого состояния;
- измельчались;
- тщательно перемешивались;
- методам квартования (конверта) отбирались количества почвы, необходимые для заполнения однолитровых сосудов Маринелли;
- заполненные сосуды герметически закрывались крышками;
- взвешивались;
- маркировались.

Отбор воды осуществлялся непосредственно в сосуд Маринелли по методике [3].

3. Методы измерений и обработка γ –спектров проб.

Измерения спектров проб проведены на γ –спектрометре со сцинтилляционным детектором NaI(Tl), 67x67мм, энергетическое разрешение 9% на линии 1332 кэВ ⁶⁰Со, минимально детектируемая активность ¹³⁷Cs - А_{мин} ~ 3Бк при длительности измерения t=2час. Обработка спектров проведена по методике [4].




Рис. 2 - экспериментальные V₀ и V₁, разностные V(Rn) = V₀-V₁, F_V = 2V₁-V₂, V(Σ₀) = V₁-F_V, нормированные V(Th) = b_{VTh}E(Th), V(Ra) = b_{VRa}E(Ra) и V(K) = b_{VK}E(K), и остаточный V(Σ_t) = V(Σ₀)-V(Th)-V(Ra)-V(K) спектры для проб воды.




Рис. 3 Экспериментальный P, разностный P(Σ₀) = P-F_V, нормированные P(Ra) = b_{PRa}E(Ra), P(Th) = b_{PTh}E(Th), P(K) = b_{PK}E(K), P(Cs) = b_{PCs}E(Cs) и остаточный P(Σ_t) = P(Σ₀)-P(Ra)-P(Th)-P(K)-P(Cs) спектры для пробы p(0-0,3 см) почвы; M(Be) спектр месячных выпадений ⁷Be.

Использовались эталонные источники ²²⁶Ra, ²³²Th, ⁴⁰K, ¹³⁷Cs из комплекта ОМАСН (образцовые меры активности специального назначения) объемом 1л и плотностями ρ≈1кг/л. В качестве инертной пробы, для установления фонового вклада в спектрах проб использовалась

дистиллированная вода. На рисунках 2 и 3 приведены примеры спектров проб воды и почвы и их разложение на составляющие фона ^{226}Ra , ^{232}Th , ^{40}K , ^{137}Cs , ^7Be .

По активностям ^7Be и ^{137}Cs в слоях почв установлены их запасы на исследованных площадках.

$$Q = \sum A_x \rho, \text{ где } \rho \text{ плотность почвы в слое } (\rho_x = 1.35 \text{ кг/л}).$$

Запасы космогенного радионуклида ^7Be ($T_{0.5} = 54$ дня) на площадках определялась по интенсивности I_γ пика полного поглощения γ – лучей 478 кэВ ^7Be .

$$Q = I_\gamma / a_\gamma \varepsilon_\gamma S t,$$

Где a_γ и ε_γ – квантовый выход и эффективность регистрации γ – лучей 478 кэВ ^7Be , $S = 1 \text{ м}^2$ – площадь поверхности пробы, t – длительность измерения.

Активность ^{222}Rn в пробах воды устанавливалась сопоставлением разности спектров исследуемой и инертной проб и эталонных источников ^{226}Ra (отличаются отсутствием в спектре ^{222}Rn линии 186 кэВ ^{226}Ra).

4. Результаты исследований и их обсуждение.

Рассмотрение профилей вертикальных распределений ^{137}Cs и глубин его миграции (Рис. 4) позволяет заключить, что в почвах:

- Гребня преобладают естественные процессы диффузии, максимумы распределений ^{137}Cs смещены в глубинные слои, что связано с медленным таянием их снежного покрова (удерживается до начала апреля) и таяния летом.
- Северного и южного участков склона преобладают процессы эрозии – снежный покров тает много раньше, чем на гребне. Интенсивное стекание талых и дождевых вод смывает верхние слои почвы, поэтому максимумы распределений находятся в поверхностном слое и глубина миграции и запасы ^{137}Cs в них меньше, чем на гребне.
- Подножья северной и южной частей склона отчетливо проявляются процессы седиментации, обусловленных скоплением на них стекающих со склонов вод, содержащих ^{137}Cs . В связи с этим глубина миграции (из-за высокой влажности) и его запасы сильно возрастают.

Что касается центральной части участка, то содержания в почвах ^{137}Cs ниже уровня минимально детектируемой активности, т.к. верхние слои почвы (содержащие ^{137}Cs) сошли с их поверхности в результате оползня.

Отметим, что основное количество техногенного ^{137}Cs выпало в 60-х годах XX века и в 90-х годах его активность в атмосферных выпадениях упала на порядки.




Рис. 4 Профили вертикального распределения техногенного радионуклида в почвах гребня, склона и подножья горной гряды (----- следовые содержания ^{137}Cs)




Рис. 5. Профили вертикального распределения естественных радионуклидов ^{232}Th , ^{226}Ra , ^{40}K в почвах.

Запасы постоянно выпадающего космогенного радионуклида ^7Be на рассматриваемых площадках коррелируют с запасами ^{137}Cs . При этом низкие значения запасов ^7Be в центральной оползневой части участка обусловлены практическим отсутствием на них травяного покрова, удерживающего выпадающие радионуклиды. Содержания естественных радионуклидов ураноториевых семейств и ^{40}K в слоях почв исследуемых площадок флуктуируют в пределах: 33-54 Бк/кг - ^{232}Th ; 27-53 Бк/кг - ^{226}Ra ; 413-750 Бк/кг - ^{40}K . (Рис. 5)

При этом на многих задернованных площадках прослеживается обеднение радионуклидами верхних слоёв почвы (рис. 4), которое можно объяснить их поглощением корневыми системами растений. Содержание ^{222}Rn - $A_{\text{Rn}}=73\text{Бк/л}$ несколько выше предельно допустимых его концентраций ($A_{\text{пр}}=60\text{ Бк/кг}$) в питьевых водах и характерно для многих родников [5].

Таблица 1. Запасы ^{137}Cs и ^7Be в почвах исследуемых площадок

площадка	Н, м. над у.м.	$^{137}\text{Cs}/^7\text{Be}$ А, кБк/м ²		
		Южный	Северный	Центральный
гребень	1696	0,41/0.11	0,37/0.12	<0.09/0.10
склон	1672-1680	0,30/0.10	0,28/0.10	<0.09/0.06
склон	1661-1665	0,27/0.11	0,31/0.11	<0.09/0.06
подошва	1642-1642	<0,64/0.15	<0,59/0.17	<0.11/0.07

Таким образом, результаты исследований показали возможности использования выпадающих радионуклидов в качестве индикаторов не только процессов эрозии и седиментации почв, но и процессов схода оползней.

Экспериментальные погрешности определения запасов ^{137}Cs и ^7Be почвах - $\partial Q \approx 15-20\%$.

Литература

1. Kh. Inoyatov, I. T. Muminov, A. K. Mukhamedov, D. Sh. Rashidova, B. S. Osmanov, A. Safarov, A. N. Safarov, Sh. Kh. Khushmurodov //Radionuclides in the environment of Nuratau// Journal of Radioanalytical and Nuclear Chemistry, 2007, Vol. 273, No.2, pp. 497-506.
2. Tolib Muminov, Muhtor Nasyrov, R.Scott Van Pelt, Akmal A. Safarov, Amrididin V. Halikulov, and Shaymon X. Hushmuradov. Radionuclides in soils along a mountain—Basin

transect in the Koratepa Mountains of Uzbekistan. //Journal of Soil and Water Conservation. 2010. 65(5): 117A-121A.

3. Инструкция для персонала по отбору проб из водных объектов и изготовлению счетных образцов. ООО НТЦ "РАДЭК", Санкт-Петербург, Россия, 2005 г.
4. A.N.Azimov, Sh.Kh.Hushmuradov, I.T.Muminov, T.M.Muminov, B.S.Osmanov, A.N.Safarov, A.A.Safarov. // Gamma-spectrometric determination of natural radionuclides and ¹³⁷Cs concentrations in environmental samples. The improved scintillation technique // Radiation measurements, v. 43 (2008), pp. 66 – 71.
5. Азимов А.Н., Сафаров А.А., Сафаров А.Н., Иноятов А. Х., Муминов И.Т., Рашидова Д.Ш. // Радиоактивность природных вод Нурабадского района Самаркандской области // "Атомная энергия", т. 118, вып. 3, 2015, с. 175-177.

UDK 533.17

G'OVAK METALLAR OLISH: ERISHILGAN YUTUQLAR VA ISTIQBOLLAR

E. U. Arziqulov, S. X. Zoirov

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Ushbu maqolada g'ovak metallar olish texnologiyalari qiyosiy jihatdan batafsil qarab chiqilgan. Bundan tashqari g'ovak metallarning ishlatilish sohalari ko'rsatib o'tilgan. Havo-gaz aralashmasining tovushdan tez oqimidan foydalanib temirni eritish texnologiyasi sxemasi keltirilgan. Olingan g'ovak temirning turli sohalarda ishlatilishi istiqbollari qarab chiqilgan.

Kalit so'zlar. G'ovak metall, qattiq faza, g'ovak faza, govak polietilin, antifriksion, bronzali filtrlar, eletrolitik, karbonil, g'ovak titan, g'ovakli sovutish, "Hasanov soplosi".

Получение пористых металлов: достигнутые успехи и перспективы

Аннотация. В данной статье рассмотрено сравнительный анализ существующих технологий получения пористых металлов. Кроме этого обсуждены области практического применения пористых металлов. Приведено схема плавки железа с использованием сверхзвуковой струи смеси воздух-газ. Рассмотрено возможные области использование пористого железа.

Ключевые слова: пористый металл, твердая фаза, пористый полиэтилен, антифрикционная, бронзовый фильтры, электролиз, пористый титан, пористый охлаждающий сопло Хасанова.

Obtaining porous metals: the progress achieved and perspectives

Abstract. In this article comparative analysis of the existing technologies of obtaining porous metals is considered. Besides areas of practical application of porous metals are discussed. It is given the scheme of melting of iron with use of a supersonic jet of mix air-gas. Considered possible areas use of porous iron.

Keywords: porous metal, hard phase, porous polyethylene, antifriction, armor filters, electrolysis, porous titanium, porous coolant, Hasanova nozzle.

Fizik xossalari to'plami oldindan berilgan yangi materiallarni sintez qilish va ulardan foydalanish ularning turli tashqi ta'sirlar natijasida o'zlarini tutish mexanizmlarini tadqiq qilishni talab qiladi. O'zgaruvchan mexanik maydonlarda yangi materiallardan foydalanganda esa tizimga berilgan energiyaning material tarkibi va tuzilishga bog'liq ravishda dissipatsiyasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Keskin birjinslimas tuzilishi bilan xarakterlanadigan kompozitsion materallar holida tuzulma parametrlarining energiya isrofiga ta'siri o'ta murakkab va bugungi kungacha yetarlicha o'rganilmagan hisoblanadi [1-3].

Birjinslimas materiallarning maxsus sinfiga g'ovak metallar, bir yoki bir necha metallik faza va g'ovak fazadan iborat psevdoporishmalar kiradi. Bu materiallar konstruksiyalar uchun keng qo'llaniladi va shu tufayli ularning dempirlash xossalari maxsus talblar qo'yiladi [4-5]. G'ovak metall materiallar, fiziko-mexanik xossalari qiymati maksimal farq qiluvchi fazalardan tarkib topgan (qattiq faza va g'ovak faza), geterofaz tizimlarning chegaraviy holi sifatida qaraladigan birjinslimas materiallarning o'zini tutish qonuniyatlarini fizik tahlil qilish uchun alohida qiziqish tug'diradi [6-7]. Qattiq fazaning xossasi odatda kompakt materiallarning xarakteristikalarini bilan mos keladi deb

qaraladi [7], g'ovak muhitlarning xossalari esa g'ovaklar kattaligi hamda ular tuzilishining topologik o'ziga xosligi bilan aniqlanadi [8-10]. Bu esa g'ovak metall materallarni geterofaz tizimlarning fiziko-mexanik xossalarni o'rganishda qulay model obyekt sifatida qarash imkoniyatini beradi va bu o'z navbatida ularni ushbu loyiha tadqiqot obyekt sifatida tanlashni taqozo qildi.

G'ovak metallik materiallar butun dunyoda qadim davrlardan boshlab ma'lum. Ular texnika va tibbiyotning turli sohalarida keng qo'llanilish topgan. Keyingi 20 yil ichida kiritiluvchi konstruksiyalar inson organizmiga implantasiya qilish uchun travmatologiyada, ortopediyada, jarroxlilikda, stomatologiyada, urologiyada va tibbiyotning boshqa sohalarida keng qo'llanilmoqda. Bunda konstruksiyalarni tayyorlash uchun g'ovak tantal, titan, ular asosidagi qorshimalar, niyob, Co-Cr-Mo, sopol va boshqa turli tuman materiallardan foydalaniladi. G'ovak materiallarni g'ovak metallik, g'ovak nometallik, kombinatsiyalashgan va tabiiy g'ovak materiallarga bo'lish mumkin. G'ovak metall materiallarga o'z-o'zidan tarqaluvchi yuqori temperaturali sintez usuli (Самораспространяющийся высокотемпературный синтез (CBC) (ingizchasi: Self-propagating high temperature synthesis (SHS)) hamda pishirish yo'li bilan olingan turli xil tolali, to'rtli va kukunli materiallar kiradi. G'ovak nometall materiallarga esa g'ovak sopollarning katta sinfi, biochiqishuvchan shisha, g'ovak polimerlarning ko'plab turlari: g'ovak silikon rezina, gidrofil gellar, poliamid to'rtlar, polisulfon, yuqori zichlikli g'ovak polietilen va h.k. lar kiradi. G'ovak tabiiy materiallar sinfiga tabiatda mavjud bo'lgan gidroksiapatitni keltirish mumkin. Kombinatsiyalashgan g'ovak materiallar implantaning metall yoki boshqa asosiga turli tabiatli g'ovak materiallarni o'tqazish yo'li bilan olinadi.

Boshqa tomondan g'ovak materiallar guruhiga antifriksion friksion va antifriksion friksion materiallar, filtrlar va "terlovchi" deb ataladigan materiallar kiradi.

Ko'lab texnik qo'llanishlarda bronzali filtrlarda foydalanadi. Bronzali filtrlar zarrachalarning shakli sferasimon bo'lgan, suyuq metallni changitish yo'li bilan olingan kunlardan tayyorlanadi. Pishirish jarayoni 800 - 900 °S haroratda 30 minutdan 1 soatgacha davom etadi. Kukun zarralarining o'lchami 50 - 130 mkm bo'lgan bronzali filtrlar dag'al tozalash uchun, o'lchamlari 2 - 30 mkm bo'lganlarisanoz nozik tozalash uchun ishlatiladi.

Bronzali filtrlar sanoatda dizel va rektiv yuritgichlarning suyuq yonilg'isini, yog'lovchi materiallar va siqilgan gazlarni o'lchamlari 5-200 mkm bo'lgan qattiq aralashmalardan tozalash, hamda qo'shimchali kislot va ishqorlarni, erigan paraffinni va h.k.larni tozalash uchun keng qo'llaniladi.

Elektrolitik va karbonil nikel kukunlaridan presslash va keyinchalik 1000-1100 °C temperaturada pishirish orqali tayyorlanadigan g'ovak materiallar filtrlar va g'ovak elektrodlar sifatida ishlatilishgan mo'ljallagan. G'ovak elektrodlar elektrokimyo va katalizda keng qo'llaniladi. Elektrodleri yuqori g'ovaklikka ega bo'lgan nikeldan tarkib topgan ishqorli akkumulyatorlar oddiy akkumulyatorlarga qaraganda yengil va o'lchamlari kichik bo'ladi.

Zanglamaydigan po'latdan tayyorlagan filtrlar ham keng qo'llanilmoqda. Ular sezilarli zanglashga chidamlilikka ega va nikel asosidagi filtrlarga nisbatan ancha arzon. Bunday filtrlar tayyorlashda X17N2, X18N9, X30 va boshqa zanglamaydigan po'latning kukunlaridan foydalaniladi. Ular quyidagi texnologiya asosida tayyorlanadi. Dastlab presslash yoki dumalatish va keyinchalik 1200 - 1250 °C temperaturada 2 - 3 soat davomida pishirib tayyorlanadi. Zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan filtrlar suyuq metallni hamda issiq domen va marten gazlarini tozalashda yaxshi natijalarni ko'rsatdi. Olov tarqalashiga to'siq sifatida ular avtogen texnikasida, asetilen ishlab chiqarishda, metallarga gaz alangali ishlov berishda, past harortda qaynovchi va portlash havfi katta bo'lgan suyuqliklar rezervuarlarida qo'llanilmoqda. Samolyotlarning muzlab qolishiga qarshi kurashda g'ovak materiallarni qo'llash antifriz sarfini 50% ga qisqartiradi.

G'ovak titanning texnikaning turli sohalarida ishlatilishi uning qator qimmatli xossalari bilan bog'liq bo'lib ular ichida eng qimmatlisi ko'plab agressiv muhitlarda yuqori darajadagi korroziyaga chidamlilik va yuqori solishtirma mustahkamlik hisoblanadi. Titanli g'ovak materiallar zarrachalarining o'lchami 60 mkm dan kichik, to'ldiruvchiga ega bo'lgan kukunlardan hamda zarrachalarining o'lchami 1 mm dan kichik bo'lgan to'ldiruvchisiz kukunlardan olinadi. Bunday maxsulotlar maxsus atmosferada 950 - 1150° C temperaturada 1,5 - 2 soat davomida pishiriladi. G'ovak titan azot kislotasi va ishqor eritmalari ga chidamli va 5 mkm va undan kam tozalash darajasiga imkon beradi.

G'ovakli sovutish mashina va mexanizmlar yuqori temperaturali qismlarini sovutishning samarali usuli bo'lib hisoblanadi. Bug'latish orqali sovutish suyuqlikni majburiy ravishda g'ovakli muhit orqali o'tkazishni ko'zda tutadi. Bu holda g'ovak jismning sirtida ajraladigan issiqlik bug'latuvchi sovutgichli qurilma yordamida sochib yuboriladi va yutiladi. Bug'latish orqali sovutish xuddi shunday konvektiv yoki pardali tizimlarga qaraganda samaraliroq ekanligi aniqlangan. Soploli va turbinali parraklarni ishlatish ishchi gazining temperaturasi 840 °C dan 1200 °C gacha ko'tarishga va olinayotgan quvvatning 10% ga oshishiga olib keladi. Sirt temperaturasi nazorat qilishda g'ovak materiallarni qo'llash imkoniyati amaliy jihatdan chegaralanmagan. G'ovak metallardan yasalgan detallar mahalliy qizdirish shartini yaratishda va bir vaqtning o'zida ular mexanizmlarining mahalliy qizib ketishlarini sovutishda ishlatilishi mumkin.

Sanoatda turli apparat va qurilmalarda temperatura maydonini tenglashtirish imkonini beruvchi va u yoki bu materiallarga izotermik ishlov berish sharoitlarini yaratish uchun issiqlik quvurlarini ishlatish o'ta istiqbolli bo'lib hisoblanadi. Past temperaturali issiqlik quvurlarini elektr mashinalarida yuritgichlarning rotor, stator, generator va transformatorlarni sovutishda ishlatish ularning quvvatini 30 - 50% ga oshirish imkonini beradi. Yuqori voltli va katta quvvatli uzib ulagichlari sovutishda issiqlik quvurlari muvoffaqiyatli ishlatilmoqda.

Issiqlik quvurlari va bug' kameralari ananaviy issiqlik uzatish elementlariga nisbatan qator ustunliklarga ega. Masalan, sirkulyasion issiqlik almashgichlarga qaraganda ularda haratlanidigan qismlari yo'q, shovqinsiz, issiqlik tashigichni kondensasiya zonasidan bug'lanish zonasiga o'tkazish uchun energiya talab qilinmaydi, xuddi shunday geometrik parametrli metall sterjnlarga nisbatan kichik termik qarshilikka ega va ancha yengil.

Yuqorida sanab o'tilgan misollar g'ovak materiallarning texnikaning turli sohalarida juda keng darajada qo'llanilishini ko'rsatish uchun yetarli. G'ovak materiallar va maxsulotlarning qo'llanilishi mumkin bo'lgan barcha sohalarini olidindan ko'ra bilishning esa sira iloji yo'q. Biroq bir narsa aniq: g'ovak materiallarga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda.

Shu munosabat bilan ushbu maqolada g'ovak metallarni olishning mavjudlaridan prinsipial farq qiluvchi, dunyoda o'xshashi yo'q, yangi, arzon, gaz aralashmasining tovushdan tez oqimidan foydalanib olish texnologiyasi haqida gap boradi. Professor X. Xasanov tomonidan yaratilgan soplo yordamida g'ovak temir olish imkoniyati mavjud va bu g'ovak temir elektr xossalari bo'yicha yarimo'tkazgich. G'ovak temir olish uchun soplone kirishiga havo va metanning aralashmasi bosimlarining nisbati taxminan 10:1 qilib beriladi. Havo va metanning bosimlarining bunday nisbatini soplo kirishida hosil qilish soplone chiqishida tovushdan tez metan-havo aralashmasi oqimini vjudga keltiradi. Bu oqimni yoqish orqali metallik temirni eritish mumkin. (Oddiy metan-havo aralashmasi yordamida temirni eritib bo'lmaydi!). Bunga sabab prof. X. Xasanov tomonidan yaratilgan soploda mavjud mumtoz soplolardan farqli ravishda oqimning energetik ko'rastagichlarining yuqoriligidir. Xususan bu soplo hosil qilgan tovushdan tez oqimining energetik ko'satgichlari odatiy Lavalsoplosida hosil qilingan oqim energetik ko'rsatgichlaridan bir necha marta yuqori.

Quyida Xasanov soplosida hosil qilingan oqimning energetik balansining hisoblari mumtoz Laval soplosi bilan solishtirib keltirilgan [11].

$$(T=293 \text{ K}, S_1, S_2 = 2,01 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2, R = 0,4 \text{ MPa}, S_3 = 9,61 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2)$$

Q.s.	Asosiy parametr	Laval soplosi	Xasanov soplosi
1	Siljishda kinetik energiyaning yo'qolishi, %	14,8	3,84
2	Ejeksiya koeffitsiyenti	0,644	2,019
3	3-3 kesimdagi kinetik energiya, J	11,46	187,3
4	3-3 kesimdagi oqim tezligi	27,02	68,56
5	2-2 kesimdagi kinetik energiya, J	1,01	92,46
6	2-2 kesimdagi oqim tezligi	12,83	59,90

Xulosa qilib quyidagilarni aytish mumkin:

prof. Xasanov tomonidan yaratilgan soplone yangi nusxasini tayyorlandi, uning tovushdan tez oqimlar hosil qilish imkoniyatlarini o'rganildi va texnik-iqtisodiy ko'satgichlarni tekshirilib, oqimni yoqildi.

Temirni eritish jarayonida soplone kiruvchi metan-havo aralashmasining bosimlari nisbatini, soplone ish maromlari bilan olingan materialning g'ovaklik darajasi, g'ovaklarining o'lchamlari va

toplogiyasi o'rtasida korrelyasiya o'rnatildi, g'ovaklik darajasi, g'ovaklarining o'lchamlari va toplogiyasi turlicha bo'lgan g'ovak temir olish imkoniyatlarini aniqlandi. Olingan g'ovak temirning elektrik, issiqlik va galvanomagnit xossalari eksperimental tadqiq qilindi.

Adabiyotlar

1. Louis-Philippe Lefebvre, John Banhart, David C. Dunand // Porous Metals and Metallic Foams: Current Status and Recent Developments. *Advanced Engineering Materials*. 10(9), 775-787 (2008).
2. Белов С.В. Пористые металлы в машиностроении. М.: Машиностроение. - 1981. - 247с.
3. Панин В.Е. и др. Новые материалы и технологии. Конструирование новых материалов и упрочняющих технологий. Новосибирск: ВО «Наука». - 1993. - 152 с.
4. Витязь П.А., Капцевич В.М., Шелег В.К. Пористые порошковые материалы и изделия из них. Минск: Выш. шк. - 1987. - 164 с.
5. Тучинский Л. И. Композиционные материалы, получаемые методом пропитки. М.: Металлургия. - 1986. - 208 с.
6. Балынин М. Ю. Научные основы порошковой металлургии и металлургии волокна. М.: Металлургия. - 1972. - 336с.
7. Скороход В. В., Солонин С.М. Физико-металлургические основы спекания порошков. М.: Металлургия. - 1984. - 159 с.
8. П. Дульнев Г. Н., Новиков В.В. Процессы переноса в неоднородных средах. Л.: Энергоатомиздат. - 1991. - 248 с.
9. Шкловский Б. И., Эфрос А. Л. Теория протекания и проводимость сильно неоднородных сред. // Успехи физических наук. 1975. -т.117.- в.3. -с.401-435.
10. Эфрос А. Л. Физика и геометрия беспорядка. М.: Наука. - 1982. - 176с.
11. Х. Х. Хасанов. Энергетические параметры регулярно-взаимодействующих ударных волн. *Узбекский журнал проблемы механики*. №1. 2000 г.

UDK. 311.3:537.6:54.16

YUQORI TEMPERATURALARDA AMORF QOTISHMALARNING MAGNITLANISHI VA UNI O'LCHASH USULI

I. Subhonqulov, B. Amonov, G'. Bakaev, Sh. Xomitov
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Temperatura ta'sirida amorf qotishmalardagi tarkibiy o'zgarishlar hamda magnit o'tishlar to'g'risida to'liq ma'lumot olish uchun magnitlanishni temperaturaga bog'liqligi natijalaridan foydalanish mumkin. Magnitlanishni tashqi magnit maydoniga va temperaturaga bog'liqligini o'rganishni eng qulay usuli vibratsion magnitometr usuli hisoblanadi.

Ushbu ishda magnitlanishning tashqi magnit maydoni va temperaturaga bog'liqligini o'lchovchi qurilmaning tavsifi va temir guruhi elementlari asosidagi amorf qotishmaning magnitlanishini temperaturaga bog'liqligi natijasi va uning aomal Xoll koeffitsienti bilan aloqadorligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: amorf qotishma, elektr yurituvchi kuch, Xoll datchiki, induksion datchik, magnitlanish egri chizig'i, gisterezis halqasi, magnit momenti.

Намагниченность аморфных сплавов при высоких температурах и методика измерения намагниченности

Аннотация. Для получения информации о характере структурных и магнитных превращений в аморфных сплавах, исследуется температурная зависимость намагниченности. Для исследования намагниченности от температуры и внешнего магнитного поля удобным считается вибрационный метод измерения намагниченности.

В данной работе приводится описание установки для измерения намагниченности сплавов в зависимости от температуры и внешнего магнитного поля и температурной зависимости намагниченности аморфного сплава на основе металлов группы железа и их взаимосвязь с аномальным коэффициентом Холла.

Ключевые слово: аморфных сплавах, электродвижущего сила, датчик Холла, индукционный датчик, кривой намагниченность, петли гистерезиса, магнитный момент.

Magnetization of amorphous alloys at high temperatures and methods of measurement of magnetization

Abstract. To obtain information on the nature of structural and magnetic transformations in amorphous alloys, the temperature dependence of the magnetization is investigated. To investigate the magnetization in dependence on temperature and external magnetic field it is convenient to use a vibrational method for measuring the magnetization.

In this paper we describe an experimental set-up for measuring the magnetization of alloys as a function of temperature and external magnetic field and the temperature dependence of the magnetization of an amorphous alloy on the base of metals of the iron group and their relationship to the anomalous Hall coefficient.

Keywords: amorphous alloys, electrical move force, Hall detector, induction detector, magnetization curve, magnetic moment, loop of hysteresis.

Hozirgi vaqtda suyuq metallarni toblash orqali [1] olinadigan amorf ferromagnit qotishmalar xalq xo'jaligini turli sohalarida magnit material sifatida foydalanilmoqda. Ushbu amorf qotishmalarning talab etilgan fizik xususiyatlarga ega bo'lgan namunalarini xosil qilish hamda ulardan amaliy maqsadlarda foydalanish uchun ularning fizik hususiyatlari (ayniqsa magnit xossalari)ni hamda bu xususiyatlar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish talab etiladi.

Magnitlanishni o'lchashning tebranuvchi magnitometr usuli, o'lchovchi induktiv datchikda namunaning tebranishi natijasida hosil bo'luvchi EYuK ni o'lchashga asoslangan.

Amorf qotishmalarda termomagnit tahlil o'tkazish uchun magnit o'lchashlarning tebranuvchi magnitometr usuli juda qulaydir. Bunda o'lchash natijalari o'ziyozar ikki koordinatali potentsiometrda tayyor grafik shaklida hosil qilinadi.

Tebranuvchi magnitometr qurilmasining sxemasi 1-rasmda ko'rsatilgan. Elektromagnit qutblari oralig'ida ikkita induktiv datchik va Xoll datchigi o'rnatilgan bo'lib induktiv datchiklar oralig'ida elektr qizdiruvchi pech o'rnatilib unda titandan yasalgan ampulaga solingan namuna joylashadi. Ampula o'z navbatida sterjenga maxkamlangan bo'lib, bu sterjen tebratgichga maxkamlanadi. Elektromagnitning magnit maydon kuchlanganligi qutblar orasida joylashtirilgan Xoll datchigi yordamida o'lchanadi. Bu qurilma yordamida ferromagnit materiallarning quyidagi magnit xarakteriskalari olinadi - magnitlanish egri chizig'i, gisterezis halqasi, to'yinish magnitlanish I_s , qoldiq magnitlanish I_r , koersitiv kuch H_c . Namuna "f"- chastota va "h"- amplituda bo'yicha doimiy magnit maydonida tebranadi. Magnit maydoni manbai sifatida FL-1 tipidagi elektromagnit ishlatiladi. Tebratgich chastotasi va amplitudasi tebratgichga ulangan tovush generatori (GZ-56) orqali hosil qilinadi.


Tashqi maydon o'zgarishi bilan tebranuvchi namunaning magnit momenti o'zgaradi. Bu o'z navbatida o'lchovchi g'altaklarda namunaning magnit momentiga proporsional bo'lgan induksion EYuK ni hosil qiladi. Bu signal U-2-6 yoki U-2-8 tipidagi kuchaytirgich bilan kuchaytiriladi va o'ziyozar ikki koordinatali potentsiometrning "Y" o'qiga beriladi. Shu potentsiometrning "X" o'qiga Xoll datchigidan kelayotgan magnit maydon kuchlanganligiga proporsional bo'lgan Xoll EYuK signali beriladi. Shunday qilinganda ikki koordinatali o'ziyozar potentsiometrda keltirilgan masshtabda magnitlanishning tashqi magnit maydoniga bog'lanish grafigi hosil qilinadi.

To'yinish magnitlanishning qiymati $T=300$ K da $\sigma_s = 54,6$ Gs sm^3 bo'lgan etalon nikelga nisbatan solishtirilib bilib olinadi. Buning uchun bir xil sharoitda etalon va o'lchanishi kerak bo'lgan namunadagi signallar solishtiriladi.

Tebranuvchi magnitometrda namunaning magnit momenti o'lchanib, undan magnitlanish I_s xisoblab topiladi.

$$M_{et} [Gs \cdot sm^3] = \frac{P_{et}}{\rho_{et}} I_{et} = V_{et} I_{et} \quad (1)$$

bunda; $M_{et} [Gs \cdot sm^3]$ - etaloning magnit momenti, P , [g] - og'irlik, ρ , [g/sm] - zichlik, V , [sm^3] - hajm, I , [Gs] - magnitlanish.



1-rasm. Magnitlanishni o'lchovchi tebranuvchi magnetometr qurilmasining sxemasi. 1-tebratgich, 2-sterjen, 3-elektr isitish pechi, 4-namuna solingan ampula, 5-termopara, 6-Xoll datchigi, 7-induktiv datchigi, 8- elektromagnit.

O'lchanayotgan namunaning magnet momenti M_x etalonga nisbatan quyidagi formula bilan xisoblanadi:

$$M_x = M_{et} \frac{\alpha_x}{\alpha_{et}} \quad (2)$$

bunda α_x va α_{et} - mos ravishda magnetometrda namuna va etalon quyilganda hosil bo'luvchi EYuK ning eng katta amplitudaviy qiymati, ya'ni potentsiometrning "Y" o'qi bo'yicha eng katta siljishi $k = \frac{M_{et}}{\alpha_{et}}$ qurilmaning sezgirligi bo'lib, $M_x = k\alpha_x$ ga teng bo'ladi. O'lchanayotgan namunaning magnetlanishi quyidagi tarzda hisoblanadi.

$$I_x = \frac{M_x}{V_x} = \frac{\alpha_x}{V_x} k \quad (3)$$

yoki

$$I_x = I_{et} \frac{\alpha_x}{\alpha_{et}} \frac{V_{et}}{V_x}, \quad (4)$$

bu erda I_{et} - etalonning magnetlanishi.

Odatda graduirovka uchun $I_{set} = \sigma_s \rho_{et}$ nikelning qiymati olinadi. Etalonning o'lchamlari namunaning o'lchamlariga teng qilib olinadi. Magnet maydonini bir tekis oshirib borib Xoll datchigidagi EYuKni oshirishga qarab magnet maydonni qiymati hisoblanadi. Shunday qilib, potentsiometrdan olingan grafikdan $I_x(N)$ bog'lanishning grafigi hosil qilinadi.

Agar magnet maydonini teskari yo'nalishda oshirish imkoni bo'lsa o'lchanayotgan namuna uchun gisterezis xalqasini ham hosil qilish mumkin. Bundan qoldiq magnetlanish I_r va koersitiv kuch H_s hisoblanadi.


Magnetlanishning temperaturaga bog'liqligi $I_x(T)$ ni olish uchun namuna elektropech ichiga joylashtiriladi va magnet maydonini oshirib I_s to'yinishgacha yetkazdiriladi va temperatura oshirilib boriladi. Temperaturaning o'zgarishi pech ichiga joylashtirilgan "xromel-alyumel" termoparasining termo-EYuK ga qarab xisoblanadi.

Agar o'ziyozar ikki koordinatali potentsiometrning "Y" o'qiga o'lchovchi g'altakdan keluvchi EYuK berilsa, "X" o'qiga esa pech ichiga joylashtirilgan termopara ulansa uzluksiz $I_x(T)$ ni grafigini hosil qilish mumkin.


Kristallanish bosqichi va oraliq fazalarni hosil bo'lishi namunani qizdirib va sovutib termomagnet taxlil qilish orqali kuzatiladi. Termomagnet taxlil vaqtida amorf va kiristall xolatni Kyuri nuqtalarini aniqlash mumkin.

2-rasmda $Co_{84.35}Fe_{5.8}Si_{7.4}B_{2.45}$ qotishmaning amorf va kristall holatda $R_S(T)$ Xoll koeffitsienti va $I_S(T)$ magnitlanishining temperaturaga bog'liqligi natijalari keltirilgan.

Rasmdan ko'rinadiki, amorf holatda R_S ning absolyut qiymati kristall holatdagidan katta bo'ladi, R_N ning temperatura bo'yicha o'zgarish tezligi $\partial R_H/\partial T$ kristall holatda amorf holatdagidan katta bo'ladi.



2 – rasm. $Co_{84.35}Fe_{5.8}Si_{7.4}B_{2.45}$ qotishmaning Xoll koeffitsienti (yuqoridagi rasm) va magnitlanishi (pastki rasm) ni temperaturaga bog'liqligi.



3 – rasm. $Co_{84.35}Fe_{5.8}Si_{7.4}B_{2.45}$ amorf qotishma uchun anomal Xoll koeffitsienti R_S ning magnitlanishning kvadrati - I_S^2 o'rtasidagi aloqadorlik (●●●) amorf holatda (○○○) kristall holatda.

Amorf holatdan kristall holatga o'tish jarayoni murakkab kechadi, ya'ni 700 K gacha R_N chiziqli parabolik qonun asosida oshib borib, keyin nolgacha kamayadi. Shu qiymat amorf holatning Kyuri nuqtasini xarakterlaydi. Temperaturaning keyingi oshishida R_N yana oshib (kristallanish tufayli), yana nol qiymatgacha kamayadi. Bu temperatura kristall holatning Kyuri nuqtasini ko'rsatadi. Magnitlanishning temperaturaga bog'liqligi Xoll effektini natijalari bilan korrelyasiyalashadi.

Adabiyotlarda [2, 3] ko'rsatilganki, anomal Xoll koeffitsienti elektronlarni spin to'liqlarida va fononlarda sochilishi tufayli namoyon bo'ladi. Shuning uchn R_N ni temperaturaga bog'liq egri chizig'i bilan $I_S(T)$ ning kvadrati solishtirilganda ular o'rtasida chiziqli bog'lanish borligi kuzatiladiki, bu bog'lanish quyidagi 3 – rasmda keltirilgan.

R_S va I_S o'rtasidagi aloqadorlikni quyidagi tenglama orqali ifodalash mumkin:

$$\Delta R_S = R_S(T) - R_S(T_N) = \alpha [I_S^2(T_N) - I_S^2(T)] \quad (5)$$

$I_S(T)$ va $R_S(T) - T < T_C$ temperatura intervalidagi magnitlanish va Xoll koeffitsienti bo'lsa $I_S(T_N)$ va $R_S(T_N)$ – xona temperaturasidagi ularning qiymati.

Xulosa. Amorf va kristall holatda R_S va I_S o'rtasida chiziqli bog'lanish bo'lib, 5 – tenglamani qanoatlantiruvchi α - koeffitsient kristall holatda amorf holatdagidan katta bo'ladi. Ushbu fakt amorf holatda kinetik xususiyatlarning namoyon bo'lishida fononlarning ulushi kam degan xulosaga olib keladi.

Amorf qotishmalarda koersitiv kuchning kichik va magnit sindiruvchilikning katta bo'lishi ularning kristall analogiyasiga nisbatdan ustunligini ko'rsatib ulardan magnitoyumshoq material sifatida foydalanish imkoniyatini beradiki, bunda ulardan transformatorlarni o'zagi va elektron asboblarning elementi sifatida foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. Золотухин И.В. Аморфные металлические материалы. Соревский образовательный журнал. Физика, №4, 1997, с.73-78.
2. Судзуки К., Фудзимори Х., Хасимото К. Аморфные металлы. Москва. «Металлургия». 1987.
3. Кудрин А. В. Гальваномагнитные свойства ферромагнитных наноструктур. ННГУ, 2010.

UDK. 544.77

FeCl₃ MAGNIT SUYUQLIGI YOPISHQOQLIK KOEFFITSIYENTINING TEMPERATURAGA BOG'LIQLIGI

O. Q. Quvondiqov, U. E. Nurimov, X. A. Qayumov, SH. B. Mamatqulov
Samarqand davlat universiteti

Annototsiya. Tarkibida 3d-metall bo'lgan, FeCl₃ magnit suyuqlikning yopishqoqlik koeffitsiyentining temperaturaga bog'liqligi o'rganildi. Magnit suyuqligi molekulasining faollashish energiyasi aniqlandi

Kalit so'zlar: 3d-metall, magnit suyuqlik, kapillyar, vikoziometr, aktivlanish energiyasi, Puazeyl, kinematik yopishqoqlik, Frenkel-Andrade formulasi.

Температурная зависимость коэффициента вязкости жидкого магнетика FeCl₃

Аннотация. Изучена температурная зависимость коэффициента вязкости жидкого магнетика FeCl₃ содержащий 3d-металл. Определены энергия активации молекулы жидкого магнетика.


Ключевые слова: 3d-металл, магнитная жидкость, капиллярность, вискозиметр, энергия активации, Пуазейль, кинематическая вязкость, формула Френкель-Андрэде.

Temperature dependence of coefficient viscosity of FeCl₃ liquid magnetic

Annotation. Temperature dependence of coefficient viscosity of liquid magnetic FeCl₃ containing 3d-metall are studied. Are defined activation energy of molecule of liquid magnetic.

Keywords: Magnetic flui., Capillarity, 3d-metal, viscometer, activation energy, Poiseuille, kinematical viscosity, Frenkel-Andrade formule.

Magnit suyuqliklarning fizik xossalarini, shu jumladan magnit xossalarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ularning elektron tuzilishining o'ziga xosligi va amalyotda keng qo'llanilishi bilan ham bevosita bog'liqdir. Bu magnit suyuqliklar tarkibida 3d-qobiq elektronlari kechikib to'ladigan temir guruhi metallarining mavjud bo'lishi, ularning kinetik, magnit va boshqa fizikaviy va ximiyaviy xossalarining o'ziga xosligiga sabab bo'ladi. Bu xossalarni o'rganish bevosita magnit suyuqliklarning amaliy ahamiyati bilan bog'liq [1]. Chunki bugungi kunda magnit suyuqliklardan sanoatda, mashinasozlikda, tibbiyotda va boshqa ko'plab sohalarda qo'llanilib kelinmoqda. Shu maqsadda mazkur maqolada tarkibida 3d-metallari bo'lgan, FeCl₃ magnit suyuqlikning yopishqoqlik



1-rasm. Viskoziometrning prinsipial sxemasi

koefitsientini temperaturaga bog'liqligini eksperimental o'rganish natijalari keltirilgan.

Magnit suyuqlikning yopishqoqlik koefitsienti kapillyar vikoziometrda foydalanib o'lchandi [2]. Asbob thermostat ichiga joylashtirilgan U simon shisha naydan iborat bo'lib, bu nayning tirsaklaridan biriga yuqori qismida a rezervuari bo'lgan, k kapillyar kavsharlangan. Ikkinchi tirsakning pastki qismi ichki diametri keng bo'lgan nay orqali b rezervuarga kavsharlangan. Tajribadan oldin suyuqlik b rezervuarga quyiladi, so'ngra u a rezervuarga suriladi. SHundan so'ng suyuqlikning o'z og'irligi ta'sirida oqishiga imkon beriladi va suyuqlik sathining m_1 belgidan, m_2 belgigacha pasaygan vaqt oralig'i o'lchanadi (1-rasm). Viskoziometrning o'lchamlarini bilgan holda suyuqlikning yopishqoqlik koefitsienti aniqlanadi.

Dastlab tajribada suvning, so'ngra magnit suyuqlikning oqib chiqish vaqtlari aniqlandi. Suyuqliklarning oqib chiqish vaqtlari t_0 va t ni hamda ularning ρ_0 va ρ zichliklarini bilgan holda ichki ishqalanishning nisbiy koefitsienti η/η_0 ni topish mumkin. Suvning η_0 qiymatini jadvaldan olib, namuna yopishqoqlikning absolyut η koefitsienti Puazeyl qonunidan foydalanib, quyidagi formuladan hisoblab topish mumkin:

$$\eta = \eta_0 \cdot t/t_0 \quad (1)$$

(1) ifodani $v = \eta/\rho$ (kinematik yopishqoqlik) orqali quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$v = v_0 \cdot t/t_0 \quad (2)$$

Suyuqlik yopishqoqlik koefitsientini temperaturaga bog'liqlanishi *Frenkel-Andrade* tenlamasi bilan ifodalanadi:

$$v = C \cdot e^{\frac{E_A}{kT}} \quad (3)$$


Bu yerda E_A - suyuqlik molekulasining aktivlanish energiyasi, C - bir holatdan ikkinchi holatga o'tish vaqtiga, tebranish chastotasiga bog'liq bo'lgan koefitsient, k - Bolsman doimiysi, T - absolyut temperatura.

Suyuqlik yopishqoqlik koefitsientini o'rganish uchun vikoziometrni thermostat ichiga joylashtiramiz [3]. Termostat ichidagi muhit temperaturasini o'zgartirib, kichik temperaturalar intervalida (12-80 °C) magnit suyuqlik yopishqoqlik koefitsienti o'lchandi. Tajriba natijalari 2-rasmda keltirilgan. Bu rasmdan ko'rinadiki, magnit suyuqlikning yopishqoqlik koefitsienti temperatura oshishi bilan eksponensial kamayib borar ekan.


(3) tenglikning ikki tomonini logarifmlasak, quyidagi tenglikka ega bo'lamiz:

$$\ln(v) = E_A/kT + \ln(C) \quad (4)$$

(4) ifodadan ko'rinib turibdiki $\ln(v)$ ning $1/T$ ga bog'liqligi chiziqli ko'rinishda bo'ladi. Yuqorida



3-rasm. $\ln(v)$ ning $1/T$ ga bog'liqligi



2-rasm. $FeCl_3$ magnit suyuqligi yopishqoqlik koefitsientining temperaturaga bog'liqligi.

keltirib

o'tilgan natijalar asosida $\ln(v)$ ning $1/T$ ga bog'liqlik grafignini 3-rasmda aks etgan. 3-rasmdagi grafik chiziqli funksiyaning burchak koefitsienti quyidagiga teng:

$$E_A/k = 1365,5 \quad (5)$$

(5) ifodadan magnit suyuqlik molekulasiining aktivlanish energiyasi $E_A \approx 1,18$ eV ekanligi kelib chiqdi. C kattalikning qiymati esa $C \approx 1,56 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2 \cdot \text{s}^{-1}$ ga teng.

Xulosa qilib quyidagilarni aytish mumkin:

1. FeCl_3 magnit suyuqlikning yopishqoqlik koeffitsienti temperatura oshishi bilan eksponensial kamayib borar ekan.
2. Magnit suyuqlik molekulasiining faollashish energiyasi $E_A \approx 1,18$ eV teng.

Adabiyotlar

1. E.YA.Blum, A.O.Seber «Magnitniye jidkosti». «Novoe v jizni, nauke, texnike». Ser. «Fizika»-1989
2. A.G.Belyakin, E.S.Chetverikova, I.A.Yakovlev «Fizikadan praktikum». Toshkent:O'qituvchi, 1960, 178-1817-b
3. A.K.Kikoin. I.K.Kikoin. «Molekulyar fizika». Toshkent:O'qituvchi, 1978,332-337-b

UDK 621.3

KREMNIYDA KISLORODLI KOMPLEKSLARNING HOSIL BO'LISHI

E. U. Arziqulov, S. N. Srajev, O. S. Ne'matov, J. Yo'ldashev

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. $Si < B, O, Cu >$ va $Si < B, O, Mn >$ namunalari uchun elektroneytrallik tenglamasi tuzilgan va yechilgan. Bu yechim asosida kremniyda kislorod va marganets hamda kislorod va mis kirishmalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv natijasida hosil bo'luvchi elektr jihatdan neytral bo'lgan komplekslar konsentratsiyasining temperaturaga bog'liqligi o'rganilgan. Bu komplekslarning hosil bo'lish mexanizmi taklif etilgan.

Kalit so'zlari: diffuziya, legirlash, yupqa qatlam, kremniy, kislorod, mis, marganets, elektroneytrallik tenglamasi, kompleks.

Образование кислородных комплексов в кремнии

Аннотация. Составлено и решено уравнение электронейтральности для образцов $Si < B, O, Cu >$ и $Si < B, O, Mn >$. Пользуясь решением уравнение электронейтральности, изучены температурное зависимости концентрации электронейтральных комплексов при межпримесной взаимодействии кислорода марганцем и кислорода медью в кремнии. Предложены механизмы образования этих комплексов.

Ключевые слова: диффузия, легирование, тонкий слой, кремний, кислород, медь, марганец, уравнение электронейтральности, комплекс.

Formation of oxygen complexes in silicon

Abstract. The equation of an electroneutrality for samples $Si < B, O, Cu >$ and $Si < B, O, Mn >$ is equate and solved. Using the solution of the electroneutrality equation, dependences of concentration of electroneutral complexes are studied temperature dependence interimpurity interaction of oxygen by manganese and oxygen by copper in silicon. Mechanisms formation of these complexes are offered.

Keywords: diffusion, doping, a thin layer, silicon, oxygen, copper, manganese, the electroneutrality equation, a complex.

Kremniy (Si) da oltingugut (S) va mis (Cu) kirishmalari o'rtasida o'zaro kimyoviy bog'langan, elektr jihatdan neytral komplekslarning hosil bo'lishi [1] ishida o'rganilgan. (Si) taqiqlangan zonasida (S) ham, (Cu) ham donorli energetik sath hosil qilishiga qaramasdan, ma'lum bir termodinamik sharoitlarda kimyoviy bog'langan komplekslarning hosil bo'lishiga ishtirok etadi va namuna boshlang'ich (Si) (KDB-10, p-tur) ning elektrofizik va rekombinatsion parametrlarini egallaydi. Si da hosil bo'luvchi bunday komplekslarning tabiatini, strukturasi va o'zaro bog'lanish mexanizmlarini yanada to'laroq o'rganish maqsadida elektr jihatdan o'ta faol bo'lgan O kirishmasi bilan (Cu) kirishmalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv o'rganildi.

Boshlang'ich material sifatida Choxral usuli bilan o'stirilgan KDB-10 markali (*Si*) monokristali tanlab olindi. (*Si*) dagi *O* ning konsentratsiyasi optik usul bilan ($\lambda = 9,1 \text{ mkm}$, $N_{O_2} = (5,7) \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$) aniqlanadi. (*Cu*) kirishmasi (*Si*) sirtiga vakuum ($10^{-4} \text{ mm.sim.ust}$) sharoitida purkalib, yupqa qatlamdan $1000 - 1250 \text{ }^\circ\text{C}$ temperatura oralig'ida $50 \text{ }^\circ\text{C}$ qadam bilan diffuziya yo'li bilan legirlanadi. Hosil bo'lgan $Si < B, O, Cu >$ namunalari parametrlarini solishtirish uchun har safar $Si < B, O >$ sinov namunalari ham birgalikda bir xil sharoitda qizdirildi. $Si < B, O, Cu >$ va $Si < B, O >$ namunalari parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

$Si < B, O, Cu >$ va $Si < B, O >$ namunalarining $1000-1250 \text{ }^\circ\text{C}$ temperatura oralig'idagi o'tkazuvchanlik turi va solishtirma qarshilig ($\rho, \text{Om} \cdot \text{sm}$).

Diffuziya temperaturasi, $^\circ\text{C}$	Namunalar			
	$Si < B, O, Cu >$		$Si < B, O >$	
	O'tkazuvchanlik turi	$\rho, \text{Om} \cdot \text{sm}$	O'tkazuvchanlik turi	$\rho, \text{Om} \cdot \text{sm}$
1000	<i>p</i>	14,5	<i>p</i>	10,1
1050	<i>p</i>	14,0	<i>p</i>	10,2
1100	<i>p</i>	13,3	<i>p</i>	11,2
1150	<i>p</i>	10,5	<i>n</i>	$4,7 \cdot 10^2$
1200	<i>p</i>	12,0	<i>p</i>	$5 \cdot 10^4$
1250	<i>p</i>	14,4	<i>p</i>	11,2

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sinov namunasi $Si < B, O >$ ning solishtirma qarshiligi diffuziya temperaturasining oshib borishi bilan oshadi. $1150 \text{ }^\circ\text{C}$ da esa solishtirma qarshiligi $4,7 \cdot 10^2 \text{ Om} \cdot \text{sm}$ ga teng bo'lib, o'tkazuvchanlik turini *p*-turdan *n*-turga o'zgartiradi. Diffuziya temperaturasining $T > 1150 \text{ }^\circ\text{C}$ qiymatlarida esa yana o'tkazuvchanlik turini *p*-turga o'zgartiradi va $1250 \text{ }^\circ\text{C}$ temperaturada esa boshlang'ich *Si* namunasi parametrlariga yaqin qiymatga ega bo'ladi. $Si < B, O >$ namunalari parametrlarining bunday o'zgarishini ilmiy adabiyotlarda *Si* da yuqori temperaturali termodononlarning (TD-3 ning), ya'ni temik toblanish nuqsonlarining paydo bo'lishi bilan tushintiriladi. *Cu* kirishmasining esa *Si* parametrlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligini misning elektr jihatdan faol konsentratsiyasining kamligi ($5 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$) bilan izohlashadilar [2].

Bizning fikrimizga ko'ra $Si < B, O, Cu >$ namunasi parametrlarining bir muncha o'zgarishini hamda *Cu* ning *Si* dagi eruvchanligining qaralayotgan temperatura oralig'ida ($\sim 10^{18} \text{ sm}^{-3}$) [3] ekanligini hisobga olsak, *Si* da *O* va *Cu* kirishmalari o'rtasida kimyoviy bog'langan elektroneytral komplekslar hosil bo'lishi mumkin [4]. Bunday komplekslar (*Cu + O*) hosil bo'lishining effektiv temperaturasi $1160 \text{ }^\circ\text{C}$ ga to'g'ri keladi.

Agar haqiqatdan ham *Si* da *Cu* va *O* o'rtasida kimyoviy bog'langan kompleks hosil bo'lsa, u holda bu komplekslar konsentratsiyasining temperaturaga qanday bog'liqligini baholash mumkin bo'ladi.


$Si < B, O, Cu >$ namunasidagi (*O + Cu*) komplekslarining konsentratsiyasini hisoblaymiz. Buning uchun $Si < B, O, Cu >$ sistemasining elektrontrallik tenglamasini tuzamiz:

$$N_B^- + n_0 = P(E_{d_1}) + P(E_{d_2}) + P_0$$

bu erda

$$P(E_{d_1}) = \frac{N_{d_1}}{2e^{\frac{F-E_{d_1}}{kT}} + 1}; \quad P(E_{d_2}) = \frac{N_{d_2}}{2e^{\frac{F-E_{d_2}}{kT}} + 1}$$

E_{d_1} va E_{d_2} -sathlardagi elektronlar soni.



Adabiyotlardan ma'lumki, O , Si ning taqiqlangan zonasida quyidagi energetik sathlarni hosil qiladi: $E_{d_1} = E_c - 0,05 eV$ va $E_{d_2} = E_c - 0,15 eV$ O'tkazuvchanlik zonasidagi elektronlar sonini va valent zonasidagi kovaklar sonini Xoll effekti yordamida tajribadan olingan natijalardan foydalanib Fermi sathini aniqlash mumkin:

p -turdagi yarimo'tkazgichlar uchun $-F = E_v + kT \ln \frac{N_v}{p}$, n -turdagi yarimo'tkazgichlar uchun

esa $-F = E_c - kT \ln \frac{N_c}{n}$ formulalar orqali topiladi. $N_c = 2,8 \cdot 10^{19} sm^{-3}$ - o'tkazuvchanlik zonasidagi effektiv holatlar zijligi; $N_v = 1,1 \cdot 10^{19} sm^{-3}$ - valent zonasidagi effektiv holatlar zijligi; k - Boltzman doimiysi. Yuqorida keltirilgan formulalardan foydalanib, $Si < B, O >$ namuna uchun quyidagi 2-jadvalda keltirilgan natijalarga ega bo'lamiz:

2-

jadval

$T^0 S$	p_0, n_0, sm^{-3}	F, eV	f_{d_1}	f_{d_2}	N_0, sm^{-3}
1000	$1,73 \cdot 10^{15}$	$E_c - 0,835$	0,9997	0,000176	$2,7 \cdot 10^{14}$
1100	$1,78 \cdot 10^{14}$	$E_c - 1,135$	0,2235	0,000055	$1,82 \cdot 10^{15}$
1150	$9,6 \cdot 10^{13}$	$E_c - 1,247$	0,9999	0,0000078	$1,9 \cdot 10^{15}$
1200	$3,6 \cdot 10^{13}$	$E_c - 1,403$	0,9999	0,00000724	$1,96 \cdot 10^{15}$
1250	$2,68 \cdot 10^{13}$	$E_c - 1,403$	0,9999	0,0000019	$1,973 \cdot 10^{15}$

Endi $Si < B, O, Cu >$ namuna uchun elektroneytrallik tenglamasini tuzib, Cu ning konsentratsiyasini (N_{Cu}) yuqoridagi formulalardan foydalangan holda topamiz. Ma'lumki, Cu Si da quyidagi energetik sathlarni hosil qiladi: $E_c - 0,49 eV$, $E_c + 0,24 eV$ [3].

$$p_0 + (2 - (f_{d_1} + f_{d_2})) \cdot (N_0 - N_k) + (1 - f_{d_3}) \cdot (N_{Cu} - N_k) = N_B^- + n_0$$

Bu tenglamadan kompleksning konsentratsiyasini ($O + Cu$) N_k ni topsak, quyi-dagi tenglamaga ega bo'lamiz:

$$N_k = \frac{(2 - (f_{d_1} + f_{d_2})) \cdot N_0 + (1 - f_{d_3}) N_{Cu} + p_0 - N_B^- - n_0}{3 - (f_{d_1} + f_{d_2} + f_{d_3})}$$

$Si < B, O, Cu >$ namunasi uchun quyidagi 3-jadvalda keltirilgan natijalarga ega bo'lamiz:

3-jadval

$T, ^\circ C$	p_0, n_0, sm^{-3}	F, eV	f_{d3}	N_{Cu}, sm^{-3}	N_k, sm^{-3}
1000	$1,749 \cdot 10^{15}$	$E_c - 0,834$	0,9645	$2,6 \cdot 10^{14}$	$2,7 \cdot 10^{14}$
1100	$9,5 \cdot 10^{14}$	$E_c + 0,976$	0,0022	$1,06 \cdot 10^{15}$	$7,75 \cdot 10^{14}$
1150	$1,18 \cdot 10^{15}$	$E_c - 0,998$	0,99882	$8,29 \cdot 10^{14}$	$1,76 \cdot 10^{15}$
1200	$1,36 \cdot 10^{15}$	$E_c - 1,027$	0,9890	$6,469 \cdot 10^{14}$	$1,352 \cdot 10^{15}$
1250	$1,45 \cdot 10^{15}$	$E_c - 1,063$	0,9903	$5,55 \cdot 10^{14}$	$1,44 \cdot 10^{15}$

3-jadvalda hisoblab topilgan qiymatlar yordamida $Si < B, O, Cu >$ namunasidagi $(O + Cu)$ komplekslarining temperaturaga bog'liqlik grafigi quyidagi 1-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, temperaturaning $T = 1060 ^\circ C$ qiymatida $(O + Cu)$ komplekslar maksimal qiymatga erishar ekan.

Si da O va Mn kirishmalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuvining effektiv temperaturasi $T_{ef} = 1150 ^\circ C$ ekanligi aniqlangan [4]. $Si < B, O, Mn >$ namunasi uchun ham yuqoridagi usul yordamida $(O + Mn)$ komplekslarining konsentrat-siyasini aniqlandi. $Si < B, O, Mn >$ namunasi uchun elektrontrallik tenglamasini tuzildi. Ma'lumki, Mn Si ning taqiqlangan zonasida quyidagi energetik sathga ega $E_c - 0,53 eV$ [3] bo'ladi.


$$p_0 + (2 - (f_{d1} + f_{d2})) \cdot (N_0 - N_k) + (1 - f_{d3}) \cdot (N_{Cu} - N_k) = N_B^- + n_0$$

Elektroneytrallik tenglamasidan foydalanib N_k $(O + Mn)$ komplekslarning konsentratsiyasini hisoblandi:

$$N_k = \frac{(2 - (f_{d1} + f_{d2})) \cdot N_0 + (1 - f_{d3}) N_{Cu} + p_0 - N_B^- - n_0}{3 - (f_{d1} + f_{d2} + f_{d3})}$$

4-jadval


$T, ^\circ C$	p_0, n_0, sm^{-3}	F, eV	f_{d3}	N_{Mn}, sm^{-3}	N_k, sm^{-3}
1000	$4,17 \cdot 10^{13}$	$E_c - 1,16$	0,99936	$2 \cdot 10^{15}$	$0,45 \cdot 10^{14}$
1100	$0,52 \cdot 10^{13}$	$E_c - 1,47$	0,9999	$1,81 \cdot 10^{15}$	$4,46 \cdot 10^{14}$
1150	$1,04 \cdot 10^{14}$	$E_c - 1,24$	0,9980	$3,07 \cdot 10^{15}$	$1,124 \cdot 10^{15}$
1200	$1,04 \cdot 10^{12}$	$E_c - 1,77$	0,9999	$2 \cdot 10^{15}$	$1,06 \cdot 10^{15}$
1250	$0,74 \cdot 10^{12}$	$E_c - 1,88$	0,9999	$1,99 \cdot 10^{15}$	$0,158 \cdot 10^{14}$



2-rasm. $Si < B, O, Mn >$ namunasida $(O + Mn)$ komplekslar konsentratsiyasining temperaturaga bog'liqligi.

4-jadvalda hisoblab topilgan qiymatlar yordamida $Si < B, O, Mn >$ namunasidagi $(O + Mn)$ komplekslar konsentratsiyasining temperaturaga bog'liqlik grafigi 2-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, temperaturaning $T = 1150 ^\circ C$ qiymatida $(O + Mn)$ komplekslar maksimal qiymatga erishar ekan. Yuqorida Si da $O + Cu$ va $(O + Mn)$ komplekslari hosil bo'lishining temperaturaga bog'liqligini o'rganish asosida bu komplekslarning paydo bo'lish mexanizmlari haqida fikr yuritmoqchimiz. O atomlari

$2s^2 2p^4$ elektron konfiguratsiyasiga ega bo'lib, o'ziga yaqin bo'lgan 4 ta Si atomi bilan kovalent bog'lanish hosil qiladi.



3-rasm. Si da O + Mn (O + Cu) komplekslarining strukturasi.

Bunda bog'ga qatnashmayotgan 2 ta elektron Si ning taqiqlangan zona kengligida 2 ta chuqur energetik sathlar paydo qiladi. Mn (Cu) ni Si ga legirlash jarayonida kristall panjara tugunida joylashgan O Mn ning 2 ta atomi bilan o'zaro ta'sirlashadi va Si_4OMn_2 (Si_4OCu_2) kvazi molekulasi hosil bo'ladi. Bunday komplekslarning har bittasida 2 ta Mn (Cu) atomining qatnashishi, $Si < B, O, Mn >$ $Si < B, O, Cu >$ namunasida Mn (Cu) ning to'liq konsentratsiyasi muvozanat holatida turgan O konsentratsiyasidan 2 barobar ko'p bo'lishini ko'rsatadi. $Si < B, O, Mn >$ $Si < B, O, Cu >$ namunasidagi komplekslarning biz taklif etayotgan strukturasi 3- rasmda keltirilgan.

Adabiyotlar

1. Бахадирханов М.К. Аскарлов Ш.И., Норкулов Н., Сражев С.Н. Некоторые особенности взаимодействия серы с медью в кремнии. РАН «Неорганические материалы», 1992, т.28, №8, стр. 1606-1608.
2. Dash W.C. Copper precipitation on dislocation in silicon. //J.Appl. Phys. 1956, v.27, №10, p. 1193-1195.
3. Болтакс Б.И., Бахадирханов М.К., Гродецкий С.М., Куликов Г. С. Компенсированный кремний. Наука, Л. 1972, с. 120.
4. S.N.Srajev Toshboyev T.U., Kamarov M. Kremniyda mis va kislorod kirishmalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuvni o'rganish. SamDU yosh olimlar konferensiyasi, 2014.
5. Саъдуллаев А.Б. Особенности комплексообразования между примесными атомами марганца и кислорода в кремнии //Молодой учёный.-2014.-№12.- с.50-52.

УДК: 530.12; 530.145

YUQORI ENERGIYALI REAKSIYALARDA FUNDAMENTAL MASSANING ROLI

Sh.Eshquvvatov¹, U.Xodjaeva²

¹ Samarqand davlat universiteti,

² Samarqand qishloq xo'jalik instituti

Annotatsiya: Ushbu ishda fundamental massali kvant maydonlar nazariyasini ikkinchi yaqinlashishdagi hisoblashdagi ayrim eksperimental basharotlari keltirilgan. Yuqori energiyalarda $e^-e^- \rightarrow e^-e^-$ va $e^-e^+ \rightarrow e^-e^+$ jarayonlarini boshlang'ich va so'nggi holatlar polarizatsiyalarini e'tiborga olingan holda kesimlari hisoblangan.

Kalit so'zlar: fazo-vaqt, fundamental massa, fundamental uzunlik, kvant maydonlar nazariyasi.

Role of the fundamental mass in high-energy reactions

Abstract: In this paper some experimental effects of Quantum Field Theory with a Fundamental Mass in the calculation of the second order processes are presented. The cross sections of $e^-e^- \rightarrow e^-e^-$ and $e^-e^+ \rightarrow e^-e^+$ processes at high energies calculated taking into account polarized initial and final particles.

Keywords: space-time, fundamental mass, fundamental length, quantum field theory.

Роль фундаментальной массы в высокоэнергетических реакциях

Аннотация: В данной работе рассмотрены некоторые экспериментальные последствия применения квантовой теории поля с фундаментальной массой в вычислениях процессов второго порядка. Вычислены сечения процессов рассеяния $e^-e^- \rightarrow e^-e^-$ и $e^-e^+ \rightarrow e^-e^+$ при высоких энергиях с учетом поляризаций начальных и конечных частиц.

Ключевые слова: пространство-время, фундаментальная масса, фундаментальная длина, теория квантового-поля.

V.G.Kadyshevsky va R.M.Ibadovlar[1-3] tomonidan yaratilgan yangi nazariya fundamental massali kvant maydonlar nazariyasi esa yuqori energiyalarda kuchli, kuchsiz va elektromagnit o'zaro ta'sirlanuvchi zarralar uchun lokal nazariya bo'lib, tabiatda yorug'lik tezligi c va Plank doymiyisi \hbar lar bilan bir qatorda yangi «fundamental massa» M , yoki bunga mos holda teskari bo'lgan

«fundamental uzunlik» $\ell = \frac{\hbar}{Mc}$ mavjud degan gipotezaga asoslangan. Bu yangi kattaliklarni olimlar

tomonidan bir necha bor maydon nazariyasiga kiritilishiga harakat etilgan. Ammo, geometriya asosida kiritilishi V.G.Kadyshevsky va R.M.Ibadovlar[1] tomonidan amalga oshirilgan. Bunda M esa, c va \hbar parametrlar bilan bir qatorda besh o'lchamli De Sitter fazasi impuls geometriyasida bajarilgan. Yangi nazariyani yaratishda konfiguratsion tasavvur ishlatilgan. Bu esa prinsipial axamiyatga ega va izohlashga xojat tugiladi. KMN sini yaratilishida maydonlarning standart nazariyasini impuls tasavvurida yozib, keyin unda minkovskiy p -fazosidan katta M radiusli De Sitter p fazasiga utilgan. De Sitter fazosi doimiy egrilikka ega bo'lgani uchun, unda ikkita hol mavjud:

$$p_0^2 - p_1^2 - p_2^2 - p_3^2 + p_5^2 \equiv g^{KL} P_K P_L = M^2 \quad (1)$$

$$K, L = 0, 1, 2, 3, 5$$

(egrilik musbat: $g^{00} = -g^{11} = -g^{22} = -g^{33} = +g^{55} = 1$)

$$p_0^2 - p_1^2 - p_2^2 - p_3^2 - p_5^2 \equiv g^{KL} P_K P_L = -M^2 \quad (2)$$

(egrilik manfiy: $g^{00} = -g^{11} = -g^{22} = -g^{33} = -g^{55} = 1$)

Noevklid 4-o'lchamli fazoda (2)-ni Lobachevskiyning mavhum 4-fazosi ham deyiladi. Agarda $E \geq M$ energiyalarda impuls fazoga tayanuvchi KMN yangi fizik xodisalar mavjud bo'lishi mumkin.

Umuman aytganda M parametr Plank massasi $M_p = \sqrt{\hbar c / k} \approx 10^{19}$ GeV.ga teng bo'lishi mumkin.

Standart KMNda "kichik" 4-impulslar $|p_0|, |\vec{p}| \ll M$ $p^5 = g^{55} p_5 \cong M$ yaqinlashishi to'g'ri keladi.

Fundamental massali KMN ning formulirovkasi De-Sitter tenglamasi (2) ning kvant versiyasi ya'ni besh o'lchamli maydon tenglamasiga[1]

$$\left[\frac{\partial^2}{\partial x^\mu \partial x_\mu} - \frac{\partial^2}{\partial x_5^2} - \frac{M^2 c^2}{\hbar^2} \right] \Phi(x, x^5) = 0 \quad (3)$$

$$\mu = 0, 1, 2, 3$$

asoslangan. Bu tenglamani hosil etilishida (2) tenglamaga qo'yidagi kvant operatorlarini $p_\mu = i\hbar \frac{\partial}{\partial x_\mu}$ va $p_5 = i\hbar \frac{\partial}{\partial x_5}$ kiritish orqali foydalanilgan.

(3) tenglamada barcha fundamental parametrlar \hbar, c va M mujasimlanganligi uchun bu tenglamani «fundamental tenglama» deyiladi. M parametr esa Plank massasiga $M_P = \sqrt{\frac{\hbar c}{k}} \approx 10^{19} \text{ GeV}$ ga juda yaqin bulishi ham mumkin. Shu uchun ushbu maydon nazariyasi umimiy holda kvant gravitatsiyasini ham qamrab olishi mumkin. Tensor o'lchamlariga qaramasdan hamma maydonlar (3) fundamental tenglamani qanoatlantiradi. Shuning uchun barcha $\varphi(x)$ skalyar (spinlari 0), $\psi(x)$ spinor (spinlari $1/2$), $A_\mu(x)$ vektor (spinlari 1) va $B_{\mu\nu}(x, x^5)$ tenzor (spinlari 2) maydonlar uchun 5-o'lchamli $\Phi(x, x^5)$ to'liq funksiyasini $\varphi(x, x^5)$, $\psi(x, x^5)$, $A_\mu(x, x^5)$ va $B_{\mu\nu}(x, x^5)$ ko'rinishda yozashimiz mumkin. (3) fundamental tenglama yechimida $\Phi(p, 0)$ va $\frac{\partial\Phi(p, 0)}{\partial x^5}$ funksiyalar klassini tashkil etib, fundamental tenglama uchun Koshi masalasi x^5 o'zgaruvchi bo'yicha korrekt bo'ladi:

$$\begin{cases} \left[\frac{\partial^2}{\partial x^\mu \partial x_\mu} - \frac{\partial^2}{\partial x_5^2} - \frac{M^2 c^2}{\hbar^2} \right] \Phi(x^\mu, x^5) = 0, \\ \Phi(x^\mu, x^5)|_{x^5=0} = \frac{1}{(2\pi)^{3/2}} \int e^{-ipx} \Phi(p, 0) d^4 p, \\ \frac{\partial\Phi(x^\mu, x^5)}{\partial x^5} |_{x^5=0} = \frac{1}{(2\pi)^{3/2}} \int e^{-ipx} \frac{\partial\Phi(p, 0)}{\partial x^5} d^4 p \end{cases} \quad (4)$$

(3) tenglama uchun Koshi masalasi korrekt bo'lishi uchun boshlang'ich shartlardan p – tasavvurida $p_n^2 = M^2$ sferadan tashqarida $\Phi(p, 0)$ va $\frac{\partial\Phi(p, 0)}{\partial x^5}$ lar eksponensial so'nuvchi bo'lishlarini talab qilinadi. $\Phi(x, 0)$ va $\frac{\partial\Phi(x, 0)}{\partial x^5}$ lar Koshi shartlari to'rt o'lchamli fazo-vaqt fazosida maydon funksiyalaridir. (3) fundamental tenglama uchun Koshi masalasining korrektlik shartiga asoslanib M fundamental massaga ultrobinafsha viloyatidagi uzoqlashuvlikni kesuvchi majburiati rolini yuklatadi. Balki bu yangi nazariya ultrobinafsha viloyatidagi uzoqlashuvlikga ega emasdir? Xozirgi vaqtda ushbu savolga aniq javob bo'lmasa ham (3) fundamental tenglama uchun Koshi masalasi x^5 koordinata bo'yicha korrekt qo'yilishini tushintiraylik. Koshi masalasi korrekt qo'ylsa $\Phi(x, 0)$ va $\partial\Phi(x, 0)/\partial x^5$ kattaliklar to'rt o'lchamli fazo-vaqtda aniqlangan maydonlar bo'ladi va (3) tenglamaning echimi yagona bo'lib Fure integrali bilan aniqlanadi. KMNga Koshi masalasini asos etib olinishi maydon uchun yangi konsepsiya tushinchasini kiritilishiga olib keladi. Boshqa so'z bilan aytganda, (3) fundamental tenglamani qanoatlantiradigan 5-o'lchamli fazoda barcha maydonlar uchun $\Phi(x, x^5)$ to'liq funksiya to'g'ri kelishi, 4-o'lchamli fazoda ikkilangan qo'yidagi funksiyalarga mos keladi:

$$\Phi(x, x^5) \leftrightarrow \begin{pmatrix} \Phi(x, 0) \\ \frac{\partial\Phi(x, 0)}{\partial x^5} \end{pmatrix} \equiv \begin{pmatrix} \Phi(x) \\ \chi(x) \end{pmatrix} \quad (5)$$

bunda $\Phi(x)$ – 4-o'lchamli fazodagi oddiy to'liq funksiya bo'lib erkin zarralarni tavsiflaydi va propagatorga ega bo'ladi. Ammo, $\chi(x) = \frac{\partial\Phi(x, 0)}{\partial x^5}$ 4-o'lchamli fazoda faqatgina o'zora ta'sirda ishtirok etib erkin zarralarni tavsiflamaydi va propagatorga ega bo'lmaydi. Bu maydonlar funktsiyasi faqatgina oddiy maydonlar bilan o'zora ta'sirlashishlarida namoyon bo'ladi. Maydon funksiyasini ikkilanishi $M \rightarrow \infty$ da yuqoladi. Yani, bizning tavsifimiz bo'icha fundamental massa M tabiatda mavjud bo'lmasa bu maydon $\chi(x) = \frac{\partial\Phi(x, 0)}{\partial x^5}$ ham o'z navbatida mavjud bo'lmaydi.

Biz endi ta'sirning statsionarlik shartlaridan kelib chiqqan holda boshlang'ich qiymatlar Lagranj harakat tenglamasini qanoatlantirishidan ta'sir integralini yozamiz:

$$S = \int d^4 x L(\Phi(x, 0), \frac{\partial(\Phi(x, 0))}{\partial x^5}) \quad (6)$$

Bizning tavsifimiz bo'yicha Dirak (spinor) erkin maydoni uchun 5-o'lchamli konfiguratsion fazoda to'liq ta'sir integrali qo'yidagicha bo'ladi[4-6]:

$$S = \frac{1}{2} \int d^4 x \{ \overline{\Psi}(x, x^5) (i\hat{\partial} + M) \left(\frac{-i}{M} \frac{\partial}{\partial x^5} \Psi(x, x^5) \right) + \left(\frac{i}{M} \frac{\partial}{\partial x^5} \Psi(x, x^5) \right) (i\hat{\partial} + M) \Psi(x, x^5) + \dots \}$$

$$+ \left(\frac{i}{M} \frac{\partial}{\partial x^5} \Psi(x, x^5) \right) \left(\frac{i}{M} \frac{\partial}{\partial x^5} \Psi(x, x^5) - \bar{\Psi}(x, x^5) \left(M + \frac{(i\partial)^2}{M^2} \right) \Psi(x, x^5) \right), \quad (7)$$

bunda $\Psi(x, x^5)$ (3) fundamental tenglamani qonatlantiruvchi spinor maydon funksiyasi. (5) ga asosan $\Psi(x, 0) \equiv \Psi(x)$ va $\frac{-i}{M} \frac{\partial}{\partial x^5} \Psi(x, 0) \equiv \chi(x)$.


Endi ushbu nazaryani ayrim elektrodinamik jarayonlarga tatbiqini o'rganaylik. Bu nazariyada (5) ga asosan Feynman diagrammalarida qo'yidagi yangi elektrodinamik cho'qqilar paydo bo'ladi:

Cho'qqilar	Matritsa elementidagi faktor	Diagramma elementi
Oddiy elektrodinamik cho'qqi	$e\gamma^\mu$	
FM KMNda yangi cho'qqilar	$e(q+p)_\mu \gamma^5$	
FM KMNda yangi cho'qqilar	$-\frac{\alpha}{\pi} \gamma^5 \delta_{\mu\nu}$	

Tablitsa 1. FM KMNda yangi cho'qqilar

Bu tablitsada \xrightarrow{p} strelka orqali $\Phi(p)$ maydon, va ikkilangan strelka \rightrightarrows^p - orqali $\chi(p)$ maydon belgilangan.

1). FM KMNda $e^-e^- \rightarrow e^-e^-$ jarayoni uchun qo'yidagi Feynman diagrammalari bo'ladi:



Rasm. 1. FM KMNda $e^-e^- \rightarrow e^-e^-$ jarayoni uchun Feynman diagrammalari.

Ultrarelyativistik yaqinlashishda $E^2 \gg m^2$ boshlang'ich polarizatsiyalari λ_1 va λ_2 va so'ngi polarizatsiyalari λ'_1 va λ'_2 hisobga olingan holda elektronlar to'qnashish reaksiyasi differensial kesimini FM KMNda hisoblanigan [6].

2). FM KMNda $e^-e^+ \rightarrow e^-e^+$ jarayonining differensial kesimini [6] ilmiy maqolamizdagi (8) formulaga asosan quyidagi ko'rinishda topamiz:

$$\left[\frac{d\sigma}{d\Omega} \right]_{\lambda_1\lambda_2 \rightarrow \lambda'_1\lambda'_2}^{e^-e^+ \rightarrow e^-e^+} = \left[\frac{d\sigma_0}{d\Omega} \right]_{\lambda_1\lambda_2 \rightarrow \lambda'_1\lambda'_2}^{e^-e^+ \rightarrow e^-e^+} + \frac{1}{M^2} \frac{\alpha^2}{32 E^2} \left\{ \left[1 - \lambda_1 \lambda_2 \lambda'_1 \lambda'_2 \right] u \left[\frac{s}{t} + \frac{t}{s} - 2 \right] + \right.$$

$$+ \left[(1 + \lambda_1 \lambda'_1) (1 + \lambda_2 \lambda'_2) + (\lambda_1 + \lambda'_1) (\lambda_2 + \lambda'_2) \right] \frac{(t-u)s}{4t} +$$

$$+ \left. \left[(1 + \lambda_1 \lambda'_2) (1 + \lambda_2 \lambda'_1) - (\lambda_1 + \lambda'_2) (\lambda_2 + \lambda'_1) \right] \frac{(s-u)t}{4s} \right\} +$$

$$+ \frac{1}{M^4} \frac{\alpha^2}{(32)^2 E^2} \left\{ (1 - \lambda_1 \lambda'_1) (1 - \lambda_2 \lambda'_2) (u-s)^2 + (1 + \lambda_1 \lambda_2) (1 + \lambda'_2 \lambda'_1) (u-t)^2 + \right.$$

$$+ \left. [(1 + \lambda_1 \lambda_2) (1 + \lambda'_1 \lambda'_2) - (\lambda_1 + \lambda_2) (\lambda'_1 + \lambda'_2)] (u-s)(u-t) \right\}$$

bunda

$$\left[\frac{d\sigma_0}{d\Omega} \right]_{\lambda_1\lambda_2 \rightarrow \lambda'_1\lambda'_2}^{e^-e^+ \rightarrow e^-e^+} = \frac{\alpha^2}{32 E^2} \left\{ (1 + \lambda_1 \lambda'_1) (1 + \lambda_2 \lambda'_2) \frac{s^3 - u^3}{st^2} + \right.$$


$$+ (\lambda_1 + \lambda'_1) (\lambda_2 + \lambda'_2) \frac{s^3 + u^3}{st^2} + (1 - \lambda_1 \lambda'_2) (1 - \lambda_1 \lambda'_1) \frac{t^3 - u^3}{ts^2} -$$

$$\left. - (\lambda_1 - \lambda'_2) (\lambda_2 - \lambda'_1) \frac{t^3 + u^3}{ts^2} \right\}$$


Ushbu (10) annigilyasiya uchun qo‘yidagi asimmetrik kombinatsiyani

$$A = \frac{\left(\sin^8 \frac{\theta}{2} + \cos^8 \frac{\theta}{2} \right) \left(\frac{d\sigma}{d\Omega} \right)_{\lambda_1=\lambda_2} - \left(\frac{d\sigma}{d\Omega} \right)_{\lambda_1=-\lambda_2}}{\left(\sin^8 \frac{\theta}{2} + \cos^8 \frac{\theta}{2} \right) \left(\frac{d\sigma}{d\Omega} \right)_{\lambda_1=\lambda_2} + \left(\frac{d\sigma}{d\Omega} \right)_{\lambda_1=-\lambda_2}}$$

«Maple 13» kompyuter dasturida topilgan -burchak va M – fundamental massalarga bog‘liq 3-o‘lchamli grafiqi qo‘yidagi ko‘rinishga bo‘ladi:



Rasm.2. FM KMNda $e^-e^- \rightarrow e^-e^-$ jarayonida (12) assimetrining FM va burchakka bog‘liqliq 3-o‘lchamli grafiqi.



Rasm.3. FM KMNda $e^-e^- \rightarrow e^-e^-$ jarayonida (12) assimetrining FM va burchakka bog‘liqliq grafiqi.

Rasm.2. va Rasm.3.lardan ko‘rinadiki FM KMNda $e^-e^- \rightarrow e^-e^-$ jarayonida fundamental massa ya‘ni $M \rightarrow \infty$ tabiatda bo‘lmasa (12) assimetriya -burchakka bog‘liq bo‘lmaydi. Agarda, fundamental massa M tabiatda mavjud bo‘lsa (3-Rasm), (12) assimetriya – θ burchakka bog‘liq bo‘lib grafikda ma‘lum egrilgan holda ko‘ringan.

Minnaddorchilik. Ushbu maqolani tayyorlashda o‘z maslahatlari bilan hissa qo‘shgan professor Rustam Ibadov va dotsent Eshquvvat Arziqulovlarga o‘z minnatdorchiligimizni izhor etamiz.

Adabiyotlar

1. R.M.Ibadov, V.G.Kayshevsky "New formulation of QFT with Fundamental mass", 5th Intern.Sympos.on Select.Topics in Statistical Mechan., 1989, Dubna, world Scientific Singapore, New Jarsey, London, Hong Kong, p.131-156.
2. Ibadov R.M., Kadyshevsky V.G., Preprint JINR 1986, R2-86-835, Dubna.
3. Ibadov R.M., Kadyshevsky V.G., Preprint JINR 1988, D2-87-798, P.141.
4. Donkov A.D., Ibadov R.M., Kadyshevsky V.G., Mateev M.D. and Chizhov M.V., Nuovo Cimento,1985, V.87A, No.3, P.350.
5. Donkov A.D., Ibadov R.M., Kadyshevsky V.G., Mateev M.D. and Chizhov M.V., Nuovo Cimento,1985, V.87A, No.4, P.375.
6. Ibadov R., Tuhtamishev S., Khodjaeva U., Some experimental consequences hypotheses about Fundamental Mass, European Science № 2(24), 2017, 6-13.

UDK: 372.851

**GEOMETRIK ALMASHTIRISHLAR USULLARIDAN FOYDALANIB YASASHGA
DOIR MASALALARNI YECHISH**

E.M. Mardonov, Q. Ostonov, U. Mo'minov¹

Samarqand davlat universiteti

E-mail: ostonovk@mail.ru

Аннотация. Mazkur maqolada geometrik almashtirishlar usullaridan foydalanib yasashga doir masalalarni yechish usullarini topa olishga o'rgatish va bu usullarning o'quvchilar konstruktiv qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ba'zi xususiyatlari bayon etiladi.

Калит so'zlar: geometriya, almashtirish, tahlil, tadqiqot, yasash, isbot, simmetriya, parallel ko'chirish, gomotertiya, o'xshashlik, inversiya, masala.

Решение задач на построение с использованием методов геометрических преобразований

Аннотация. В этой статье излагаются некоторые особенности обучения учащихся решению задач на построение с использованием методов геометрических преобразований и влияния этих способов на развитии конструктивных способностей учащихся в процессе обучения геометрии.

Ключевые слова: геометрия, преобразование, анализ, исследование, построение, доказательство, симметрия, параллельный перенос, гомотетия, подобие, инверсия, задача.

Solution to building problems using methods geometric transformations


Abstract. This article describes some of the features of training of pupils of the challenges of building using the methods of geometric transformations and the impact of these methods on the development of constructive abilities of students in the learning process of geometry.

Keywords: geometry, transformation, analysis, research, construction, proof, symmetry, parallel translation, homothety, similarity, inversion problem.


1. Simmetriya usuli. Yasash talab etilgan figura biror to'g'ri chiziqqa yoki nuqtaga nisbatan simmetrik nuqtalarga ega bo'lishi mumkin. Bunday holda to'g'ri chiziqqa yoki nuqtaga nisbatan simmetrik almashtirishni bajarish lozim.

1-masala. ABC burchak va uning ichida O nuqta berilgan. O nuqtadan burchak tomonlari orasidagi kesmasi O nuqtada teng ikkiga bo'linadigan to'g'ri chiziqni o'tkazing.

Yechish. *Tahlil.* Faraz qilaylik, masala yechilgan va MN -izlangan to'g'ri chiziq (1- rasm).



1-rasm



2-rasm

O nuqtani simmetriya markazi deb qabul qilamiz. U holda M va N nuqtalar O nuqtaga nisbatan simmetrik. AB' to'g'ri chiziq AB ga O nuqtaga nisbatan simmetrik bo'lsin. M nuqta AB to'g'ri chiziqda yotuvchi N nuqtaga nisbatan simmetrik bo'lgani uchun AB' M nuqtadan o'tishi lozim. Shunday qilib M nuqta BC va AB' to'g'ri chiziqlar kesishish nuqtasi bo'lishi lozim.

Yasash. 1. O markazga nisbatan AB to'g'ri chiziqqa simmetrik AB' , to'g'ri chiziqni yasaymiz (buning uchun O nuqtaga nisbatan A nuqtaga simmetrik A' nuqtani, va B nuqtaga simmetrik B' nuqtani topamiz).

2. BC va AB' to'g'ri chiziqlar kesishish nuqtasi M ni topamiz va uni O nuqta bilan tutashtiramiz. Izlangan MN to'g'ri chiziqni olamiz.

Isbot tahlildan va yasashdan kelib chiqadi va shuning uchun uni kelirib o'tirmaymiz.

Tadqiqot. Tahlil va yasashdan masala hamma vaqt bitta yechimga ega degan xulosaga kelish mumkin.

2. Parallel ko'chirish usuli. Parallel ko'chirish usulida izlangan figura ayrim qismlari ma'lum yasashga yo'l qo'yadigan yangi figurani olish maqsadida parallel ko'chiriladi..

3-masala. Trapetsiyani asoslari va diagonallari bo'yicha yasang

Yechish. Tahlil. Masala yechilgan deb faraz qilamiz va $ABCD$ trapetsiya yasalgan (2-rasm).

BD diagonalni parallel shunday ko'chiramizki, uning B uchi C uchi bilan ustma-ust tushsin. Endi ACD uchburchakda barcha tomonlari ma'lum: ulardan ikkitasi trapetsiya diagonallari, uchinchi- asoslari yig'indisiga teng. Bundan quyidagi yasash kelib chiqadi .

Yasash.

1. Masala shartlari bo'yicha dastlab ACD_1 uchburchakni yasaymiz

2. D nuqtani yasaymiz (AD - trapetsiyaning ma'lum tomoni).

3. C nuqta orqali CD_1 ga parallel to'g'ri chiziqni o'tkazamiz. Ular B nuqtada kesishadi $ABCD$ trapetsiya berilgan asoslar va diagonallarga ega.

Isbot tahlildan va yasashdan kelib chiqadi.

Tadqiqot. Masala faqat ACD_1 uchburchakni yasash mumkin bo'lgan holda yechimga ega.

$\triangle ACD_1$ uchburchakni esa

$$|d_1 - d_2| < a + b < d_1 + d_2 \quad (1)$$

shartda yasash mumkin, bu erda a, b - trapetsiya asoslari, d_1 va d_2 - trapetsiya diagonallari. Bunda

$$AD_1 = a + b, AC = d_1, CD_1 = d_2$$


shart uchburchak tengsizligidan kelib chiqadi.

3. Burish usuli. Burish usulida figuraning ayrim elementlari yasashi ma'lum bo'lgan yangi figurani hosil qilish uchun buriladi.


4-masala. a, b va c uchta parallel to'g'ri chiziqlar berilgan. A, B va C uchlari berilgan to'g'ri chiziqlarda yotuvchi teng tomonli ABC uchburchakni yasang.

Yechish. Tahlil. Masala yechilgan deb faraz qilamiz va $\triangle ABC$ - izlangan uchburchak bo'lsin (3-rasm).

$AB = AC$ va $\angle BAC = 60^\circ$ bo'lgani uchun B nuqta A nuqta atrofida 60° ga yoki -60° ga burishda C nuqtaga o'tadi (chunki $\angle BAC = +60^\circ$ yoki -60°). Masalan, B nuqta A nuqta atrofida 60° ga burishda C nuqtaga o'tsin. B nuqta b to'g'ri chiziqda yotadi. Shuning uchun undan A nuqta atrofida 60° ga burish bilan olinadigan C nuqta b to'g'ri chiziqni A nuqta atrofida 60° ga burishda olinadigan b' to'g'ri chiziqda yotishi lozim. Bundan tashqari, C nuqta shartga ko'ra a to'g'ri chiziqda yotadi. Shuning uchun C nuqta b' va a to'g'ri chiziqlar kesishish nuqtasi .



3-rasm



4-rasm

Shunga o'xshash, agar B nuqta A nuqta atrofida -60° burchakka burishda C nuqtaga o'tsa, u holda C nuqta c to'g'ri chiziq va b to'g'ri chiziqni A nuqta atrofida 60° ga burishda olinadigan b' to'g'ri chiziq kesishish nuqtasidan iborat.

Yasash.

1) to'g'ri chiziqda A nuqtani ixtiyoriy tanlaymiz.

2) b to'g'ri chiziqni A nuqta atrofida 60° ga burishda olinadigan b' to'g'ri chiziqni yasaymiz (4-rasm).

3) b' va c to'g'ri chiziqlar kesishishida C nuqtani olamiz.

4) ABC uchburchakning uchinchi uchi C nuqtadan A nuqta atrofida 60° ga burishdan olinadi

Boshqa yechimni A nuqta atrofida 60° ga burishni o'sha nuqta atrofida -60° burchakka burish bilan almashtirib olishimiz mumkin.

Isbot. A nuqta atrofida -60° ga burishda b' to'g'ri chiziq b to'g'ri chiziqqa o'tadi (ris.1). Demak, b' to'g'ri chiziqni C nuqtasi o'sha burishda b to'g'ri chiziqda yotuvchi nuqtaga o'tadi. Boshqacha aytganda, B nuqta b to'g'ri chiziqda yotadi. Burish ta'rifiga ko'ra: $\angle BAC=60^\circ$, $AC=AB$. Shuning uchun $\triangle ABC$ – uchidagi burchagi 60° li teng yonli uchburchak; demak, u teng tomonli. Shunga o'xshash 4-rasmda tasvirlangan uchburchak ham teng tomonli ekanini isbotldash mumkin.

Tadqiqot. b' to'g'ri chiziq b to'g'ri chiziqqa parallel emas, chunki b va b' to'g'ri chiziq orasidagi burchak 60° ga teng, bu burish xossasidan kelib chiqadi. Shuning uchun b' to'g'ri chiziq b ga parallel s to'g'ri chiziqnibiror S nuqtada kesib o'tadi. Demak, $\triangle ABC$ hamma vaqt mavjud. Rasmda tasvirlang uchburchak ham mavjud. Shuning uchun tanlangan A nuqtada masala ikkita yechimga ega (A nuqta a to'g'ri chiziqda ixtiyoriy tanlanishi mumkin).


4. Gomotetiya yoki o'xshashlik usuli. Gomotetiya yoki o'xshashlik usuli bilan burchaklar kattaliklari, kesmalar nisbatlari va hech bo'lmagan bitta chiziq element berilgan figurani yasash zarur bo'lgan masalalar echiladi.

Yasashga doir masalalarni yechishda o'xshashlik usuli quyidagicha qo'llaniladi. Ba'zi masalar ulardagi shartlardan birini (chiziq elementni) tashlab yuborganda aniqmas bo'lib qoladi va cheksiz ko'p yechimga ega bo'ladi. Lekin bu yechimlar izlangan figuraga o'xshash figuralarni bermaydi. Bu holatda bunday figuralardan biri yasali, o'xshashlik almashtirish (gomotetiya) yordamida izlangan figura hosil qilinadi.

5-masala. ABC burchak va bu burchak ichida M nuqta berilgan. Burchak tomonlariga urinuvchi va M nuqta orqali o'tuvchi S aylanani yasang.

Yechish.

Tahlil. Masala yechilgan deb faraz qilamiz va S- izlangan aylana bo'lsin



5-rasm

Markazi B nuqtada bo'lgan va gomotetiya koeffitsienti k ga teng gomotetiyani bajaramiz. Bunda S aylana ABC uchburchakka ichki chizilgan, lekin umuman olganda M nuqtadan o'tmaydigan R aylanaga o'tadi; agar burchakning bissektrisasining biror joyida R aylananing Q markazini belgilasak, uni yasashimiz mumkin. S aylana hali ko'rsatilishi mumkin emas (chunki S aylanani R aylanaga o'tkazuvchi gomotetiya koeffitsientini bilmaymiz); biz faqat S aylana M nuqtadan o'tishini bilamiz. Qaralayotgan gomotetiya M nuqtani BM to'g'ri chiziqda yotuvchi R aylananing N nuqtasiga o'tkazadi (bu nuqtani BM to'g'ri chiziqning R aylana bilan kesishish nuqtasi sifatida topamiz). S aylananing OM radiusi R aylananing QN radiusiga gomotetik. Shuning uchun, $OM \parallel QN$ (gomotetiya xossasiga ko'ra). Shuning uchun S aylananing izlanayotgan O markazini ABC burchakning BQ bissektrisasi va NQ ga arallel MO to'g'ri chiziq kesishish nuqtasi sifatida topish mumkin.

Yasash.

- 1) ABC burchakka ichki chizilgan ixtiyoriy R aylanani yasaymiz, uning markazini Q.
- 2) N nuqta - R aylana va BM to'g'ri chiziq kesishi nuqtasi bo'lsin.
- 3) O nuqta - ABC burchak bissektrisasining NQ ga parallel MO to'g'ri chiziq bilam kesishish nuqtasi bo'lsin.
- 4) Markazi O nuqtada va radiusi OM bo'lgan S aylana izlangan aylana bo'ladi.

Isbot. B markazli va $\frac{BM}{BN}$ koeffitsientli gomotetiya R aylanani M nuqtadan o'tuvchi S

aylanaga o'tkazadi, u R aylana kabi ABC burchakka ichki chizilgan, R aylananing NQ radiusi S aylananing MO radiusiga gomotetik; shuning uchun $MO \parallel NQ$ va S markaz - $MO \parallel NQ$ to'g'ri chiziq


va ABC burchak bissektrisasi kesishish nuqtasi (S aylananing O markazi ABC burchak bissektrisasi ham tegishli, chunki S aylana burchak tomonlariga urinadi).

Tadqiqot. MB to'g'ri chiziq R aylananing ikki nuqtada N va N₁ larda kesib o'tadi. Yasashda bu nuqtalardan biridan foydalanib masala shartlarini qanoatlantiruvchi ikkita S va S₁ aylanalarni olamiz. Shunday qilib, masala ikkita yechimga ega.


6-masala. Berilgan tomonlari bo'yicha trapetsiyani yasang.

Batafsil: asoslari berilgan a va b ($a > b$) kesmalarga, yon tomonlari berilgan ikkita c va d ($c \leq d$) kesmalarga teng trapetsiyani yasash talab etiladi.

Tahlil. Faraz qilaylik, ABCD – izlangan trapetsiya, AD – uning katta asosi, BC – kichik asosi, AB va CD – yon tomonlari, bunda $AB=c$, $CD=d$.



6-rasm



7-rasm

\overline{CB} vektor bilan aniqlanuvchi ko'chirishni tasavvur etamiz. U holda CD tomon BD' kema o'tadi. ABD' uchburchakni yasash mumkin, chunki uning barcha tomonlari ma'lum. Izlangan trapetsiyani yasash uchun BD' kesmani uzunligi ma'lum bo'lgan va \overline{AD} vektor bilan bir yo'nalishga ega \overline{BC} vektorga ko'chirish lozim.

Yasash.

- 1) ABD' uchburchakni $AB=c$, $BD'=d$, va $AD'=a-b$ tomonlar bo'yicha yasaymiz.
- 2) B nuqta orqali AD' nur bilan bir xil yo'nalgan nurni o'tkazamiz.
- 3) Bu nurda C nuqtani shunday yasaymizki, $BC=b$ tenglik o'rinli bo'lsin.
- 4) C orqali BD' ga parallel CD to'g'ri chiziqni AD' ning davomi bilan D nuqtada kesishguncha davom ettiramiz. ABCD – izlangan trapetsiya.

Isbot. $AB=c$, $BC=b$ yasashga ko'ra; $AD=AD'+D'D=AD'+BC=a-b+b=a$. $CD=BD'$ parallel to'g'ri chiziqlar orasidagi parallel to'g'ri chiziqlar kesmalari sifatida.

Tadqiqot. Birinchi qadamni: $d-c < a-b < d+c$ shartda bajaramiz. Bu shartda yasashning boshqa shartlari bir qiymatli bajariladi. ABD' uchburchak, demak, ABCD trapetsiya masala shartlari bilan tenglikka bilan bir qiymatli aniqlanadi. Shuning uchun $d-c < a-b < d+c$ shartda masala yagona yechimga ega. Agar bu shart bajarilmasa, masala yechimga ega emas.


5. Inversiya usuli. Yana bitta geometrik almashtirish – inversiyani ko'rib o'tamiz, u yasashga doir murakkab masalalarni echishga imkon beradi. Konstruktiv masalalarni echishning yangi usuli yana inversiya usuli yoki teskarilash usuli yoki teskari radiuslar usuli deb ham yuritiladi. Bu usul oldin qaralgan usullarga qaraganda nisbatan «yosh». Inversiyani faqat birinchi marta o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab o'rganila boshlangan.

Bu usul aylananing o'z ichiga olgan figuralarni oddiy figuralar bilan almashtirishga imkon beradi. Inversiya usulining mohiyati berilgan va izlanayotgan figuralar bilan bir qatorda ularga yoki ularning qismlariga invers bo'lgan figuralar qarashdan iborat. Ba'zida bu usul masalani echish uchun zarur bo'lgan berilgan va izlanayotganlar orasidagi bog'lanishlarni topish uchun etarli bo'ladi.


Ko'p hollarda masalani yechish berilganga invers figura yasalgan degan farazda izlanayotganga invers figurani yasashga olib kelinadi. Bu oxirgi masala bazis aylananing qulay tanlaganda berilgan masalaga nisbatan ancha osonroq bo'ladi. Berilganga invers figurani yasab keyin izlanayotgan figura yasaladi. Inversiya usuli elementar geometriyaning eng qiyin konstruktiv masalarini echish imkonini beradi.

Bu usulning kamchiligi ko'p sonidagi yasashlar bajarishni talab etadi.

7-masala. Ikkita A va B nuqtalar orqali berilgan $\omega(O, r)$ aylana ortogonal aylananing yasang (8-rasm).



8-rasm



9-rasm

Tahlil. Agar ω aylanani bazis aylana deb qabul qilsak, inversiyada izlangan γ aylana o'z-o'ziga akslanadi, A va B nuqtalar bu aylanadagi A' va B' nuqталarга o'tadi. Lekin γ aylana to'la aniqlanadi, agar undagi uchta nuqta, masalan A, B va A' nuqtalar ma'lum bo'lsa. Bundan yasash usuli kelib chiqadi.

Yasash. 1) A nuqtaga ω aylanaga nisbatan invers bo'lgan A' nuqtani yasaymiz; 2) B va A' nuqtalardan o'tuvchi γ aylanani yasaymiz, u - izlangan aylana.

Agar A nuqta ω aylanada yotsa, u holda A' nuqta A nuqta bilan ustma-ust tushadi va ko'rsatilgan yo'l maqbul emas. Bu holda B nuqtaga nisbatan shunga o'xshash yasashni bajarish zarur. Agar ikkala A va B nuqtalar ω aylanada yotsa ularning O_1 kesishish nuqtasini belgilaymiz. O_1 - izlangan aylana markazi.

Tadqiqot. Bu yasashlar agar A, B va O nuqtalar bir to'g'ri chiziqda joylashganda o'rinli. Agar bunda A va B nuqtalar ω aylanaga nisbatan invers bo'lsa, u holda masala cheksiz ko'p yechimga ega: A va B nuqtalardan o'tuvchi ixtiyoriy ω aylana.

8-masala. O nuqta va undan o'tuvchi ikkita a va b to'g'ri chiziqlar berilgan. O nuqta orqali shunday nurni o'tkazish kerakki uning O nuqtadan berilgan to'g'ri chiziqlar bilan kesishguncha kesmalari ko'paytmasi berilgan kesma kvadratiga teng bo'lsin.

Tahlil. O (9-rasm) - berilgan nuqta, a va b -berilgan to'g'ri chiziqlar, OAB - izlangan nur, $OAB=r^2$, bu yerda r -berilgan kesma.

$\omega(O, r)$ aylanaga nisbatan inversiya A nuqtani B nuqtaga, a to'g'ri chiziqni B nuqtadan o'tuvchi biror a' aylanaga o'tkazadi. Shunday qilib, $B \equiv a' \times b$.

Yasash. Ketma-ket yasashlarni bajaramiz: $\omega(O, r)$ aylanani; ω ga nisbatan inversiyada a to'g'ri chiziq obrazi a' ni; $B \equiv a' \times b$ nuqtani; masala shartini qanoatlantiruvchi OB nurni.

Isbot. $A \equiv OB \times a$ bo'lsin. U holda A - B nuqtaning $\omega(O, r)$ ga nisbatan inversiyadagi proobrazi, chunki a to'g'ri chiziq a' aylana proobrazi. Demak, inversiya ta'rifiga ko'ra $OA \cdot OB = r^2$.

Tadqiqot. Quyidagi hollar bo'lishi mumkin: a' aylana b to'g'ri chiziqni kesib o'tadi; ikkita yuechim; a' aylana b to'g'ri chiziqqa urinadi; bitta yuechim; a' aylana b to'g'ri chiziq bilan umumiy nuqtalarga ega emas; yechimlar yo'q.

Izlangan B nuqta albatta $\omega(O, r)$ ga nisbatan inversiyada A nuqtaga mos kelgani uchun, b to'g'ri chiziq va a' aylananing umumiy nuqtasi bo'lishi lozim. Bundan masala topilgan yechimlardan tashqari boshqa yechimlarga ega emasligi kelib chiqadi.

Adabiyotlar

1. Погорелов В.А. Геометрия.7-11. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001.-312 с.
2. Зив Б. Г. И др. Задачи по геометрии для 7–11-х классов / Б. Г. Зив, В. М. Мейлер, А. Г. Баханский. – М.: Просвещение, 1991.- 171 с.
3. Киселев А. П. Элементарная геометрия. Книга для учителя / А. П. Киселев. – М.: Просвещение, 1980. - 287 с.
4. Крамор В. С. Повторяем и систематизируем школьный курс по геометрии / В. С. Крамор.– М.: Просвещение, 1992. -320 с.
5. Бевз Г. П. Геометрия: Учебник для 7-11 кл. / Г. П. Бевз, В. Г. Бевз, Н.Г. Владимирова – М.: Просвещение, 1990.-267 с.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiya, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; orientatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib:

X. Sh. Tashpulatov

Musahhih:

M.M. Ro'ziboyev

Texnik muharrirlar:

S. D. Aronbayev

Dizayner sahifalovchilar:

A. I. Inatov

Muassis: Samarqand davlat universiteti

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.

Telefon: (8 366) 239-14-07, Faks: (8 366) 239-13-87

e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.

Bosishga 20.06.2017 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.

Buyurtma raqami 100. Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.

SamDU bosmaxonasida chop etildi.